

Fazliddinov Janobiddin
Zaynobiddin o'g'li



ILM-FAN FIDOIYLARI

I nashr

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

Janobiddin Fazliddinov

***ILM-FAN
FIDOIYLARI***

Biografik to'plam

**SamDTU
axborot-resurs markazi**

Namangan-2023

“ILM-FAN FIDOIYLARI”



Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q.

Faqat ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz.

Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz!

Shavkat Mirziyoyev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

Jamiyatimizda ilm-fan ravnaqi yo'lida xizmat qilayotgan fidoyi insonlar bisyor. Ularning salohiyati, aqlu zakovati bilan olamshumul natijalarga erishilmoqdaki, bu esa mushkullarimizni oson, uzog'imizni yaqin qilmoqda, farovon hayotni ta'minlamoqda.

“Ilm-fan fidoiylari” biografik to'plami ham ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, san'at, sport va yana boshqa turli sohalarda faoliyat yuritayotgan, yurtimiz ravnaqi va taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shib kelayotgan yurtdoshlarimiz haqida.

Har bir davrning o'z qahramonlari bor. Xalqimiz, ayniqsa, ilm ahlini tanishi, ular bilan faxrlanishi va ibrat olishi muhimdir.

Umid qilamizki, aynan ushbu biografik to'plam kelajak avlodlar uchun yaxshi qo'llanma bo'lib qoladi.

Keng kitobxonlar o'qishiga mo'ljallangan ushbu mo'jazgina to'plam juz'iy kamchiliklardan holi emas. Dastlabki qadamlarimizning xayrli bo'lishini Allohdan so'rab qolamiz.

Janobiddin Fazliddinov



Rizayev Jasur Alimdjanovich

***Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti
rektori, professor.***

Rizayev Jasur Alimdjanovich 1974-yil 27-iyunda Toshkent shahrida tug'ilgan.

1991-yilda Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 254-sonli o'rta maktabni oltin medal bilan tugatdi. 1996-yilda Toshkent Davlat Tibbiyot institutini tamomlab, o'zi tahsil olgan institutning ortopedik stomatologiya kafedrasida xodimi va poliklinikada internatura shifokori bo'lib o'z faoliyatini boshladi. 1998-yildan institutning terapevtik stomatologiya kafedrasida katta laborant, 2000-2007-yillarda assistent sifatida o'z faoliyatini davom ettirgan. 2005-2007-yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalar kasaba uyushma tashkilotining raisi bo'lgan.

2006-yilda "Periodontit kursining klinik va funktsional ko'rsatkichlari va davolash xususiyatlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 2007-yildan boshlab u 1-TDTda terapevtik stomatologiya kafedrasida dotsent lavozimida ishlagan, ish jarayonida bemorlarga yordam berish ko'nikmalarini mukammal egallagan. O'z ish faoliyati davrida intizomli, bilimga chanqoq, yangilikka intiluvchan va o'z ustida tinimsiz ishlovchi shifokor ekanligini ko'rsatdi va bemorlar, kafedra va bo'lim xodimlari orasida katta hurmatga sazovor bo'ldi. Uning tashkilotchilik qobiliyatini e'tiborga olib, klinika ma'muriyati tomonidan 2007-yildan Toshkent Tibbiyot akademiyasi 3-klinikasi bosh shifokor muovini lavozimiga

tayinlandi. 2008-2011 yillarda Toshkent shahridagi Uchtepa tuman tibbiyot birlashmasining rahbari sifatida faoliyat yuritgan. 2011-yildan 2016-yilgacha Toshkent Tibbiyot Akademiyasining 3-klinikasi bosh shifokori, 2016-yildan buyon Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutining 2-Stomatologiya kafedrasini mudiri lavozimlarida ishlagan. 2015-yilda “Kompleks ijtimoiy-gigiyena tadqiqotlari asosida O‘zbekiston aholisida periodontal kasalliklarning oldini olish bo‘yicha konsepsiya va dasturlarni ishlab chiqish” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

2016-yil 26-avgustdan 2020-yilgacha Toshkent Davlat Stomatologiya instituti rektori bo‘lib ishladi.

J. Rizayev o‘zining ishga chanqoqligi, tashkilotchilik qobiliyatini ko‘rsata oldi. Toshkent Davlat Stomatologiya institutining rivojlanishi va barkamolligi yo‘lida jadallik bilan olib borilgan ishlarning asosiy sababchilaridan biri hisoblanadi. U institutda olib borgan faoliyati davomida qator ishlar amalga oshirildi, jumladan, institutda zamonaviy simulyatsion markaz tashkil qilinib, zamonaviy 3D simulyatorlar bilan jihozlangan, mazkur Virteasy Dental simulyatorlari O‘rta Osiyo mamlakatlarida yagona bo‘lib, jahon ta‘lim standartlari talablarining biri hisoblanadi. 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab fakultetlarning barcha kurslarida ayrim mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Bunday zamonaviy imkoniyatlar malakali kadrlar tayyorlash, stomatologiya sohasida jahon tibbiyotining ilg‘or amaliyotlarini keng joriy etish, xalqimizga ko‘rsatilayotgan stomatologik xizmatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga muhim qadam bo‘lmoqda. Shu yillarda xorijiy mamlakatlarning yetmish beshga yaqin

nufuzli oliy ta'lim muassasalari va kompaniyalari bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha memorandum imzoladi. Mazkur hamkorlik doirasida 2018-2019 o'quv yilidan Toshkent Davlat Stomatologiya institutida 2 ta qo'shma ta'lim dasturi doirasida Italiyaning Turin universiteti hamda Moskva Davlat Tibbiyot stomatologiya universiteti bilan hamkorlikda biotibbiy muhandislik va stomatologiya yo'nalishlarida qo'shma fakultetlar tashkil etildi. Shuningdek, 2019-2020 yilda qo'shma ta'lim dasturi doirasida bakalavriatda yana to'rtta – Orenburg Davlat Tibbiyot universiteti bilan klinik psixologiya, I.Gorbachevskiy nomidagi Ternopol Milliy tibbiyot universiteti bilan oliy hamshiralik ishi, Privoljsk Tadqiqot tibbiyot universiteti bilan davolash ishi yo'nalishlari joriy qilindi. Bundan tashqari, Belarus Davlat Tibbiyot universiteti bilan 4 ta yangi magistratura yo'nalishlari va Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti bilan dermatovenarologiya yo'nalishi bo'yicha klinik ordinatura yo'nalishlari ochilishiga erishildi. Shu bilan bir qatorda, magistratura, klinik ordinatura yo'nalishlarida bir qator mutaxassisliklar bo'yicha Finlandiya, Rossiya, Belorus Respublikasi va boshqa xorijiy mamalakatlarning ilm-fan va oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. Bunday xalqaro hamkorlik ishlari tufayli 2018-2019-o'quv yilida 100 dan ortiq nafar pedagoglar va talabalar xorijda malaka oshirib qaytdi. 2019-yil 21-22 oktyabr kunlari X-xalqaro “Stomatologiya-yuga 2019” talabalar olimpiadasi o'tkazilgan va unda O'zbekiston, Rossiya va Qozog'istonning 18 ta yetakchi tibbiy oliy o'quv yurtlar talabalari ishtirok etishdi.

2018-yildan boshlab J.Rizayev ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi sifatida ham faoliyat yuritib kelmoqda.

Uning raisligidagi mazkur Kengashda jami 51 dissertatsiya ishi himoyadan o'tkazilgan, ulardan 18 nafari tibbiyot fanlari doktori (DSc) va 33 nafari tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD).

2019-yilda J. Rizayev boshchiligida institut O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazilgan va takomillashtirilgan indikatorlar asosida tashkil etilgan reytinga ko'ra, Toshkent Davlat Stomatologiya instituti mamlakatimizdagi tibbiyot oliy o'quv yurtlari orasida 1-o'rinni, barcha oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi umumiy reytingda esa 8-o'rinni egallab, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining kuchli o'ntaligi tarkibiga kirdi.

2020-yil O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori bilan Samarqand Davlat Tibbiyot institutining rektori etib tayinlandi.

Jasur Rizayev nafaqat yaxshi shifokor, balki saviyali murabbiy hamdir. U ish davrida o'z bilim va orttirgan amaliy ko'nikmalarini talabalarga muntazam ravishda o'rgatib bormoqda. Bir necha bor chet davlatlarda shu jumladan, Fransiya, Italiya, Germaniya, Rossiya, Shveytsariya, Linxenshteyn, Koreya, Yaponiya davlatlarida bo'lib malakasini oshirgan. Shu bilan bir qatorda u chuqur ilmiy izlanishlar olib borishga layoqatli mutaxassisdir. Uning olib borgan ilmiy izlanishlari bo'yicha tayyorlagan maqolalari AQSH, Koreya, Yaponiya, Rossiya va Qozog'istonda o'tkazilgan anjuman to'plamlarida chop etilgan.

J. Rizayevning ilmiy rahbarligida 3 ta fan doktorlik va 7 ta falsafa doktorlik dissertatsion ishlar himoya qilingan.

J. Rizayev O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 06.11.2013-yildagi 455-sonli buyrug'i bilan "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoniga sazovor bo'lgan hamda "Mustaqillikning 20 yilligi", "Mustaqillikning 25 yilligi" ko'krak nishonlari bilan mukofotlangan.

O'z mehnat faoliyatida Jasur Rizayev muntazam ravishda o'z ustida ishlab, o'z malakaviy faoliyatini muntazam ravishda takomillashtirib bormoqda. U o'ziga va yonidagilarga nisbatan talabchan, o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni aniq belgilash va uni o'z vaqtida bajarish, ishchi xodimlarga vazifalarni aniq belgilash, turli masalalarni hal etishda initsiativ va ijodiy yondashish xususiyatiga ega, shu bilan jamoadagi sog'lom muhitni yaratishda ko'maklashadi.

Shuningdek, Jasur Alimdjanovich Amerika stomatologlari assotsiatsiyasi, Yevropa kariesologiya assotsiatsiyasi hamda MDH davlatlari stomatologiya assotsiatsiya boshqaruv kengashi a'zosi.



Xamidov Obid Abduraxmanovich

***Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
2- son Davolash ishi fakulteti dekani,
DKTF tibbiy radiologiya kafedrasini mudiri,
PhD dotsent.***

Xamidov Obid Abduraxmanovich 1985-yilda tugʻilgan.
Millati-oʻzbek.

Obid Xamidov 2008-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot institutini tugatgan. Ixtisosligi–davolash ishi yoʻnalishi boʻyicha umumiy amaliyot shifokori, 2014-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti magistraturasini tibbiy radiologiya mutaxassisligi boʻyicha tamomlagan.

2007-2008 yillarda Respublika Shoshilinch tibbiy yordam ilmiy-amaliy markazi feldsheri boʻlib ishlagan. 2011-2013 yillarda xususiy klinika umumiy amaliyot vrachi lavozimida faoliyat olib borgan boʻlsa, 2011-2014 yillarda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti «Nurli diagnostika va nur terapiyasi» kursi boʻyicha magistr darajasini egalladi.

2014-2015 yillarda Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti nurli diagnostika va nur terapiyasi kursi assistenti boʻldi.

2015-2018 yillarda Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti 1-klinikasida vrach rentgenolog boʻlib ishladi.

2018-2021 yillarda Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti 1-klinikasi rentgen radiologiya boʻlimi mudiri.

2018-2020 yillarda Samarqand Davlat Tibbiyot institutining «3-ichki kasalliklar va endokrinologiya» kafedrasini tayanch doktoranti boʻldi.

2020-yildan hozirgi vaqtgacha Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti DKTF Tibbiy radiologiya kafedrasini

mudiri hamda Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 2-son davolash ishi fakulteti dekani bo'lib ishlab kelmoqda.

Obid Xamidovning 4 ta monografiya, 2 ta o'quv qo'llanma, 4 ta uslubiy tavsiyanoma, 46 ta maqoladan iborat 56 ta ilmiy ishi “Scopus” bazasidagi 8 ta, OAK ro'yxatidagi xorijiy jurnallarda 28 ta, respublika jurnallarida 10 tasi chop etilgan.

2021-yildan buyon tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dissertatsiyasini 2021-yil 23-sentyabr Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning «Tizza bo'g'imi ichki strukturasi jarohatlari va asoratlarning ultratovush diagnostikasi» mavzusida «Klinik radiologiya» ixtisosligi bo'yicha himoya qilgan.



Maxmudova Aziza Nugmanovna

***Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti
Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasini
mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD).***

Aziza Nugmanovna Maxmudova 1981-yil 29-iyun Rossiya Federatsiyasining Leningrad shahrida tug'ilgan. 1998-2001 yillarda Samarqand Davlat universiteti huquqshunoslik fakulteti bakalavri, 2002-2004 yillarda Samarqand Davlat chet tillar instituti maktabgacha va oilaviy ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistratura rezidenti bo'lgan. Pedagogik staji 21 yil.

2019-yil 29-noyabrdan boshlab SamDTI Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasini mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. 2021-yil 30-iyunda falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi. A.N.Maxmudova o'z faoliyati davomida yoshlarga bilim berib kelish bilan birga, universitet professor-o'qituvchilari ilmiy tadqiqot ishlariga amaliy yordam berib kelmoqda.

Aziza Nugmanovna tomonidan olib borilayotgan falsafa, O'zbekistonning eng yangi tarixi, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, fuqarolik jamiyati, bioetika, tibbiyot tarixi, ilmiy tadqiqot metodologiyasi, huquqshunoslik, tibbiyot huquqi asoslari o'quv fanlari yuqori pedagogik mahorat va ilmiy tamoyillariga asoslanadi. Uning o'z sohasini chuqur egallaganligi, talabalarning bu fanlarga bo'lgan qiziqishlari va intilishlarida namoyon bo'lib kelmoqda.

Aziza Maxmudova universitetning dunyo miqyosida reytingini oshirish maqsadida universitetda tashkil etilgan

koordinadorlaridan biri hisoblanadi. U professor-o'qituvchilarga impakt faktorga ega, “Scopus” va “Web of Science”da indekslanadigan jurnallarda maqolalar chop etish bo'yicha amaliy yordamlar ko'rsatmoqda. 2020 yil xalqaro ilmiy jurnalar portali rivojiga beminnat bergan maslahat va yordamlari uchun “Tadqiqot.uz” tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandi. 2020-yil “Tibbiyot xodimlari kuni” munosabati bilan bo'lib o'tkazilgan “Yilning eng yaxshi ilmiy xodimi” 1-darajali diplomi bilan taqdirlandi.

2016-yil “Oliy ta'limning eng namunali hotin-qizlar raisi” 2-darajali diplom bilan taqdirlangan.

1-oktyabr 2022-yilda ko'p yillik samarali va halol mehnati hamda o'z hizmat vazifasiga bo'lgan sadoqati uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan.

Maxmudova Aziza Nugmanovna ilmiy ishlar yo'nalishlari bo'yicha ham samarali faoliyat olib bormoqda. Dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlash davomida 2 nafar magistratura rezidentlarga magistrlik loyihalariga ilmiy maslahatchisi bo'ldi. 3 ta monografiya, 2 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 2 ta darslik, 6 ta o'quv-metodik ko'rsatmalar hamda dasturiy ta'minot bo'yicha 15 ta mualliflik guvohnomasini chop etgan. Aziza Maxmudova universitet doirasida olib borilayotgan barcha tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. U universitetda bo'lib o'tadigan ilmiy anjumalarda tashkiliy boshqaruv qo'mita a'zosi bo'lib, tashkiliy ishlarda o'z jonbozligini ko'rsatib kelmoqda.

Olima universitet ilmiy Kengash qarori bilan Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti “Murabbiylar kengashi raisi” etib saylandi. U o'ziga berilgan va yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida namunali bajarib kelmoqda.

2021-yilning 25-30 oktyabr kunlari Aziza Nugmanovna Nijniy Novgorod shahrida joylashgan Privoljsk tadqiqot tibbiyot universitetida falsafa fanidan davolash ishi fakulteti talabalariga akademik mobillik doirasida 18 soat ma'ruza va amaliy mashg'ulot o'tdi.

2022-yilning 22-30 may oyida Ufa shahrida joylashgan Bashkir Davlat Tibbiyot universitetida akademik mobillik doirasida klinik ordinatorlarga va talabalarga falsafa va bioetika fanlaridan 36 soatlik, 21-26 noyabrda Kaliningrad shahrida joylashgan nufuzli 1000 talikka kirgan universitetlardan biri Baltika Federal universitetida xalqaro mobillik doirasida 26 soatlik ma'ruza va amaliy mashg'ulot o'tdi.

Maxmudova Aziza Nugmanovna universitetning barcha ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarida faol ishtirok etib keladi. O'z jamoasi va talabalar orasida o'zining irodaliligi va madaniyati, iqtidorliligi bilan hurmat qozonib kelmoqda.

Uning rahbarligida 1 nafar Islom Karimov stipendiyasi, 7 nafar “Rektor stipendiyasi” laureati, 6 nafar olimpiada g'oliblari bo'lgan. Hozirgi kunda talabalar bilan 78 ta maqola va tezis yozib, tanlovlarda 1-3 o'rin diplomlarini qo'lga kiritgan.

Maxmudova Aziza Nugmanovna o'z jamoasi va talabalar orasida o'zining irodaliligi va madaniyati, iqtidorliligi bilan hurmat qozonib kelmoqda.

Oilali, 6 nafar bolaning mehribon onasi.



Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o'g'li

**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Davolash ishi fakultetining III-bosqich
talabasi.**

Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o'g'li 1999-yil 19-yanvar kuni Namangan viloyati, Namangan tumani, Sho'rqo'rg'on qishlog'i, Ko'l bo'yi MFY, Ijodkorlar ko'chasi 48-uyda ishchi oilasida tug'ilgan.

2006-yilda Namangan tumanining 8-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. Maktab davrida biologiya(zoologiya) fanidan bo'lib o'tgan “Bilimlar bellashuvi”da faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan. 2015-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida biologiya, kimyo, ona tili va adabiyot fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 2015-yilda Chortoq tibbiyot kollejining Stomatologiya yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. O'qish davri davomida turli tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi. Jumladan, “Biologiyaning eng a'lochi talabasi” nominatsiyasi g'olibi, “Prezident asarlari bilimdonlari” ko'rik-tanlovida jamoasi bilan faxrli I-o'rinni, “Balli yigitlar” ko'rik-tanlovida faxrli III-o'rinni egalladi.

2018-yilda kollejni a'lo baholarga tamomladi. 2019-yilda muddatli harbiy xizmatga chaqirildi. Tashabbuskorligi tufayli harbiy qism komandirining faxriy

yorliq va tashakkurnomalari bilan taqdirlandi. Xizmat mobaynida jangovor tayyorgarlik, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik va boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirgani uchun xizmat tavsiyanomasiga ega bo'ldi.

2020-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot institutining Davolash ishi yo'nalishiga davlat granti asosida talabalikka qabul qilindi. Hozirda universitetning 3-bosqich talabasi. Janobiddin Fazliddinov universitetning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda.

U 35 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tavsiya etgan xalqaro va respublika jurnallarida nashr etildi.

2022-o'quv yilida MDH davlatlari o'rtasida o'tkazilgan “Eng yaxshi talaba-2022” ko'rik-tanlovida tibbiyot yo'nalishi bo'yicha faxrli I-o'rinni egallab, xalqaro diplom va medal, O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlari o'rtasida o'tkazilgan “Eng yaxshi innovator-2022” ko'rik-tanlovida xalqaro diplom va medal, Samarqand viloyatida o'tkazilgan “Yo'l boshchi-2021” global sammitida tibbiyot yo'nalishi bo'yicha o'z maqolasi bilan qatnashib xalqaro sertifikat va diplom bilan taqdirlangan.

MDH davlatlari o'rtasida o'tkazilgan “Eng yosh olim-2022” ko'rik-tanlovida tibbiyot yo'nalishi bo'yicha faxrli I-o'rinni egallab xalqaro diplom va medal sovrindori bo'ldi. “Best Publication” ilmiy tadqiqotlar markazi tomonidan 2022-yilda “Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun” esdalik ko'krak nishoni berildi.

SamDTU tomonidan o'tkazilgan 76-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida “The use of local antigens in the serological diagnosis of echinococcosis” nomli tezisi bilan qatnashib, I-

o'rinni egallab xalqaro diplom, 2022-yil 14-oktyabr kuni TTA tomonidan o'tkazilgan II-xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konfrensiyasida “Istiqbolli yosh olim” nominatsiyasi sohibi bo'ldi.

50 dan ortiq xalqaro va respublika forumlar delegati, xalqaro va respublika sertifikatlar sohibi Janobiddin ijodkorlik qobiliyatini ham namoyon etib kelmoqda. U Samarqand Davlat Tibbiyot universitetida o'tkazilgan “Konstitutsiya–mening taqdirimda” nomli insholar tanlovida faxrli II-o'rin sovrindori bo'ldi. 76 ta davlatning tibbiyot talabalari o'rtasida o'tkazilgan “Samarqand-2020” III-xalqaro olimpiadasida normal fiziologiya va tibbiy radiologiya fanlaridan faxrli III-o'rinni egalladi.

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Turon fanlar akademiyasi akademigi Muhabbat Isayeva tomonidan yaratilgan “O'zbekim iftixorlari” nomli kitobida avtobiografiyasi nashr etildi.

Indoneziya davlatida o'tkazilgan “Eng yaxshi ilmiy tadqiqotchi-2022” xalqaro maqolalar tanlovida tibbiyot yo'nalishi bo'yicha faxrli II-o'rinni qo'lga kiritdi.

2022-2023 o'quv yilida II karra “Rektor stipendiyasi” sohibi bo'ldi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish markazi tomonidan tashkil etilgan “Yil talabasi-2022” ko'rik tanlovining universitet bosqichida o'tkazilgan “Yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi” nominatsiyasi bo'yicha III-o'rinni egalladi va maxsus diplomga ega bo'ldi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi yoshlar parlamenti a'zosi Xurshid To'xtayev tomonidan o'tkazilgan “E'tirof-2022” tanlovida I-darajali diplom bilan taqdirlandi.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan “Ilm-fan iftixori” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Janobiddin Fazliddinov pokiza, milliy mafkura g'oyalariqa sodiq, milliy ma'naviyat negizida yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, fidoyilik tuyg'usini va mehnatsevarlik fazilatlarini o`zida mujassamlashtirgan va yoshlar orasida targ'ibot qila oladigan, mustaqil respublikamiz ravnaqi yo`lida mehnat qiladigan haqiqiy o`zbek o`g'loni sifatida ko`rish mumkin.

SamDTU
axborot-resurs markazi



Shodiyev Javohir Xamzayevich

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
Bank-moliya fakultetining III-bosqich
talabasi.**

Shodiyev Javohir Xamzayevich 2002-yil 20-noyabr kuni Samarqand shahrida ziyoli pedagoglar oilasida tug'ilgan.

2009-2020 yillar Samarqand shahar 30-umumta'lim maktabida tahsil olgan. Maktabdagi o'qish davomida Javohir Shodiyev ko'plab fan olimpiadalariga qatnashgan va viloyat bosqichida top 10 talikka kirgan.

2015-2020-yillarda Samarqand shahar 1-son musiqa va san'at maktabida tahsil olgan va a'lo baholarga yakunlagan.

2020-yilda Samarqand iqtisodiyot va servis institutiga to'lov shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan.

2021-yilda mazkur institut yoshlar yetakchisi o'rinbosari, Media guruh koordinatori hamda institut "Matbuot xizmati" volontyori sifatida faoliyat olib borgan. 2020-yildan boshlab xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan 200 ga yaqin forumlar, jumladan "Maroqand yoshlar forumi" prezidenti, "Kelajak Yoshlari" forumi asoschisi va prezidenti, "International relationship" forumi vitse-prezidenti, "Ilmiy tadqiqotning o'rni: muammo va yechimlari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, BSUL MOIC-2023, "Samarqand Yoshlar Forumi" 2-mavsum, "International students conference", "Kelajak bunyodkorlari" erkin volontyorlar harakati, Strategy 3-4-5 mavsum, ASYC Family volontyorlari, "XXI-asr bizning davr" forumi, "Yosh volontyorlar forumi" 1-2 mavsum, "Ilmiy tadqiqotchi 2023"

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, "Yong businessmen and economists forum", "UPWARD GROWTH FORUM" 3-mavsum, "Yosh Innovatorlar forumi" 2-mavsumi tashkilotchisi bo'lgan. Shunga qaramasdan "U-report", "Yosh volontyorlar", "ASYC Family", "Kelajak bunyodkorlari volontyorlar harakati" va Samarqand "Kelajak liderlari" qoshida ochilgan SamISI "Kelajak liderlari" klubi a'zosi hisoblanadi.

Samarqand viloyatida o'tkazilgan "Ilmiy tadqiqotning o'rne: muammo va yechimlari" nomli ko'p tarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi "Ilmiy tadqiqotchi" xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik-tanlovida o'z maqolasi bilan qatnashib, "Ilmiy tadqiqotchi-2023" esdalik ko'krak nishoni va guvohnomasini qo'lga kiritgan.

2023-yilning birinchi choragida tashkil qilingan respublikamiz va bir qator xorijiy davlatlarning yetakchi mutaxassisleri, ilmiy izlanuvchilar, magistrilar va talabalar ishtirokida "Xalqaro ilmiy forumi" qatnashchisi bo'lgan. Mazkur xalqaro ilmiy forumda o'z maqolasi bilan qatnashib, "Ilm-fan iftixori" estalik nishoni bilan taqdirlangan.



Xalikov Kaxor Mirzayevich

***Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Biologik kimyo kafedrası mudiri.***

Xalikov Kaxor Mirzayevich 1964-yil 21-fevral kuni Samarqand shahar, Mirsaid Baraka mahallasida ziyolilar oilasida tugʻilgan.

1971-yilda Samarqand shahridagi 14-umumtaʼlim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. Oʻqish davri davomida oʻtkazilgan madaniy-maʼrifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga oʻrnak boʻldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 1981-yilda maktabni aʼlo baholarga tugatdi.

1981-1988 yilda II-Moskva Tibbiyot Universitetining tibbiy biologiya yoʻnalishi talabasi.

1988-1989 yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti biologik kimyo kafedrası assistenti.

1989-1991 yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti biologik kimyo kafedrası stajyor-tadqiqotchisi.

1991-1994 yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti biologik kimyo kafedrası aspiranti.

1994-1996 yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti biologik kimyo kafedrası katta oʻqituvchisi.

1996-1997 yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti vrachlar malakasini oshirish fakulteti ichki kasalliklar va klinik laboratoriya tashxisi kafedrası dotsenti.

2006–2020 yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti pediatriya fakulteti dekan oʻrinbosari.

1997-2017 yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti klinik laboratoriya diagnostikasi kafedrası mudiri.

2017-2020 yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti meditsina va biologik kimyo kafedrası mudiri.

Hozirda Samarqand Davlat Tibbiyot universitetning biologik kimyo kafedrası mudiri.

Kaxor Xalikov universitetning ilmiy to`garaklarini, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarini o`tkazib kelmoqda. Jumladan, 2020-yil hammualiflik asosida ikki tomli darslik kitob chiqardi.

Xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida 171 tadan ortiq ilmiy maqolasi chop etilgan. 71ta tezis, 4 ta monografiya, 2 ta darslik, 7 ta o`quv qo`llanma, 25 ta o`quv uslubiy qo`llanma, 3 ta Skopus bazasidagi jurnallarda maqolasi chop etilgan.

Kaxor Xalikov rahbarligida 2022-yilda biokimyo mutaxassisligi bo`yicha kafedra assistenti Xulkar Satorova falsafa doktorligini himoya qildi. Uning rahbarligida kafedraning 3 ta xodimi Phd dissertatsiyasi ilmiy ishlarini olib bormoqda.



Islamova Kamola Akramovna

**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Davolash ishi fakulteti, 1-ichki
kasalliklar kafedrası assistenti, PhD.**

Islamova Kamola Akramovna 1984-yil 11-avgust kuni Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, Oqmang'it mahallasida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

1990-2000 yillar davomida Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani 14-o'rta maktabda o'qish davomida bir qator tanlovlar va fan olimpiadalarida ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan. 2000-yil o'rta maktabni imtiyozli baholar bilan yakunlagan.

2002-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot Institutining davolash ishi yo'nalishiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. Talabalik yillari davomida fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirish bilan bir vaqtda, institutning manaviy-ma'rifiy tadbirlarida faol ishtirok etgan. Shu bilan birga, Samarqand viloyati “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakati qoshidagi “Yoshlar ijtimoiy xizmati markazi” ning “OITS va giyohvandlikning oldini olish” markazi rahbari sifatida faoliyat yuritgan. Darsdan bo'sh vaqtlarida tumandagi maktablarda va yozgi ta'til vaqtida “Bolalar dam olish oromgohlari”da bir qator davra suhbatlari, seminar-treninglar, qisqa o'quv kurslar, yoshlar o'rtasida “Biz OITS ga qarshimiz”, “Giyohvandlik - umr zavoli” shiori ostida aksiya tadbirlari o'tkazgan.

2009-yil Samarqand Davlat Tibbiyot institutining davolash ishi fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 2009-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti 1-umumiy

amaliyot shifokorlari tayyorlash kafedrasida “Ichki kasalliklar” mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga grant asosida o'qishga kirdi va 2012-yilda “Qandli diabet kasalligi fonida yurak kasalliklarining kechish xususiyatlari” mavzusida magistrlik dissertatsiyasini himoya qildi. Magistraturada o'qish davrida 1-umumiy amaliyot shifokorlari tayyorlash kafedrasida talabalarga ta'lim berdi.

Oilali, 1 nafar farzandi bor.

2012-yildan boshlab 1-umumiy amaliyot shifokorlari tayyorlash kafedrasida assistent lavozimida faoliyat olib bordi. Kafedrada davolash ishi va kasbiy ta'lim fakulteti bitiruvchi kurs talabalariga “Ichki kasalliklar” fanidan, OHI fakulteti 2-3 kurs talabalariga hamshiralik ishi va gerontologiyada hamshiralik ishi fanidan bilim berib kelish bilan birga, kafedraning ma'naviy-ma'rifiy ishlariga va magistratura hujjatlariga mas'ul sifatida ish olib bordi.

2018-yildan boshlab kafedra mudiri t.f.d.Toirov Erkin rahbarligida 1-ichki kasalliklar kafedrasida “Ichki kasalliklar” ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy ish boshlagan. 2021-yil 6-iyulda tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi.

K.Islamova 2022 yilda “Yilning eng yaxshi ilmiy xodimi” 1-darajali diplomi bilan taqdirlangan.

1-ichki kasalliklar kafedراسi “Yosh terapevtlar” ilmiy to'garagida K.Islamova rahbarligida ilmiy ish olib borayotgan talabalar fan olimpiadalarida, turli tanlovlarda va konferensiyalarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelishmoqda.

K.Islamova ilmiy ishlar yo'nalishi bo'yicha ham samarali faoliyat olib bormoqda. Ish faoliyati davomida 100 ga yaqin ilmiy ish chop etgan. Shulardan 2 ta monografiya,

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

2 ta o'quv qo'llanma, 2 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 5 ta o'quv uslubiy ko'rsatmalar hamda dasturi ta'minot bo'yicha 3 ta mualliflik guvohnamasi chop etgan.

Kamola jamoasi va talabalar orasida o'zining irodaliligi va madaniyati, iqtidorliligi bilan hurmat qozonib kelmoqda.



Rustamov Baxtiyor Normamatovich

**Fan va Innovatsiyalar akademiyasi
direktori**

Rustamov Baxtiyor Normamatovich 1990-yilda Samarqand viloyati Narpay tumanida tavallud topgan. Oilali va 3 nafar farzandning otasi. Toshkent shahri Sergeli tumanida istiqomat qiladi.

B.Rustamov - Fan va Innovatsiyalar akademiyasi direktori, “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali bosh muharriri, “O‘zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi” loyihasi rahbari, Plagiarism.uz - ilmiy ishlarni antiplagiatga tekshirish platformasi asoschisi.

Dasturchi bo‘lish orzusi uni dastlab Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga olib keldi. 2008-2012 yillar oralig‘ida universitetning “Informatika va axborot texnologiyalari” yo‘nalishida ta‘lim oldi. Yangi bilimlar o‘rganish maqsadida u qo‘shimcha kurslarda ham o‘qidi. 2011-yilda “Yosh dasturchilarni tayyorlash va qo‘llab quvvatlash” markazida 3 oylik “Net Freamwork 2.0 asosida veb dasturlarini yaratish” kursini tamomladi. Shuningdek, Rossiyaning «ИТГУИТ» onlayn universitetining bir qancha kurslarida o‘qidi. 2012-yilda Koreya Axborot texnologiyalari markazida koreyalik proffessorlardan dasturlashni o‘rgandi.

U “Moliyaviy savodxonlik asoslari” kursini va “Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasi doirasida «Full Stack Development Track» kurslarini ham tamomlagan. B.Rustamov loyihalarni boshqarish bo‘yicha bilim va malakasini oshirish

maqsadida “O‘zgarishlarni boshqarish” va “Fasilitatsiya bilimlari” trening kurslarida ham qatnashdi.

2012-yilda B.Rustamov O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida yetakchi mutaxassis lavozimida ish faoliyatini boshladi.

Bilim olishga va ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi, uni magistratura bosqichida ta‘lim olishga undadi. 2012-2014 yillar davomida Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining magistratura bosqichida o‘qidi.

2013-yil B.Rustamov tajriba orttirish maqsadida “Fido-Biznes” kompaniyasi “Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini loyihalash va yaratish” departamentiga dasturchi bo‘lib ishga kirdi. B.Rustamov bu tashkilotda dasturchi, 2-toifali dasturchi va guruh rahbari lavozimlarida faoliyat yuritdi.

U respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ko‘plab tanlov va tadbirlarda g‘olib va sovrindorlar safidan joy oldi.

2014-yilda o‘tkazilgan «Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o‘rni» mavzusidagi respublika ilmiy anjumanida o‘z ilmiy loyihasi bilan ishtirok etdi hamda “Eng yaxshi innovatsion g‘oya” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi.

2015-yilda respublika miqyosida o‘tkazilgan milliy internet tanlovida o‘zining internet nashri bilan qatnashib, «Davlat tilidagi eng yaxshi sayt» nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi. Tanlovda diplom va kompyuter bilan taqdirlandi.

2020-yilda B.Rustamov o‘z sohasida erishgan yutuqlari, malakali mutaxassis sifatida juda ko‘plab loyihalarni muvaffaqiyatli bajargani va ish faoliyatidagi tashabbuskorligi, mehnatsevarligi uchun “Yilning eng yaxshi xodimi” nominatsiyasini qo‘lga kiritdi.

B.Rustamov doimo sport bilan shug‘ullanib keladi. U 2021-yil 28-mart kuni 3-Toshkent xalqaro marafonida

ishtirok etib, musobaqaning finisher medaliga ega bo'ldi. Bundan tashqari ko'plab sport musobaqalarida qatnashdi.

2021-yil dekabr oyida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 yilligiga bag'ishlangan “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” shiori ostidagi “Eng yaxshi maqola” tanlovida g'olib bo'ldi, 1-darajali diplom va sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 27-mart kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida o'tkazilgan yarim marofonda ishtirok etdi va musobaqaning finisher medali bilan taqdirlandi.

2022-yil aprel oyidan B.Rustamov “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnalida bosh muharrir sifatida ham ishlay boshladi. Uning tashabbusi bilan jurnalga qabul qilingan har bir maqola uchun DOI raqam olinib, maqolalar Yevropaning Zenodo ilmiy bazasiga joylashtirila boshlandi. Shuningdek, jurnal rasmiy sayti scientists.uz sayti ham ishga tushirildi. U Gruziyaning “Universal Impact Factor” xizmati bilan “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnalini baholash uchun kelishuvga erishdi. Keyinroq, B.Rustamov “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnalini Polsha davlatining “Index Copernicus” ilmiy bazasida ro'yxatdan o'tkazdi va chop etilgan barcha maqolalarni ushbu ilmiy bazaga joyladi. B.Rustamov rahbarligidagi “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnali va Rossiyaning “Cyberleninka” ilmiy bazalari o'rtasida shartnoma imzolashga erishildi. Hozirda jurnalni Web Of Science va Scopus bazalarida indekslash uchun amaliy ishlar bajarilmoqda.

B.Rustamov ilmiy, ilmiy-ommabop va ensiklopedik nashrlar chop etish uchun noshirlik litsenziyasini oldi va “O'zbekistonning taniqli olimlari” ensiklopediyasining 1-tomi

va “Mening muvaffaqiyat yo‘lim” biografik ensiklopediyalarini nashr qildi.

2022-yil 14-15 oktabr kunlari B.Rustamov bosh muharrirligidagi “Fan va innovatsiyalar” xalqaro ilmiy jurnali hamda Toshkent Davlat Agrar universiteti hamkorligida “Barqaror o‘rmonchilik” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumani tashkillashtirildi.

2022-yil 30-noyabr kuni B.Rustamov rahbarligida “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi ko‘p tarmoqli, xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi.

2022-yil 20-dekabr kuni B.Rustamov tashabbusi bilan O‘zbekiston Milliy akademik drama teatrida “Olimlar bayrami” deb nomlangan tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirda 400 dan ortiq O‘zbekistonning taniqli olimlari, vazirlik va tashkilot rahbarlari ishtirok etdilar. Tadbir davomida “O‘zbekistonning taniqli olimlari” ensiklopediyasi 1-tomi va “Mening muvaffaqiyat yo‘lim” biografik ensiklopediyalari taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, “Ilm-fan targ‘ibotchisi” va “Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar yetakchisi” esdalik ko‘krak nishonlari o‘zining munosib egalariga topshirildi. Tadbir kuy-qo‘shiqlar va olimlar intervyulari bilan juda qizg‘in bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, u 3 ta telekanal va ko‘plab internet nashrlarida yoritildi. B.Rustamov haqidagi ma‘lumotlar “O‘zbekim iftixorlari” va “Mening muvaffaqiyat yo‘lim” kitoblariga ham kiritilgan.

U buxgalteriya, bank, tibbiyot, ilm-fan va boshqa sohalar uchun dasturiy mahsulotlar yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

B.Rustamovning 30 ga yaqin ilmiy maqolasi nufuzli ilmiy jurnallarda va ilmiy anjumanlar to‘plamlarida chop

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

etilgan. U va u boshchiligidagi jamoa 30 dan ortiq avtomatlashtriligan axborot tizimlari yaratgan. Uning 10 dan ortiq dasturiy mahsulotlar uchun olingan patentlari mavjud. B.Rustamov boshchiligida yaratilgan loyihalar, dasturiy mahsulotlar minglab insonlarning ish faoliyatini yengillashtirib, ularning samaradorligini oshirishda xizmat qilib kelmoqda.

Hozirda u Fan va innovatsiyalar akademiyasi direktori lavozimida ishlab kelmoqda. U boshchiligidagi jamoada 20 dan ortiq xodimlar faoliyat yuritadi.



Inatullayeva Ra'no Yunusovna

Namangan Davlat universitetining tibbiyot fakulteti katta o'qituvchisi.

Inatullayeva Ra'no Yunusovna 1962–yil 2-avgust kuni, Boshqirdiston respublikasi, Davlekan tumanida xizmatchi oilasida tug'ilgan.

1969-yilda Chortoq tumanidagi 53-o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida a'lo baholarga o'qish bilan birgalikda maktabda o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda va o'tkazishda faol ishtirok etdi. 1978-1979 yillarda rus tili fanidan o'tkazilgan tuman olimpiadasida faxrli 1-o'rinni egalladi. 1979-yilda maktabni oltin medalga tamomladi va shu yili Andijon Davlat Tibbiyot institutini davolash ishi fakultetiga o'qishga kirdi. Institutda o'qish mobaynida a'lo baholarga o'qishi va namunali xulqi uchun instituti ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Ilmiy salohiyatini oshirish barobarida tibbiyot fanlari doktori, professor O.Salohiddinov rahbarligida “Keksalarda qon bosimining sutkalik o'zgarishi” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etdi va taqdirlandi. Bundan tashqari, institutning o'quv-uslubiy va madaniy-ma'rifiy tadbirlarida, jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi. 1985-yilda institutni a'lo baholarga tamomlab, RShTYO ilmiy markazini Namangan filiali shifoxonasining kardiologiya bo'limida internatura o'tkazdi. 1986–yildan 2019-yilgacha Chortoq markaziy shifoxonasida vrach-terapevt vazifasida ish boshladi. Shu bilan birga Chortoq tibbiyot kollejida terapiya fanidan dars

bera boshladi. Mehnat faoliyati mobaynida aholi sog'ligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida “Chortoq haqiqati”, “Ayol va jamiyat”, “Shifokor va hayot”, “Mahorat maktabi”, “Ishonch”, “Sihat-salomatlik”, “Tibbiyot va zamon” kabi gazeta va jurnallarda 40 dan ortiq maqolalari chop etildi.

1996-yildan faoliyatini tibbiyot kollejida to'raligicha davom ettirib, Kasaba uyushma qo'mitasi raisi vazifasida o'qituvchi, xodim va talabalarning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy himoyachisi sifatida ham ish olib bordi.

R.Inatullayeva ko'plab yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida kollejda o'tkaziladigan “Iqtidor” ilmiy-amaliy konferensiyalariga turli mavzularda ma'ruzalar tayyorlashda talaba-o'quvchilarga amaliy yordam ko'rsatib tayyorlantirdi.

Shu yillar mobaynida 1998-yilda “Yilning eng faol guruh rahbari”, 1999-yilda “Yilning eng faol o'qituvchisi”, 2000-yilda “Yilning eng faol amaliyot rahbari” kabi ko'plab tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritdi va munosib taqdirlandi. 1996-1998 yillarda Toshkent shahrida Yaponiya “JICA” xalqaro hamkorlik agentligining “Bemorlar parvarishi” loyihasida faol ishtirok etib, olingan bilimlarni jamoaga tatbiq etdi.

Yosh o'qituvchilarga ko'maklashish maqsadida “O'qituvchining kasbiy hamrohi” qo'llanmasi, “Bemorlarga hamshiralik parvarishi” qo'llanmasi, “Lotin-o'zbek tibbiy atamalar lug'ati” qo'llanmalarini chop ettirdi.

1998-yilda Chortoq tumanida o'tkazilgan “Eng yaxshi kitobxon” tanlovida ham g'olib bo'ldi.

R.Inatullayeva 2003–yilda mehnatdagi yutuqlarini inobatga olib “O’rta maxsus, kasb-xunar ta’limi a’lochisi” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.

R.Inatullayeva 2018-yilda Namangan shahrida o’tkazilgan “Yil ayoli” tadbirida ishtirok etib g’oliblikni qo’lga kiritdi.

2019-yilda Namangan Davlat universitetida Ural Davlat Tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda Qo’shma ta’lim dasturlari bo’limi ochildi va shu bo’limga o’qituvchi lavozimiga ishga taklif etildi. Universitetda talabalarga bilim berish bilan bir qatorda, kafedrada ilmiy faoliyat olib borayotgan yosh o’qituvchilarga “ustoz-shogird” an’analariga binoan sifatli dars tashkil etish, ilmiy salohiyatini oshirish bo’yicha tavsiyalar berib kelmoqda.

R.Inatullayeva doimo o’z ustida ishlaydi, izlanadi, “Keksalarda sistolik gipertoniyaning kechishi” maqolasi “Shifokor va hayot” gazetasida, “Allergiya, shamollash va irsiyat” maqolasi, “Sog’lom turmush tarzi omillari”, “Keksalik-komillik pallasi”, “Qon guruhi va ovqatlanish”, “Pedagogik prinsiplar va o’qituvchi mahorati”, “Chortoq mineral suvining shifobaxsh xususiyatlari”, “Studying the Etiology of Gastric Cancer in Namangan of the Republic Uzbekistan” kabi ilmiy maqolalari “O’zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnalida, xalqaro jurnallarda va ilmiy – amaliy konferensiyalarda chop etildi. Shu bilan birga “Lotin tili va tibbiy terminologiya” fanidan uslubiy qo’llanma chop ettirdi.

R.Inatullayeva 2021-yilda “katta o’qituvchi” lavozimiga tayinlandi. Bugungi kunda respublikada olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlarni va davlat siyosatini to’g’ri anglagan holda talabalarga bilim berishda, aholi

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

salomatligini mustahkamlash borasida xizmat qilishni o'zining ustuvor maqsadi deb biladi va kelgusida ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirishda, pedagogik jarayonda ta'lim sifatini yaxshilashda va barkamol avlodni tarbiyalashda xizmat qilishi e'tirofga loyiq.



Usmanov Abdumo'min Xolmo'min O'g'li

***O'zbekiston Milliy universiteti magistranti,
O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar
Ilg'or tadqiqotlar ilmiy markazi rahbari.***

Usmanov Abdumo'min Xolmo'min o'g'li 1994-yil 28-fevralda Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida tug'ilgan. Millati o'zbek, ma'lumoti oliy. Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olgan. 2013-yil Hazorbog' qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejining Transportlarda tashish va boshqarishni tashkil etish mutaxassisligini tamomlagan.

2020-yil Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Ijtimoiy fanlar fakultetida falsafa yo'nalishi bo'yicha tahsil olgan. Mutaxassisligi-faylasuf, pedagog. Hozirgi kunda mazkur universitetning magistratura bosqichi talabasi va o'zi tashkil etgan Ilg'or tadqiqotlar ilmiy markazi rahbari.

Abdumo'min Usmanov respublikamiz va xalqaro tanlovlar sovrindori, 4 ta ilmiy va ijtimoiy sohalardagi xalqaro grandlar sohibi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-maydagi Farmoniga binoan “O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Abdumo'min Usmanovning ilmiy ishlari doirasida yozilgan bir qator maqola va tezislari Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Yaponiya, Turkiya kabi davlatlarning

oliy o'quv yurtlaridagi nufuzli jurnallar hamda xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari loyihalarida nashr etilgan. Shuningdek, ilmiy mavzusi doirasida yozilgan “Harbiy faoliyatda burch va adolat g'oyalarining ustuvorligi” nomli monografiya muallifi.

Ilmiy va ijtimoiy sohalarda qo'lg'a kiritgan qo'shimcha yutuq va natijalari ro'yxati:

1. Uchinchi renessans – yoshlar nigohida respublika tanlovini sovrindori (2022-yil).

2. Xalqaro Sport sammiti Sport jurnalistikasi nominatsiyasining g'olibi (2019-yil).

3. O'zbekiston Milliy universiteti “O'ZMU STIPENDIYASI” sohibi (2018-yil).

4. Tafakkur sinovlari respublika intellektual tanlovining g'olibi (2017-yil).

5. Milliy internet tanlovining respublika bosqichi g'olibi (2016-yil).



Kamalova Gulnora G'ulamovna

*Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi direktori.*

Kamalova Gulnora G'ulamovna 1972-yilda Farg'ona viloyatining Quvasoy shahrida ziyoli oilada tug'ilgan.

1990-yilda Leningrad tibbiyot institutiga o'qishga kirdi. 1991-yildan Andijon Davlat Tibbiyot institutida o'qishni davom ettirib, 1996-yilda “Pediatriya” mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. 1996–1997 yillarda Namangan shahridagi 1-tug'ruqxonada internatura o'tkazgan. 1998–2002 yillarda Chortoq markaziy poliklinikasida vrach akusher-ginekolog, o'smirlar ginekologi, ayollar maslaxatxonasi bo'limi mudiri lavozimlarida ish olib bordi. 2002-yildan Chortoq tibbiyot kollejida “Akusherlik ishi” fanidan o'qituvchi lavozimida ishlay boshladi. 2005-yildan “Akusherlik ishi” bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. 2013-yildan hozirgacha Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi direktori lavozimida faoliyat olib bormoqda.

2014-2018 yillarda Andijon Davlat Tibbiyot institutini “Anatomiya va OXTA” kafedrasida akademik A.Qosimxodjayev ilmiy rahbarligida “13 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan qizlarda bachadon va tuxumdonlarning hayz davrida va birlamchi va ikkilamchi amenoreyada ultratovush anatomiyasi” mavzusida ilmiy izlanish olib borib, 2018-yilda ilmiy ishini muvoffaqiyatli himoya qilib, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi.

G.Kamalova 20 dan ortiq ilmiy maqola, 40 dan ortiq tezislari va metodik tavsiyanomalari respublika va xorijiy davlatlarning ilmiy jurnallarida chop etilgan.

1. "Особенности изменения эхопараметров матки и яичников при фолликулярных кистах у девочек 16 – 19 лет" maqolasi "Морфологические ведомости", 2010 №4. Москва.-С.45-48.

2. "Возрастные индивидуальные особенности эхопараметров яичников у женщин от 25 до 54 лет", Международный морфологический журнал, Морфологические ведомости, 2012 №4. Москва.-С.78-80.

3. "Возрастные особенности диаметров фолликулов в яичниках у девушек в возрасте от 13 до 23 лет", "Вестник Акушера гинеколога", 2013 №2. Москва. Спец выпуск.-С.69-71.

4. "Age normal ultrasound size among girls at the age from 13 to 23 yers", "The Sixth International Conference on Biology and Medical Sciences", 2015 №10. Vienna.-PP.48-51.

5. "Ovarian Ultrasound Measurements in Girls of Ferghana Valley between the Ages of 13 and 23", "Journal of Medical Research and Development", 2015 Vol.4 Iss.3, PP.31-34.

6. "Comparative dynamics of uterine echo dimentions in health and secondary amenorrhea", "European Medical Health and Pharmaceutical journal", 2015 PP.39-41.

7. "Age features ehoparameters uterus before menstruation with ovulation in a left-handed girls aged 13 to 23 years", "The twelfth European Conference on Biology and Medical Sciences", 2016 №5. Vienna.-PP. 39-44.

8. “Возрастные особенности размеров коркового и мозгового вещества яичников при левосторонней и правосторонней овуляции”, “Материалы XI конгресса Международной Ассоциации Морфологов, Научно – теоретический медицинский журнал «Морфология» Санкт-Петербург 2012 г. - стр 69-70.

9. “Ультразвуковые показатели матки у девушек в возрасте от 13 до 23 лет” “Научно-теоретический медицинский журнал «Морфология»”, №3 Санкт-Петербург 2016 г - стр. 98.

10. “Возрастные особенности эхопараметров матки до менструации при правосторонней овуляции”, «Проблемы науки» №3 Москва 2018 г-стр 80-82.

11. “Возрастные особенности эхопараметров матки после менструации в возрасте от 13 до 23 лет”, “Материалы Республиканской научно-практической конференции одарённых студентов и молодых учёных “Современные проблемы медицины”. Андижан 2013 г. – стр 126-127. Bundan tashqari o'ndan ortiq maqolalar Andijon va Toshkent shahrida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda chop etildi.

G.Kamalova o'zining mehnatsevarligi, bilimdonligi, izlanuvchanligi, dunyoqarashining kengligi, o'ziga va hamkasblariga nisbatan talabchanligi, jamoat ishlarida doimo faolligi, hamkasblari ko'ngliga yo'l topa olishi bilan jamoa orasida alohida e'tiborga ega.

U o'z ishi faoliyati davomida tashkilotchilik sifatlarini namoyon etgan holda o'ziga va bajarayotgan vazifasiga nisbatan talabchan va oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarilishida mas'uliyatni his etuvchi rahbardir.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

Bevosita hukumatimiz tomonidan qo'yilgan talablar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi “Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5812 farmonini ijrosini ta'minlash hamda respublikamizda rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatdosh kadrlar tayyorlashda jahon andozalari asosida bilim olishlari va kasb-hunar egallashlari, ularni bu sohadagi xohish-istaklarini ro'yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlar yaratishga intilmoqda.

G.Kamalovani yuqoridagi mehnatlarini inobatga olib, 2016-yilda “O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligi” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

U O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni o'z oldidagi oliy maqsad deb biladi.



Sattarova Xulkar G'ayratovna

***Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Biologik kimyo kafedrası assistenti,
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).***

Sattarova Xulkar G'ayratovna 1988-yil 1-oktyabr kuni Samarqand viloyati Payariq tumani Xosa mahallasida ishchi oilasida tug'ilgan.

2006-yilda Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi 25-umumta'lim maktabini tamomlagan. Maktab davri davomida a'lo baholarga o'qib, o'tkazilgan barcha tadbirlarda va jamoat ishlarida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi.

2007-yilda Samarqand Davlat universitetining biologiya yo'nalishiga talabalikka tavsiya etildi. Talabalik davrida ham oily ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etiladigan olimpiadalarda qatnashib, munosib o'rin egalagan. Barcha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etgan.

2011-yil universitetni tugatgach, Jomboy tumanidagi 25-umumta'lim maktabida biologiya va kimyo fani o'qituvchisi sifatida faoliyatini boshlagan.

2012-2014 yillarda Samarqand davlat universiteti Magistratura bo'limining biotexnologiya yo'nalishida tahsil olgan.

2014-2016 yillar Samarqand Davlat muzeyining o'lkashunoslik bo'limida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritgan.

2016-yildan L.Isaev nomidagi tibbiy parazitologiya ilmiy-tadqiqot institutida, 2020-yildan Samarqand Davlat Tibbiyot universitetida faoliyat yuritib kelmoqda.

2017-yilda Samarqand viloyati hokimligi va xotin-qizlar kengashi tomonidan tashkil etilgan “Ayollarning 100 ta innovatsion g‘oyasi” tanlovining viloyat bosqichi g‘olibi.

2018-yil Moskva shahridagi Sechenov nomidagi tibbiyot universitetining Marsinovskiy nomidagi transmissiv kasalliklar ilmiy tadqiqot institutida “Immunoferment analiz va Polimeraza zanjir reaksiyalarining molekulyar mexanizmlari” bo‘yicha malaka oshirgan va sertifikat taqdim etilgan.

2018-2019 yillarda Koreya Respublikasining KOICA agentligi doirasida tashkil etilgan Parazitar kasalliklarning zamonaviy tashxislanishiga oid seminar-treninglarda qatnashib, sertifikatlar bilan tadqirlangan.

2022-yil “Exinokokk kasalligini serologik tashxislashni takomillashtirish” mavzusi ustida tadqiqotlar olib borgan va biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olgan.

Xulkar Sattarova bugungi kunga qadar qator monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar muallifi. Xorijiy va respublika jumallarida ko‘plab maqolalari chop etilgan. Tezislari bilan konferensiyalarda faol ishtirok etib kelmoqda. Uning o‘z kasbiga sadoqati, jonkuyarligi, vazifalarni sidqidildan bajarish yo‘lidagi harakatlaridan respublikamiz ravnaqi yo‘lida mehnat qiladigan haqiqiy inson sifatida ko‘rish mumkin.



Dushayeva Nilufar Maxsudovna

Namangan Davlat Universiteti, Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi.

Dushayeva Nilufar Maxsudovna 1970 –yil 7-dekabr kuni, Namangan viloyatining Chortoq tumanida ishchilar oilasida tug'ilgan.

1978-yilda Chortoq tumanidagi 16-o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'quv davri davomida a'lo baholarga o'qish bilan birgalikda, maktabda o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda va o'tkazishda faol ishtirok etdi. 1988-yilda maktabni a'lo baholarga tamomladi va 1989-yili Toshkent farmatsevtika institutiga talabalikka qabul qilindi. 1994-yilda institutni a'lo baholarga tamomlab, o'z ish faoliyatini “Chortoq farmatsiya” MChJ da provizor–texnolog vazifasidan boshladi. Faoliyati davomida kimyogar-texnolog, bo'lim mudiri vazifalarida ishladi.

2006-yildan faoliyatini tibbiyot kollejida to'raligicha davom ettirib, talabalarga lotin tili va tibbiyot terminologiyasi, farmakologiya va retseptura fanlaridan dars berib kelmoqda.

2018-yildan Chortoq tibbiyot kolleji “Umumkasbiy fanlar” kafedrasini mudiri lavozimida ishlab, kafedrani ilmiy-pedagogik faoliyatini oshirishda kafedra a'zolari bilan birgalikda ish olib bordi.

N.Dushayeva ko'plab yoshlarni iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida kollejda o'tkaziladigan “Iqtidor” ilmiy-amaliy konferensiyalarga turli mavzularda, “Anemiyada qo'llaniladigan vositalar”, “Qandli diabetni davolashda

dorivor o'simliklarni o'rni” va hokazo mavzularda ma'ruzalar tayyorlashda talaba-o'quvchilarga amaliy yordam ko'rsatib tayyorlantirdi.

Shu yillar mobaynida 2012-yilda “Yilning eng faol guruh rahbari”, 2015-yilda “Yilning eng faol o'qituvchisi” kabi ko'plab tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritdi va munosib taqdirlandi.

Yosh o'qituvchilarga ko'maklashish maqsadida “Umumiy retseptura” qo'llanmasi, “Fitoichimliklar retsepturasi” qo'llanmalarini chop ettirdi.

2022-yilda Namangan Davlat universiteti “Tibbiyot” kafedrasiga ishga taklif etildi. Universitetda talabalarga bilim berish bilan birgalikda, ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etib kelmoqda.

N.Dushayeva ko'ngli pok, izlanuvchan, talabalarga yangi innovatsion usullardan foydalangan holda ta'lim-tarbiya beradi. Milliy mafkura g'oyalariga sodiq bo'lgan holda, vatanparvarlik, xalqparvarlik, fidoyilik tuyg'usini va mehnatsevarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Aholi salomatligini mustahkamlash uchun, tibbiyot sohasidagi yangiliklarni talaba yoshlarga targ'ibot qila oladigan, mustaqil respublikamiz ravnaqi yo'lida fidoiy mehnat qiladigan o'zbek ayoli sifatida ko'rish mumkin.



Shaykulov Xamza Shodievich

**Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti,
“Mikrobiologiya, virusologiya va
immunologiya” kafedrasida katta
o‘qituvchisi.**

Shaykulov Xamza Shodievich 1970-yilda Samarqand viloyati, Pastdarg‘om tumanida tug‘ilgan.

1976-yildan 1985-yilgacha 15-o‘rta maktabda tahsil olgan. 1985-1986 yil Moskva shahar 88-maxsus kasb-hunar bilim yurtida o‘qishini davom ettirgan va 1986-1987 yil Samarqand viloyatining Juma shahridagi 21-o‘rta maktabda o‘qishni yakunlagan.

1987-1993 yillar Toshkent Davlat Tibbiyot institutining sanitariya-gigiena fakultetiga qabul qilingan va tahsil olgan.

Mehnat faoliyatini 1995-1996 yillar SamDTI Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasida assistent lavozimida boshlagan.

1996-2004 yillar “Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya” kafedrasida assistenti bo‘lib ishlagan va 2004 – yildan shu kafedrada katta o‘qituvchi lavozimini egallagan.

2001-2004 yillar davolash fakultetining ma‘naviyat va ma‘rifat ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari bo‘lib faoliyat yuritgan hamda 2004-2005 yillarda davolash fakultetining II va III kurslari bo‘yicha dekan o‘rinbosari lavozimida ishlagan.

1997-yildan 2010-yilgacha “Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya” kafedrasida ma‘naviyat va ma‘rifat, murabbiylik ishlari bo‘yicha mas‘ul bo‘lgan, 2006-yildan o‘quv ishlari bo‘yicha mudir o‘rinbosari va 2011-2013,

2015-2017 yillarda “Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya” kafedrası mudiri boʻlgan.

2018-yildan hozirgi kunga qadar kafedra oʻquv ishlari va ilmiy ishlari boʻyicha mudir boʻlib faoliyat olib bormoqda.

80 dan ortiq ilmiy, ilmiy – uslubiy ishlari nashr etilgan, 2 ta ratsionolizatorlik taklifi, koʻplab oʻquv-uslubiy ishlanmalar muallifi.



Rasulova Muxsina Rozikovna

**Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti
“Sud tibbiyoti” kafedrasida dotsenti, PhD.**

Rasulova Muxsina Rozikovna 1973-yilning 1-avgustida Samarqand tumanining Shurboi qishlogʻida xizmatchi oilasida tugʻilgan.

1988-yilda toʻliqsiz oʻrta maktabni 8-sinfni tugatib, 1991-yilgacha Samarqand shahar tibbiyot bilim yurtida tahsil olgan. 1991-1994 yillarda Samarqand viloyat maxsus bolalar kasalxonasida hamshira lavozimida ishlagan.

1993-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot institutining Pediatriya fakultetiga oʻqishga qabul qilingan va 2000-yilda oʻqishni tugatgan.

2001-2009 yillarda Samarqand Davlat Tibbiyot institutining sud tibbiyoti va patologik anatomiya kafedrasida (patologik anatomiya kursida) assistent lavozimida, shu bilan birga SamDTI klinikasi patologik anatomiya boʻlimida oʻrindosh vrach patologoanatom sifatida ishlagan.

2004-yilda Samarqand Davlat universiteti Mintaqaviy malaka oshirish va qayta tayyorlash markazida «Kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari» ixtisosligi boʻyicha malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli yakunlagan va sertifikat bilan taqdirlangan.

2008-yilda Toshkent Tibbiyot Akademiyasi malaka oshirish fakultetida patologik anatomiya yoʻnalishi boʻyicha malaka oshirgan.

2008-2010 yillarda SamDTI “Sud tibbiyoti” mutaxassisligi boʻyicha magistraturada tahsil olgan.

Sud tibbiyoti kafedrasida 2010-yildan 2013-yilgacha stajyor-assistent, 2013-2019 yillarda assistent, 2019-2020 yillarda katta o'qituvchi lavozimida ishlab kelgan. 2020-yildan hozirgi vaqtga qadar kafedra dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda. Shu bilan birgalikda 2008-yildan buyon respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Samarqand filiali sud gistologiya bo'limida ekspert gistolog lavozimida ham ishlab kelmoqda. 2010-yilda Davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tib, Davlat sud ekspert-gistolog va umumiy profil ekspertizalari mutaxassisligi bo'yicha malaka guvohnomasiga ega bo'lgan.

2015 va 2020-yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi pedagoglar malakasini oshirish ilmiy markazida malaka oshirish kursini yakunlagan.

2019-yilda “LOR a'zolari mexanik jarohatlarining sud tibbiy baholanishi” mavzusida ilmiy izlanish olib borib, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy unvoniga ega bo'lgan.

2019-yilda “Yilning eng yaxshi shifokori” ko'rik-tanlovi”da ishtirok etib, “Yilning eng yaxshi o'qituvchisi” nominatsiyasi bo'yicha 3-o'rinni qo'lga kiritgan.

Ish faoliyati davomida 70 dan ziyod ilmiy maqola va tezislar, 6 ta uslubiy tavsiyanoma, 4 o'quv qo'llanma va 2 ta monografiyani amaliyotga tatbiq etgan.



Sadikova Yorkinoy Salijonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti, “Davlat huquqiy fanlar” kafedrasini mudiri. Yuridik fanlar nomzodi.

Sadikova Yorkinoy Salijonovna Samarqand shahrida, 1975-yil 4-iyunda ziyoli oilasida tugʻilgan.

1982-yildan 1992-yilgacha Samarqand shahridagi 21-umumtaʼlim maktabida tahsil olgan va oltin medal bilan tamomlagan.

1992-yildan 1997-yilgacha SamDU huquqshunoslik fakultetida oʻqib, oliy maʼlumotga ega boʻlgan.

1999-yildan 2000-yilgacha Samarqand shahar Siyob tuman advokatlar uyushmasida advokat yordamchisi boʻlib ishlagan va shu yilda Samarqand Davlat Tibbiyot institutining ijtimoiy fanlar kafedrasida oʻqituvchi lavozimida faoliyat olib borgan. 2005-yilgacha mehnat faoliyatini davom ettirgan.

2006-yildan Toshkent Davlat yuridik institutining “Davlat va huquq nazariyasi va tarixi” kafedrasining aspirant tadqiqotchisi boʻlgan. 2010-yilda “Huquqiy ongning shakllantirishda demokratik qadriyatlarning roli” mavzusidagi dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan. 2006-yildan 2013-yilgacha Samarqand Davlat universitetining huquqshunoslik fakulteti “Davlat huquqi” kafedrasida katta oʻqituvchi lavozimida ishlagan. 2013-yildan 2021-yilgacha Samarqand Davlat Tibbiyot instituti “Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrasida katta oʻqituvchi, kafedra mudiri boʻlib ishlagan.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

Hozirda 2021-yildan SamDU huquqshunoslik fakultetida mehnat faoliyatni olib bormoqda. 2022-yil 5-sentyabrdan “Davlat huquqiy fanlar” kafedrasida kafedra mudiri.

Yorquinoy Sadikova tomonidan 100 dan ortiq ilmiy maqolalar xalqaro va respublika jurnallarida nashr qilingan, 3 ta monografiya, 4 ta uslubiy qoʻllanma va 3 ta dastur mualliflik guvohnomasi egasi.

Universitet boʻyicha stol tennisi malikasi, musobaqalarning 1-darajali diplom sohibasi.



Uralov Shuxrat Muxtarovich

**Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti,
Bolalar kasalliklari propedevtikasi
kafedrasida dotsenti, tibbiyot fanlari
nomzodi.**

Uralov Shuxrat Muxtarovich 1967-yil 29-martda Samarqand shahrida ziyolilar oilasida tug'ilgan. 1983-yilda Samarqand shahridagi 49-son o'rta maktabni imtiyozli ravishda oltin medal bilan bitirgan.

Yoshligidan tibbiyotga bo'lgan qiziqishi sababli 1983-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot institutining pediatriya fakultetiga o'qishga kirgan va 1989-yilda institutni tugatib, vrach-pediatr mutaxassisligini egallagan.

Mehnat faoliyatini 1989-1990 yillarda SamDTI 2-klinikasi 1-bolalar bo'limida internaturadan boshlagan. 1990-1991 yillarda oliygo'ha yo'llanmasi bo'yicha Samarqand viloyat Kattaqo'rg'on tumani Ingichka qo'rg'onida tibbiy sanitariya qismi vrach-pediatr lavozimida faoliyat ko'rsatgan.

1991-1992 yillarda SamDTI 1-klinikasi 2-bolalar bo'limida vrach-ordinator bo'lib ishlagan. Ilmiy izlanishlarga bo'lgan yuqori qiziqishi sababli 1992-1995 yillarda SamDTI 1-son hospital pediatriya kafedrasida kunduzgi aspiranturada tahsil olgan hamda 1997-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti qoshidagi maxsus ilmiy kengashida «Surunkali gastroduodenal patologiyali bolalarda jigar funksional holatini klinik-bioximik baholash» mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasini himoya qilgan.

1995-2005 yillarda SamDTI 1-son gospital pediatriya kafedrası assistenti, 2005-2015 yillarda mazkur kafedra dotsenti lavozimida faoliyat yuritgan. 2015-2018 yillar 4-son pediatriya kafedrası mudiri bo'lgan. 2018-yildan shu vaqtgacha bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrası dotsenti lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Ilmiy salohiyati va yuqori tashkilotchilik qobiliyati sababli 1998-1999 yillarda pediatriya fakulteti Ilmiy Kengashi kotibi, 1999-2006 yillarda SamDTI talabalar kasaba uyushma qo'mitasi raisi, 2012-2014 yillarda SamDTI Markaziy ilmiy-uslubiy kengash kotibi, 2014-2015 yillarda SamDTI pediatriya fakulteti dekani lavozimida faoliyat ko'rsatgan.

Sh.Uralov faoliyati davomida nufuzli xalqaro, MDH va respublika miqyosidagi konferensiyalarda ishtirok etgan, muallifligi va hammuallifligida turli jurnal va ilmiy to'plamlarda 370 dan ortiq maqolalari chop etilgan, shu jumladan, 5 ta o'quv qo'llanma, 3 ta monografiya, 26 ta o'quv-uslubiy qo'llanma va tavsiyanomalar, 5 ta EHM dasturi, 20 dan ortiq amaliyotga tadbiiq etilgan takliflar muallifidir.

Dotsent Sh. Uralov rahbarligida 18 nafar magistratura rezidentlari ilmiy ishlarini himoya qilishgan. Uzoq vaqt davomida oliygohning bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrası talabalar ilmiy to'garagi rahbari sifatida bakalavriat talabalarining ilmiy ishlariga maslahatchilik qilgan. Uning rahbarligida bir qator talabalar xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy anjumanlar va fan olimpiadalarida nufuzli o'rinlarni egallashgan.

Qator yillar davomida Respublika Bosh Prokuraturasining eksperti, Respublika Oliy Attestasiya

Komissiyasining eksperti, Sog'liqni saqlash vazirligining eksperti sifatida faoliyat yuritgan. Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hududida joylashgan tibbiyot kollejlari va jamoat salomatligi texnikumlari bitiruvchilarining Davlat Attestasiya komissiyasi a'zosi bo'lgan.

Respublika shoshilinch tez yordam ilmiy markazi Samarqand filiali pediatriya bo'limidagi faoliyati davomida pediatriya bloki rahbari bo'lgan, ko'plab og'ir va murakkab bemor bolalarga davolash va konsultativ yordam ko'rsatgan, vrachlar va o'rta tibbiyot xodimlarining kasbiy malakalarini oshirishda, bo'limlardagi davolash diagnostika standartlarini takomillashtirishda o'z hissasini qo'shgan. Qator yillar davomida «Onalik va bolalikni muhofazalash» ga qaratilgan Navoiy viloyati Xatirchi tumanida olib borilayotgan otaliq yordam bo'yicha ishchi guruh a'zosi, 2020-2022 yillarda «Aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish» ga qaratilgan Samarqand viloyati Qo'shrabot va Kattaqo'rg'on tumanlarida olib borilayotgan otaliq yordam bo'yicha ishchi guruh a'zosi.

Muntazam ravishda o'z malakasini oshirib keladi. Jumladan, Oliy ta'lim vazirligi tasarrufidagi Bosh ilmiy-metodik markazda, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi qoshidagi malaka oshirish markazida, Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida va boshqalarda. 2020-yilda Rossiya Federatsiyasi Ijevsk Davlat Tibbiyot universitetida, 2022-yilda Qozoqiston Respublikasi Shimkent tibbiyot universitetida Akademik mobillik doirasida talabalarga amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalar qilgan.

Oliygohdagi ko'p yillik samarali mehnati uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining, Sa-

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

marqand viloyat hokimligi, viloyat kasaba uyushma qo'mitasining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Oilali. Turmush o'rtog'i Barno Uralova ham oliy ma'lumotli.

3 nafar farzandning ota-onasi, 6 nafar nabiralarning baxtli bobo-buvilaridir.



Xodjayeva Naimaxon Umirzaqovna

Namangan Davlat universiteti, Tibbiyot kafedrasida o`qituvchisi.

Xodjayeva Naimaxon Umirzaqovna 1966-yil 12-aprelda Namangan viloyatining Uychi tumanida tug`ilgan. Millati-o`zbek. Umumiy mehnat staji 35 yil.

1988-yilda Toshkent Davlat Tibbiyot institutining stomatologiya vrachi mutaxassisligini tamomlagan.

1988-yili Namangan shahar bolalar stomatologiya poliklinikasida internaturani tugatgan.

1990-yil Chortoq tibbiyot bilim yurtida anatomiya fani o`qituvchisi lavozimida ish boshlagan. Bilim yurtida ishlash jarayonida guruh rahbarlik faoliyatini olib borgan. Bilim yurtida o`quvchilar salohiyatini oshirish uchun ularni tuman, viloyat miqyosida o`tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etgan. Jumladan, "Quvnoqlar va zukkolar", "Iqtidor", "Eng yaxshi hamshira" ko`rik-tanlovlarida talabalarni tayyorlab, ularni faxriy o`rin olishiga hissa qo`shgan.

Bilim yurtida 1995-yilda o`tkazilgan "Yilning eng yaxshi o`qituvchisi" ko`rik-tanlovida faol qatnashib, 1-toifa o`qituvchisi sertifikatini olgan. Chortoq tibbiyot kollejida o`tkazilgan "Ona va bola" tanlovida 1-o`rinni olgan. "Oila - millat tayanchi" tanlovida qatnashib, faxrli o`rinni qo`lga kiritdi va ish davomida kasbiy ta`limni rivojlantirish boshqarmasi tomonidan tashakkurnoma va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Anatomiya fanidan "Osteologiya", "Pulmonologiya", "Splanxnologiya", "Urologiya" "Gematologiya" bo`limlaridan uslubiy qo`llanmalar yaratgan.

U mehnat faoliyatida Chortoq tibbiyot kollejida 2013-2014 o`quv yillarda “Yilning eng yaxshi guruh rahbari” nominatsiyasini qo`lga kiritgan. 2013-2014 o`quv yillarida kollejda bo`lim boshlig`i vazifasida ishlab, qo`l ostidagi guruh rahbarlari va talabalarni salohiyatini oshirib “Iqtidor” ilmiy amaliy konferensiyalarida faol ishtirokini ta`minlagan.

Talabalarni “Giyohvandlik - asr vabosi”, “Vatan taraqqiyotiga o`z hissamni qo`shaman”, “Oila - millat ko`zgusi”, “Kelinlik ostonasida”, “Mustaqillik - buyuk ne`mat”, “Navro`z yangilanish va yosharish fasli”, “Bolalar - bizning kelajagimiz” mavzularida ma`naviy-marifiy tadbirlar o`tkazib, ularning salohiyatini oshirishga xizmat qildi .

2003-2010 o`quv yilida “Stomatologiya” kafedراسi mudiri, 2016-yildan umumkasbiy fanlar kafedراسi mudiri faoliyatida ish yuritdi.

2013-yili ko`p yillik samarali mehnatlari hamda yosh avlodga ta`lim-tarbiya berishdagi mehnatlari uchun Chortoq tibbiyot kolleji mamuriyati tomonidan faxriy yorliq bilan mukofotlandi.

2015-yil barkamol avlodni tarbiyalashdagi xizmatlari uchun kollej tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

2016-yil 29-fevralda Andijon Davlat Tibbiyot inistituti tomonidan “XXI-yoshlari OITSga qarshi” mavzusidag vodiy yosh olimlarining ilmiy amaliy anjumanida ma`ruza bilan ishtirok etganligi uchun sertifikat bilan taqdirlanadi.

2017-yil O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi Chortoq tuman kengashi “Faol ayollar” qanoti tomonidan o`tkazilgan ko`rik “Xalq Demokratik Partiyasining eng faol ayoli” ko`rik-tanlovining tuman bosqichida “Eng faol

huquq bilimdoni” nominatsiyani qoʻlga kiritganligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlanadi.

2019-yil Andijon Davlat Tibbiyot instituti va Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy amaliy markazi tomonidan, “Terapevtik kasalliklarni diagnostika va davolashda inovatsion yondashuv” mavzusida qatnashib sertifikat bilan taqdirlandi

2020-yil Oʻzbekistonda ilmiy amaliy tadqiqotlar jurnalining ilmiy konferensiyasida “Moddalar almashinuvini va uning ahamiyati” mavzusidagi maqola uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil Oʻzbekiston teleradiokompaniyasi “Maʼnaviyat va maʼrifat” telekanali tomonidan oʻtkazilgan, “Siz efirdasiz” jonli telemusobaqasining faxriy yorligʻi bilan 3 marotaba mukofotlandi.

N.U.Xodjayeva respublikada olib borilayotgan taʼlim sohasidagi islohotlarni va davlat siyosatini toʻgʻri anglaydi va bu borada xizmat qilishni oʻzining ustuvor maqsadi deb biladi.



Xamroyev Jobir Xolmurodovich

*Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti,
"Fizika, biofizika va tibbiy fizika"
kafedrasining assistenti.*

Xamroyev Jobir Xolmurodovich 1986-yil 12-aprel kuni Buxoro viloyati, Qorako'l tumani, Chandir qishlog'i, Yangi obod mahallasida ishchi oilasida tug'ilgan.

1993-yilda Qorako'l tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilingan. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelgan hamda jamoat ishlarida faol qatnashgan. J.X.Xamroyev maktab davrida maktab miqyosida hamda tuman va viloyat fan olimpiadalarida qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Shu bilan birga maktab davrida Xalq ta'limi tomonidan joriy qilingan stipendiyani qo'lga kiritgan. 2004-yilda maktabni a'lo baholarga ya'ni qizil attestat bilan tugatgan.

2005-yilda Buxoro Davlat Universitetining "Fizika-matematika" fakultetiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etilgan. Talabalik davrida universitetda o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy tadbirlarda faol qatnashib kelgan. J. Xamroyevning ilmiy yo'nalishga qiziqishi talabalik yillaridanoq boshlangan. Shu universitetni 2009-yil a'lo baholarga o'qib tugatgan va shu yilning o'zidayoq hozirgi Buxoro Yuqori texnologiyalar muhandislik texnika institutining umumiy fizika kafedrasiga taklif qilingan. 2010-yil Samarqand Davlat universitetining fizika fakulteti optika kafedrasining "Issiqlik fizikasi va molekulyar fizika" yo'nalishiga magistraturaga qabul qilingan. Bu yo'nalishni

2012-yilda tugatib, shu yilning o`zidayoq Samarqand Davlat Tibbiyot universitetining

“Fizika, biofizika va tibbiy fizika” kafedrasiga ishga qabul qilingan. Shu davrgacha kafedradagi faoliyati davomida 40 dan ortiq xalqaro va respublika ilmiy maqolalar muallifi, shu bilan birgalikda yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, ilmiy faoliyati bilan birgalikda kafedraning TIJ to`garagining rahbari, xalqaro va respublika fan olimpiadalarida o`zining shogirdlari bilan ishtirok etib, faxrli o`rinlarni qo`lga kiritgan. Jobir Xolmurodovichga yoshlarga ilm sirlarini o`rgatishda charchamaydigan, xushmuomalali inson sifatida qarash mumkin.

Kafedradagi faoliyati bilan birgalikda 2-sonli davolash ishi fakultetining dekan o`rinbosari lavozimida ham mehnat faoliyatini olib borgan. Hozirda J.Xamroyev “Navbahor bentonitidan mezog`ovakli sorbentlar olish, ularning xossalari va qo`llanilishi” mavzusidagi “Kolloid va membrana kimyosi” mutaxassisligi kimyo fanlar yo`nalishi bo`yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini SamDU “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya” kafedراسi professori, tibbiyot fanlari doktori N.Fayzullayev ilmiy rahbarligi ostida olib bormoqda. J.Xamroyev dissertatsiya ishini 2023-yilda himoya qilishni reja qilgan.

Hayotdagi shiori esa “Ilm ko`paysa gap ozayadi, gap ko`paysa ilm ozayadi”.

Jobir Xamroyev yurtimizda bo`layotgan islohotlarga hamda mustaqil O`zbekistonimizning ravnaqi uchun o`z hissasini qo`sha oladigan ishonchli va o`ziga yuklatilgan barcha vazifalarni sidqi dildan bajara oladigan komil inson sifatida ko`rish mumkin.



Rustamova Shohista Omonjonovna

Namangan Davlat universiteti, Tibbiyot kafedrası dotsenti.

Rustamova Shohista Omonjonovna 1990-yilning 1-yanvarida Namangan viloyati Chust shahrida tugʻilgan. Millati-oʻzbek. Umumiy mehnat staji 15 yil.

2011-yilda Oʻzbekiston Milliy universitetining biologiya taʼlim yoʻnalishini, 2013-yilda Oʻzbekiston Milliy universitetining ixtiologiya mutaxassisligini tamomlagan. Oʻquv davomida “OʻzMU” stipendiyasiga sazovor boʻlgan, “Oʻquv davomida eng iqtidorli talaba” nominatsiyasi boʻyicha faxriy yorliq bilan mukofotlangan va “Yangi pedagogik texnologiyalar” maxsus kursida malakasini oshirgan va sertifikatga ega boʻlgan.

Mehnat faoliyatini 2013-yilda Namangan Davlat universiteti biologiya kafedrasida boshlagan.

Sh.O.Rustamova 2016-2018 yillarga moʻljallangan “Yosh olimlarning akademik harakatchanligi” respublika tanlovida YOA – 10-005 “Oshqozon saratoni HER2 musbat geniga test oʻtkazish usulini yaratish” nomli loyihasi (miqdori 20mln. soʻm) bilan ishtirok etib davlat grantiga sazovor boʻlgan hamda sertifikatga ega boʻlgan.

2016-yil Namangan Davlat universiteti biologiya kafedrası oʻqituvchisi sifatida “Yosh olimlarning akademik harakatchanligi” respublika tanlovida gʻolib boʻlgani uchun faxriy yorliq bilan mukofotlangan.

2016-yil Oʻzbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida “Fargʻona vodiysi yosh olimlari” 1-hududiy

ilmiy anjumanining tabiiy fanlar yoʻnalishi boʻyicha faxrli 1-oʻrinni egallagan va faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

2017-yil 16-mart kuni Namangan viloyatida oʻtkazilgan “X-innovatsion gʻoyalar, texnologiyalar va loyihalar” respublika yarmarkasi hududiy bosqichida faol ishtirok etgan va faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

2018–2019 yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Bioorganik kimyo instituti tayanch doktoranti, 2019-2020 yillarda Oʻzbekiston Milliy universiteti biofizika va biokimyo instituti tayanch doktoranti sifatida faoliyat yuritgan va 03.00.01–biokimyo ixtisosligi biologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishini muddatidan oldin muvaffaqiyatli himoya qilgan.

2019-yil “Oʻzbekiston xotin-qizlarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” respublika tanlovida “Oshqozon saratonining HER2 musbat variantiga test oʻtkazish usulini ishlab chiqish” nomli loyihasi bilan qatnashib, viloyat bosqichida gʻolib boʻlgan va faxriy yorliq bilan mukofotlangan. Mazkur tanlovning respublika bosqichida faol ishtiroki uchun sertifikatga ega boʻlgan.

2019-yil fevral oyida “XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning tutgan oʻrni” mavzusidagi respublika ilmiy onlayn konferensiyasida qatnashgani uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2019-yil 27-28 fevralda Londonda oʻtkazilgan “Science, research, development” (“Ilm, tadqiqot, rivojlanish”) xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan mukofotlangan.

2019-yil 4-iyulda Oʻzbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligiga “Saraton kasalliklarida HER2/neu genining miqdoriy variantlarini aniqlash” nomli ixtirosiga patent olish

maqsadida talabnoma topshirgan va Agentlikning uni qabul qilinganini tasdiqlovchi bildirishini olgan. Hozirda mazkur ixtiro uchun patentga ega bo'lish arafasida.

2020-yil O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Ilg'or texnologiyalar markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan C.A.T science accelerator ilmiy loyihalar uchun start-up loyihalar tanlovida “Tumor On Target – saraton kasalliklarini davolashda nishon terapiyani qo'llash uchun diagnostika usuli” nomli loyihasi bilan ishtirok etib 1-o'rinni egallab, g'olib bo'lgan.

Sh.Rustamova 2021-2023 yillarga mo'ljallangan “Saraton kasalliklarida HER2 onkomarkerini Tumor on target usuli bilan diagnostika qilish” nomli start-up loyihasi (miqdori 907,4 mln. so'm) rahbari sifatida ham faoliyat yuritib kelmoqda.

Shuningdek, “InnoWeek.Uz-2021” innovatsion g'oyalar haftaligida “Innovatsion g'oyalar yetakchisi” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Sh.Rustamova tomonidan 40 dan ortiq ilmiy ish chop etilgan, shuningdek, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya nashr ettirilgan.

Sh.Rustamova ilmiy rahbarligida 2016-2017 yillarda biologiya ta'lim yo'nalishining 2 nafar talabasi bitiruv malakaviy ishini muvaffaqiyatli himoya qilganlar. Hozirgi kunda 3 nafar magistratura bosqichi talabalari uning rahbarligida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Sh.O.Rustamova 2021-yil davomida yuqori impakt-faktorga ega bo'lgan xorijiy The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research jurnal tahrir hay'ati a'zosi vazifasini bajargan.

2021-yilda “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi” ko‘krak nishoni bilan mukofotlangan.

Ilmiy faoliyatida biologiya fanlari doktori, professor Shaxlo Turdikulova ilmiy maslahatchiligida “Namangan viloyati bo‘yicha TORCH infeksiyasiga moyillikni gen darajasida o‘rganish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi (DSc) ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Sh.Rustamova respublikada olib borilayotgan ta‘lim sohasidagi islohotlarni va davlat siyosatini to‘g‘ri anglaydi va bu borada xizmat qilishni o‘zining ustuvor maqsadi deb biladi. Sh.Rustamova kelgusida ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirishda, pedagogik jarayonda ta‘lim sifatini yaxshilashda va barkamol avlodni tarbiyalashda xizmat qilishini rahbariyat e‘tirof etadi.



Abdumajidova Hamida

***Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi
assistent-o'qituvchisi.***

Abdumajidova Hamida 1980-yil 18-noyabr kuni Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Primkent MFY, Primkent qishlog'ida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

1988-yil Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining 9-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 1997-yilda tarix fanidan bo'lib o'tgan maktab fan olimpiadasida g'olib bo'lib, tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 1998-yilda maktabni a'lo baholar bilan tugatdi.

Maktab davrida tarix, ona tili va adabiyot, huquqshunoslik, fransuz tili fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli, 1999-yilda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universitetining sotsiologiya yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. O'qish paytida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi. 2003-yilda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universitetining sotsiologiya mutaxassisligi bo'yicha tamomladi.

2002-yildan Samarqand shahar 2-umumiy o'rta ta'lim maktabida tarix, huquqshunoslik fanlaridan pedagogik faoliyatini boshladi.

2006-2012 yillar davomida Samarqand tumani 44-umumiy o'rta ta'lim maktabida tarix, huquqshunoslik

fanlaridan pedagogik faoliyatini davom ettirdi. 2007-yilda “Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovida ishtirok etib, tuman bosqichida I orinni egalladi va viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. “Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovida huquqshunoslik fanidan viloyat bosqichida III o‘rinni egalladi.

2007-yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti sotsiologiya yo‘nalishi magistraturasiga qabul qilindi. 2009-yilda sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi va tarixi magistri darajasi berildi

2012-yilda, Samarqand Davlat Tibbiyot institutining “Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrasiga o‘qituvchi lavozimida pedagogik faoliyatini boshladi. Bugungi kunda, Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetining Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasida assistent-o‘qituvchi va o‘quv ishlari bo‘yicha mas‘ul vazifasini bajarib kelmoqda. Hamida Abdumajidova universitetning jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Bugungi kunda 60 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan xalqaro va respublika jurnallarida nashr etilgan. Jumladan, 2013-yil Yosh olimlar va katta ilmiy-xodim izlanuvchilar tanlovida ishtirok etganligi uchun sertifikat bilan taqdirlandi. 2019-yildan SamDUga mustaqil tadqiqotchi etib qabul qilingan. OAK byulletenida 2020-yil 1-sonida ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo‘yicha “Jamiyat rivojlanishida mamlakatlar modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-siyosiy munosabatlar faollashuviga ta’siri” (Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida ijtimoiy-falsafiy tahlil) mavzusida, ilmiy rahbar falsafa fanlari doktori, professor J.Ya.Yaxshilikov tayinlangan.

2022-yil 11-may kuni universitet miqyosida barcha fakultetlarining I va II bosqich talabalari o'rtasida “Yangi O'zbekistonni o'zimiz, o'z qo'llarimiz bilan bunyod etamiz!” shiori ostidagi insholar tanlovi o'tkazildi. Universitet bosqichida, H.Abdumajidova ilmiy rahbarligida, 1-o'rinni davolash fakultetining 201-guruh talabasi J.Fazliddinov egallab, viloyat bosqichiga ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi.

2022-yil 18-may kuni universitet miqyosida barcha fakultetlarining I va II bosqich talabalari o'rtasida “Korrupsiya-taraqqiyot kushandasi” mavzusida “Eng yaxshi insho” tanlovi o'tkazildi. Universitet bosqichida H.Abdumajidova ilmiy rahbarligida 2-o'rinni xalqaro ta'lim fakulteti stomatologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi Fotimabonu Qamariddinzoda egalladi, universitet tomonidan diplom bilan taqdirlandi.

2022 yil 16-17 dekabr kunlari o'tkazilgan, “Samarqand-2020” III-xalqaro olimpiadasida bioetika, tibbiyot tarixi fanidan, H.Abdumajidova ilmiy rahbarligida, pediatriya fakulteti 203-guruh talabasi Sahobiddin Samadov faxrli III o'rin g'olibi bo'lib diplom ,bilan taqdirlandi.



Sharipova Nazifa Nasimovna

Namangan Davlat universiteti, Tibbiyot kafedrası katta o'qituvchisi.

Sharipova Nazifa Nasimovna 1957-yil 15-mayda Namangan shahrida tug'ilgan. Millati-o'zbek. Umumiy mehnat staji 42 yil.

1964-yilda Namangan shahridagi 7-o'rta ta'lim maktabining 1-sinfıga qabul qilindi. O'qish davri davomida a'lo baholarga o'qish bilan birgalikda maktabda o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda va o'tkazishda faol ishtirok etdi.

1974-yilda maktabni a'lo baholarga tamomladi va shu yili Toshkent Davlat Tibbiyot institutining stomatologiya fakultetiga o'qishga kirdi. Institutda o'qish mobaynida a'lo baholarga o'qishi va namunali xulqi uchun institut tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Ilmiy salohiyatini oshirish barobarida, “Bolalarda kariyes kasalligi rivojlanishi” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etdi va taqdirlandi. Bundan tashqari, institutning o'quv-uslubiy va madaniy-ma'rifiy tadbirlarida, jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi.

1979-yilda institutni a'lo baholarga tamomlab, Namangan tibbiyot texnikumiga ishga yuborildi.

N.Sharipova 1980-1996 yillarda Namangan tibbiyot texnikumida anatomiya va stomatologiya fanlaridan dars berib kelgan. So'ng shu yerda kafedra mudiri, bo'lim boshlig'i lavozimlarida ishlab kelgan. Shu yillar mobaynida “Yilning eng faol guruh rahbari”, “Yilning eng faol

o'qituvchisi” kabi ko'plab tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritdi va munosib taqdirlandi. 1996-1998 yillarda Toshkent shahrida Yaponiya “JICA” xalqaro hamkorlik agentligining “Bemorlar parvarishi” loyihasi seminarlarida faol ishtirok etib, sertifikatlarga ega bo'lgan va olingan bilimlarni jamoaga tatbiq etdi.

Fidokorona mehnatlari uchun viloyat va shahar hokimligi faxriy yorliqlari va ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

1996-yilda RShTY ilmiy-amaliy markazi Namangan filiali shifoxonasiga bosh shifokor o'rinbosari lavozimiga ishga o'tkazildi.

2000-yildan Namangan viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasiga ishga o'tkazildi. Shu davr ichida viloyat aholisi sog'ligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida viloyat hamshiralari bilan ko'plab tadbirlar, konferensiyalar, seminarlar o'tkazdi hamda “Shifokor va hayot”, “Mahorat maktabi”, “Sihat-salomatlik”, “Tibbiyot va zamon” kabi gazeta va jurnallarda 30 dan ortiq maqolalar yozdi.

2020-yilda Namangan Davlat universitetida Ural Davlat Tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda Qo'shma ta'lim dasturlari bo'limi ochildi va shu bo'limga o'qituvchi lavozimiga ishga taklif etildi. Universitetda talabalarga bilim berish bilan bir qatorda, kafedrada ilmiy faoliyat olib borayotgan yosh o'qituvchilarga “Ustoz-shogird” an'anasiga binoan sifatli dars tashkil etish, ilmiy salohiyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berib kelmoqda.

Shu bilan birga anatomiya fanidan uslubiy qo'llanma chop ettirdi.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

N. Sharipova respublikada olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarni va davlat siyosatini to'g'ri angelaydi va bu borada xizmat qilishni o'zining ustivor maqsadi deb biladi. U kelgusida ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirishda, pedagogik jarayonda ta'lim sifatini yaxshilashda va barkamol avlodni tarbiyalashda munosib faoliyat olib borayotgani e'tirofga loyiqdir.



Abdullayeva Munisa Ikramjanovna

Namangan viloyati, Namangan tumani, 8-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabining boshlang`ich sinf o`qituvchisi.

Abdullayeva Munisa Ikramjanovna 1978-yil 17-iyulda Namangan tumanining Sho`rqo`rg`on qishlog`ida ziyolilar oilasida tug`ilgan. Mehnat staji 24 yil. Mazkur vazifada 2007-yildan buyon ishlamoqda. U ko`p yillik tajribaga ega ilg`or pedagog sifatida zamonaviy ta`lim texnologiyalaridan foydalangan holda yosh avlodni barkamol voyaga yetkazish borasida samarali mehnat qilib kelmoqda.

2013-yil 13-martda “Prezident asarlarini o`rganamiz” mavzusida viloyat seminarida “O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asaridagi Navro`z umumxalq bayrami talqini 1 soatlik darsi viloyatda ommalashtirilib, Namangan viloyat teleradiokompaniyasining “Asr” informasion dasturi orqali namoyish etildi va shu yili 27-aprel kuni Toshkent shahrida “Orasta qizlar” respublika festivali o`tkazildi. Unda Namangan viloyatining “O`zbekoyim qizlari” jamoasidagi o`quvchisi Sanobar Sodiqova “Bilimdonlar” nominatsiya bilan taqdirlandi.

2014-yil 7-mayda Namangan viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan birgalikda “Sinfdan tashqari ishlar samaradorligini oshirishning ijtimoiy pedagogik-psixologik omillari” mavzusidagi viloyat amaliy seminarida trening mashg`uloti o`tdi va u viloyat miqyosida ommalashtirildi.

Shu yili Namangan viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Mohir pedagog 2016-yil 10-avgustda “Boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalash orqali o'quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish” mavzusidagi viloyat forumida qatnashgan.

“Barkamol avlodni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning o'rni” mavzusidagi ilmiy maqolasi Namangan viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashi yig'ilishining 2016-yil 29-avgustdagi navbatdan tashqari 9-sonli qaroriga asosan “Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari” forumi materiallari to'plami” nashriga tavsiya etildi.

M.Abdullayeva o'sha yili Namangan viloyat xalq ta'limi boshqarmasining faxriy yorlig'ini oldi. 2016-yil 22-avgust 6-sonli qarori bilan “Go'zal va betakrorimsan, muqaddas vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!” mustaqillik darsi uchun bir soatlik dars ishlanmasi maktab, tuman, viloyatda ommalashtirildi.

2017-yil 27-yanvarda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga bag'ishlangan “Xotira muqaddas – qadr abadiy” mavzusidagi bir soatlik darsi Namangan viloyat teleradiokompaniyasining “Diyor”, “Namangan” ko'rsatuvlarida namoyish qilindi.

Shu yil 6-martdagi “Eng yaxshi sinf xonasi” ko'rik-tanlovida tuman bosqichida 1-o'rin sohibasi bo'ldi.

Mart oyida o'tkazilgan “Husnixat – bu san'at” tuman tanlovida o'quvchisi Mahmudjonova Mushtariy 1-o'rinni egalladi.

Namangan tuman metodika kengashining 2017-yil 25 mart 3-sonli qarori bilan “3-sinflarda masala va misollar yechish” mavzusidagi dars ishlanmasi foydalanishga tavsiya qilindi.

8-aprelda sohibqiron Amir Temur tavalludining 680 yilligiga bag'ishlab tayyorlagan “Moziyga muhrlangan matonat” mavzusidagi ma'naviyat soati darsi tuman va viloyatda ommalashtirilib, Namangan teleradiokompaniyasi tomonidan efirga uzatildi.

Izlanuvchan va ijodkor pedagog M.Abdullaeva 2017-yil 25-iyulda O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Namangan viloyati kengashi tomonidan xotin-qizlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish, ular orasidan iste'dod sohibalarini kashf etish, har sohada ayollarning faolligini oshirish maqsadida tashkil etilgan “Donolik va tashabbuskorlik – siyosiy yetakchilik mezoni” shiori ostida “XXI asr ayoli” respublika ko'rik-tanlovining Namangan viloyati bosqichida 1-o'ringa munosib ko'rib, diplom va esdalik sovg'asi bilan mukofotlangan.

2018-yil 20-yanvarda Namangan tuman boshlang'ich sinf o'qituvchilarining “Yosh avlodga yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash” mavzusidagi seminarida “3-sinfda massa, o'lchov, kg.” mavzusidagi dars ishlanmasi tuman va viloyat miqyosida ommalashtirildi.

Shu yil 13-mart kuni “Navro'z – milliy bayramimiz” mavzusidagi bir soatlik dars ishlanmasi Namangan teleradiokompaniyasida namoyish etildi va intervyu berdi. Foto lavhalar esa maktabning “Ustozlar” telegram kanaliga joylandi.

15-aprelda “Kitob – sakkizinchi mo`jiza” mavzusidagi davra suhbat tuman bo`yicha ma`naviyat ishlarida ommalashtirildi.

25-mayda Namangan viloyat xalq ta`limi boshqarmasi hamda Namangan tuman xalq ta`limi bo`limi mudirining faxriy yorlig`ini qabul qilib oldi.

Shu yil oktyabr oyida “O`qituvchi va murabbiylar kuni”, “O`zbek tili bayrami kuni”, “Xalqaro kitobxonlar kuni”ga bag`ishlangan “Ustozning munosib shogirdi”, “Ona tilim – jonu dilim” va “Kitobdan olgan taassurotlarim” deb nomlangan uchrashuv o`tkazdi va davra suhbat tashkillashtirdi.

“Bayrog`imiz – faxrimiz” va “Konstitusiya – baxtimiz poydevori” mavzularida tadbir va 1 soatlik dars o`tdi.

17-dekabrda boshlang`ich sinflar o`rtasidagi “Yosh matematiklar” va “Husnixat – bu san`at” tanlovida Ahmedova Dilbaroy 1-o`rinni oldi.

29-dekabr kuni o`quvchilar o`rtasidagi “Harakatli ko`rgazmalar” tanlovida sehrli archa harakatli ko`rgazmasi bilan ishtirok etdi va tumanda 1-o`rinni egalladi.

2019-yil 30-yanvar kuni O`zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavallud topgan sanaga bag`ishlab “Mustaqillik me`mori” mavzusida ochiq dars o`tkazdi.

8-mart kuni “Xalqaro xotin-qizlar bayrami” kuni munosabati bilan “Uyimiz farishtasi” nomli tadbir uyushtirdi.

13-mart kuni esa “Navro`z – milliy bayramimiz” mavzusidagi bir soatlik dars ishlanmasi Namangan teleradiokompaniyasida namoyish etildi va intervyu berdi.

Butunjahon bolalar kitobi kuniga bag`ishlab “Kitob – sakkizinchi mo`jiza” deb nomlangan kitob anjumani

o`tkazildi va u 5-may kuni Namangan teleradiokanalining “Gulshan diyorum” ko`rsatuvida efirga berildi. 10-mayda “O`zbekiston” teleradiokanalining “Yangiliklar” dasturida ham takroran ko`rsatildi.

“Xotira va qadrlash” arafasida “Xotira – abadiy, qadr – muqaddas” nomli uchrashuv o`tkazdi. “Muzeylar – jonli tariximiz ko`zgusi” naqliga amal qilib, viloyat muzeyiga sayohat uyushtirdi.

“Jonajon O`zbekistonim, mangu bo`l omon!” shiori ostidagi 1 soatlik darsi tuman miqyosida ommalashdi va u 10-oktyabr kuni Namangan teleradiokanalining “Asr” yangiliklar dasturida dars jarayonidan fotolavhalar berildi.

2020-yil sentyabr oyida “Atrofimizdagi olam” darsligidan “Yil fasllari” mavzusidagi video darsi tumanda va viloyatda ommalashdi, televidenie orqali yoritildi.

1-oktyabr “O`qituvchi va murabbiylar kuni” uchun maxsus va yil yakunida “Yangi yilda yangi orzular” deb nomlangan sahnalashtirilgan dastur tashkil etdi.

2021-yil 14-yanvar kuni vatan posbonlari bilan uchrashuv, 9-fevralda mumtoz shoir va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavallud topgan sanaga bag`ishlangan badiiy kecha, 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan sinfdagi o`quvchilarning onalariga atalgan “Muqaddas ayol” tadbirini o`tkazdi.

Sentyabr oyida Namangan viloyati xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida “Ta`lim jarayonida “CTEAM” texnologiyasini qo`llash” mavzusidagi trening mashg`uloti viloyat ustozlari faoliyatida ommalashdi. Mashg`ulot jarayoni Abdulla Avloniy nomidagi ishchi guruhi tomonidan muhokama va tahlil

qilindi hamda rektor faxriy yorlig'i, kafedra mudirining esdalik sovg'asi bilan taqdirlandi.

“Academy word” jurnalida “O`qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag`ishlangan, “Xalq irodasi” gazetasida “O`qituvchining faol metodlari” to`g`risida maqolalari, “Qaldirg`och” jurnalining 15-may sonida o`quvchisi Mumtozbeqim Abdumo`minovanning “O`zbekiston” she'ri chop etildi.

Ta`limda Milliy o`quv dasturini joriy qilish bo`yicha tumanda va viloyatda trening mashg`uloti olib bordi va u 2021-yil 10-avgustda Namangan telekanalida ko`rsatildi.

18-noyabrda “Bayrog`imiz – faxrimiz” mavzusidagi tadbiri viloyat televideniyasida namoyish etildi. 22-dekabr kuni “Inson odobi bilan go`zal” mavzusidagi 1 soatlik darsi tuman miqyosida ommalashtirildi.

Namangan Davlat universitetining boshlang`ich ta`lim yo`nalishi magistrleri va 4-bosqich talabalari uchun “master klass”, “Matematika fani o`qitilishi va uni samarali o`rgatish” yuzasidan mahorat darsi o`tib, NamDU rektorining faxriy yorlig'i hamda esdalik sovg'asi bilan taqdirlandi.

2021-yil yakunida tuman xalq ta`limi bo`limi mudirining faxriy yorlig`ini qo`lga kiritdi.

2022-yil 30-yanvar kuni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov xotirasiga bag`ishlab tayyorlagan videroligi O`zbekiston pedagoglari tomonidan tasdiqlanib, sertifikat bilan taqdirlandi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan “Besh tashabbus” bo`yicha “Kitob – bilim manbai” nomli ijodiy kecha o`tkazdi.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

Matematika fanida “CTEAM” texnologiyasi asosida tashkil etgan 1 soatlik ochiq darsi tumanda va viloyatda ommalashtirildi.

2021-2022 o`quv yili yakunida “Yilning eng faol o`qituvchisi” deb topilib, tuman hokimining tashakkurnomasi topshirildi.

1-5 avgust kunlari Toshkent shahrida O`zbekistonning barkamollik uchun ta`lim dasturi loyihasidagi yangi darsliklar taqdimotida namunali qatnashib, o`rganganlarini amalda qo`llamoqda.

O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan “Ilm-fan iftixori” ko`krak nishoni bilan taqdirlangan.

Tinib-tinchimas va har taraflama faol Munisa Abdullayeva maktab boshlang`ich sinf o`qituvchilarining metodika birlashmasi rahbari sifatida yosh pedagoglarning kasb mahoratini oshirishga munosib hissa qo`shmoqda.

Bilim maskanida va o`zi yashayotgan mahallada o`tkazilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etib, mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta`lim sohasida amalga oshirilgan keng ko`lamli islohotlarning mazmun-mohiyati va uning amaliy samaralarini targ`ib qiladi.



Dushanova Gulnora Xolmuhammadovna

Sharof Rashidov tumanining Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 13-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

Dushanova Gulnora Xolmuhammadovna 1976-yil 27-noyabrda Navoiy viloyati Nurota tumani Jo'sh qishlog'ida tug'ilgan. 1982-yilda Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 56-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri mobaynida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda va fan olimpiadalarida faol ishtirok etgan. 1993-yil shu maktabning 11-sinfini a'lo baholarga tamomlab Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahridagi Pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirdi. Bilim yurtida ham tengdoshlari orasida namunali talaba bo'lgan.

1996-yil bilim yurtini tamomlab, Qo'shrabot tumanidagi 27-umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ish boshladi.

1999-yil Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 4-“Lola” maktabgacha ta'lim tashkilotida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishladi.

2005-yildan Sharof Rashidov tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 13-umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishladi. U faoliyati davomida yangi pedagogik texnologiyalar va uslublardan keng foydalanib kelmoqda. Ish tajribasi tuman va viloyat miqyosida keng ommalashtirib kelinmoqda.

2017-yildan buyon shu maktabda boshlang'ich sinf o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida ishlab

kelmoqda. Tumanda o`tkazilgan seminar, uslubiy yig`ilishlarda, siyosiy-huquqiy tadbirlarda faol qatnashib, viloyat va tuman hokimligining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari tumanda o`tkazilayotgan fan olimpiadalarida faxrli I va II o`rinlarni olib kelmoqda. O`quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ta`sirchanligini oshirish, bolalarning bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida maktabda “Yosh matematiklar”, “Kimning xati chiroyli” va “Iqtidor yulduzlari” kabi to`garaklar faoliyatini yo`lga qo`ygan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-maydagi farmoniga binoan ta`sis etilgan “O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan, Ilg`or tadqiqotlar ilmiy markazining 2023-yil 13-yanvardagi 03-sonli buyrug`iga asosan “Ilm-fan iftixori” esdalik ko`krak nishoni bilan mukofotlangan.

Gulnora Dushanova ish faoliyatidagi jonkuyarliligi, mehnatsevarligi, talabchanligi va fidoiyligi uchun Jizzax viloyati xalq ta`limi boshqarmasi, Sharof Rashidov tumani xalq ta`limi bo`limi hamda maktab ma`muriyati tomonidan faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.



Suyunova Maftuna Sheraliyevna

Samarqand shahar Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 10-umumiy o'rta talim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.

Suyunova Maftuna Sheraliyevna 1990-yil 1-yanvar kuni Samarqand viloyatining Payariq tumanida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

1997-2006 yilgacha Samarqand shahar Payariq tumanidagi 60-umumiy o'rta ta'lim maktabida, 2006-2009 yillarda Samarqand shahar 1-son pedagogika kollejida ta'lim olgan. 2009-2013 yillarda Samarqand shahar Payariq tumanidagi 60-umumiy o'rta ta'lim maktabida kutubxonachi vazifasida hamda boshlang'ich sinflarga atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik fanlaridan dars bergan.

2013-2017 yillarda SamDU kasbiy ta'lim fakulteti musiqiy ta'lim yo'nalishini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 2017-yildan buyon Samarqand shahar 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi xotin-qizlar qo'mitasi raisi va musiqa madaniyati fani o'qituvchi vazifasida ishlab kelmoqda. Ish faoliyati davomida darslarida ko'rgazmali qurollar, axborot texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil qiladi. O'quvchilar bilan faol ish olib borib, turli tadbirlarda o'z chiqishlarini tashkil qiladi. Maktab qoshida “Samarqand sanamlari”, “Samarqand o'g'lonlari” yosh raqqoslar milliy raqs va “Yoshlar teatr studiyasi” da “Yosh aktyorlar” to'garaklarini tashkil etgan. U jamoat ishlarida va turli tadbirlarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. O'z ustida ishlab, erishayotgan yutuqlari bilan maktab nufuzini oshirmoqda.

Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limi ta'lim muassasida o'quvchining bilim, ko'nikma malakalari va yangi texnologiyalarni olib kirish, ularni musiqa va texnologiya fani bo'yicha DTS talablariga nisbatan o'zlashtirish darajasini oshirib borish maqsadida “Musiqa va texnologiya fan oyli” doirasida ushbu fan o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan “Eng namunali dars ishlanma” ko'rik-tanlovida faol ishtirok etganligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Maftuna 2018-yildan XDP ning faol a'zosi. 2018-yilda O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi tomonidan o'tkazilgan “Yosh siyosatchi” ko'rik-tanlovining Samarqand viloyat bosqichida yuksak bilim, ma'naviy salohiyat va faoliyati uchun “Eng tashabbuskor ishtirokchi” nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

2019-yil 1-fevralda O'zXDP tomonidan o'tkazilgan “O'zbekiston XDP ning eng faol ayoli” ko'rik-tanlovining Samarqand viloyat bosqichida o'zining yuksak siyosiy bilimi, ma'naviy salohiyati va faolligi bilan ishtirok etgan Maftuna Suyunova “Eng iste'dodli ishtirokchi” nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limi yosh avlodni barkamol, har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, ta'limni sifat va samaradorligini oshirishga qo'shayotgan salmoqli hissasi hamda “Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning o'rni” shiori ostida o'tkazilgan ko'rgazmali qurollar festivalida faol qatnashganligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Maftuna xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raisasi sifatida ham yaxshi faoliyat olib bormoqda. U “Eng namunali boshlang'ich tashkilot-2019” ko'rik-tanlovining faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan.

2019-yil aprel oyida Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limi maktab o'qituvchilari o'rtasida musiqiy madaniyat

fanidan o'tkazilgan “Vatanimni kuylayman” ko'rik-tanlovida faol ishtirok etib, faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati keng jamoatchilikka yetkazishni tashkil etishda hamda Samarqand shahar Xo'ja Zudumurod mahallasida “Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash” mavzusida tadbirni o'tkazishda boshqalarga o'rnak bo'lganligi uchun Maftuna Suyunova Samarqand shahar mahalla va oilani qo'llab quvvatlash boshqarmaning tashakkurnomasi bilan taqdirlandi. Samarqand viloyati Bolalar kutubxonasida “Kitob aql farzandlari” nomli tadbirda faol ishtiroki uchun faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limi tomonidan “Sharq durdonalari-2022” ko'rik-tanlovida “Raqs” yo'nalishida ishtiroki uchun III-darajali diplom va faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

O'zbekiston o'qituvchilari assotsiatsiyasi “Zamonaviy o'qituvchi obrazi: mahorat, pedagogik texnologiyalar va professional imidj” respublika ilmiy-metodik konferensiyasi sertifikatini berilgan.

2022-yil noyabr oyida o'tkazilgan Samarqand shahar Oila va xotin-qizlar bo'limining “Eng na'munali maktab xotin-qizlar davlat qo'mitasining boshlang'ich tashkiloti” nominatsiyasi bo'yicha tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

Musiqqa fani bo'yicha 2023-yilning 4-yanvar sanasida respublika o'qituvchilari o'rtasida bo'lib o'tgan online olimpiadada faol ishtirok etganligi uchun SERTIFIKAT bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan “Ilm-fan iftixori” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.



Boqiyeva Dilnoza Qo'qonovna

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tuman boshlang'ich sinf o'qituvchilari mentor treneri.

Boqiyeva Dilnoza Qo'qonovna 1981-yil 17-fevral kuni Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, Xiyobon qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan.

1987-yilda Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani 34-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 1996-1997 yillarda "Katta tanaffus" ko'rsatuvining "So'nggi qo'ng'iroq" sonida qatnashishga musharraf bo'ldi. 1998-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida tarix, ingliz tili, ona tili va adabiyot fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 1999-yil Qarshi pedagogika texnikumining boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. O'qish paytida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi.

2006-yilda Nizomiy nomidagi pedagogika universitetining maxsus sirtqi bo'limining boshlang'ich ta'lim fakultetiga o'qishga kirdi.

2009-yilda a'lo baholarga tamomladi va Yakkabog' tumani 34-maktabida o'z faoliyatini boshladi.

Mehnat staji 19 yil. Mazkur vazifada 2002-yildan ishlab kelmoqda.

Dilnoza Boqiyeva pedagogik ish faoliyati davomida ta'lim sohasida bir qator yutuqlarga erishgan. 2018-2019 o'quv yilida “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” ko'rik-tanlovida ishtirok etib, tumanda 1-o'rin, viloyatda faxrli 3-o'rinni egallagan. 2018-2019 o'quv yilida “Ko'rgazmali qurollar” ko'rik-tanlovida tumanda 1-o'rin, viloyatda faxrli 2-o'rinni egallagan.

2019-yildan hozirga qadar «Marifat», «Navqiron», «Boshlang'ich ta'lim», «Yakkabog' ovozi» gazetalarida 20 ga yaqin ilmiy-uslubiy maqolalari bosilib chiqqan va 2019-yilda «Boshlang'ich ta'lim» jurnali tomonidan faxriy yorliq, «Ma'rifat» gazetasi tomonidan «Ma'rifat hamkori» faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi.

Xalq ta'limi vazirligining 2018 -yil 6-yanvardagi 6-sonli buyrug'i asosida tashkil etilgan «Tayanch maktablari»da boshlang'ich sinf o'qituvchisi treneri sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

2020-o'quv yilida o'quvchisi Baxriddin Toshpo'latov Andijon viloyatida o'tkazilgan «Mental arifmetika» bo'yicha respublika olimpiadasida 1-o'rinni olib, Rossiyaning Sochi shahrida o'tkaziladigan olimpiadaga ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritgan. O'quvchilari respublika miqyosida tashkil etilgan onlayn olimpiadalarida qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. 2018-2019 o'quv yilida “Yilning eng yaxshi o'qituvchisi” tanlovida qatnashib, viloyat bosqichida esa faxrli 3-o'rinni egalladi. 2020-o'quv yilida darslari tumanda ommalashtirildi. 2021-yilda esa darslari viloyatda ommalashtirildi. 2021-yil 1-oktabrda “Xalq ta'limi a'lochisi” mukofoti bilan taqdirlandi.

2022-yilning 25-seniyabr kuni Samarqand shahrida MDH davlatlari miqyosida o'tkazilgan “Tashabbuskor

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

islohotchi" ilmiy-amaliy ko'rik tanlovida esdalik ko'krak nishon va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Dars jarayonida o'quvchilarni iqtidoriga qarab yo'naltirish o'qitishning zamon talablariga mos, ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Maktabda "Dars -muqaddas", "O'rgan-o'rgat", "Puxta reja - samarali natija", "Murakkab fan o'rganaman", "Yaxshi muallim -sifatli ta'lim" tavsiyalariga amal qilib ko'p yosh o'qituvchilarga ustozlik qilmoqda.

Salohiyatli pedagog, samimiy va jonkuyar inson sifatida hamkasblari va aholi o'rtasida hurmat qozongan.

2023-yilda "Xalqaro ilmiy forum-2023" da qatnashib, "Ilm-fan iftixori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



Maxmudova Dilobarxon Sobirjon qizi

Andijon viloyati Oltinko'l tumani
6-umumta'lim maktabining ingliz
tili fani o'qituvchisi

Maxmudova Dilobarxon Sobirjon qizi Andijon viloyati, Marhamat tumani, Shukurmergan qishlog'ida dehqon-ziyoli oilasida tug'ilgan. Yoshligidanoq she'riyatga va badiiy adabiyotga qiziqqanligi sababli maktab davrlaridayoq she'rlar mashq qila boshlagan. Deyarli barcha tadbirlar va ijodiy uchrashuvlarda boshlovchi yoki ssenariy muallifi sifatida ishtirok etgan. Maktabda va tuman miqyosida o'tkazilgan fan olimpiadalarda, jumladan, 4-7 sinflarda matematika fanidan, 8-9 sinflarda fransuz tili fanidan faol qatnashib, maqtoov yorliqlari bilan taqdirlangan. 2009-yilda maktabni a'lo baholar bilan tugatgan. 2009-2012 yillarda Marhamat Qishloq va suv xo'jaligi kasb-hunar kollejida EHM operatori yo'nalishida o'qigan va kollejlarda miqyosida fransuz tili bo'yicha o'tkazilgan fan olimpiadasida g'olib bo'lib, viloyat bosqichiga chiqqan. Xorijiy tillarga qiziqishi sababli birinchi yiliyoq o'qishga qabul qilingan, hamda 2012-2016 yillarda Andijon Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakultetining fransuz tili va adabiyoti yo'nalishida taxsil olgan.

Otasi Sobirjon Ortiqov juda mehribon va samimiy inson bo'lib, qizining kamolotida muhim rol o'ynagan. U asosan dehqonchilik va bog'bonchilik bilan shug'ullanganiga qaramay, yoshligidanoq juda sermazmun she'rlar yozib, ijod namunalari tuman

gazetalarida nashr ettirilgan. Yosh ijodkorga she'riyatga bo'lgan kuchli ishtiyoq va mehr asosan otasidan o'tgan.

Onasi Jannatxon Ortiqova ziyoli, bolalarga mehri balandligi sababli 25 yil davomida tumandagi bog'chada tarbiyachi bo'lib ishlagan.

Dilobarxon unversitetda o'qiyotgan paytida Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, betakror she'rlar va handalar muallifi ustози G'ani Majid bilan ko'rishgan va uning taklifi bilan „Nafosat“ ijodkorlar klubiga muntazam qatnashib, viloyatdagi ijodkor yoshlar bilan do'stona va ijodiy hamkorlik orqali qalamini ancha charxlab olgan.

U dardchil, kishini o'ylatadigan, insonlarda axloqiy poklik, mehr-muhabbatni targ'ib etadigan she'rlar yozgani hamda ijodida boshqalarga shunchaki ergashib yozishdan yiroqligi kelgusida undan ajoyib shoira yetishib chiqishiga ishonch tug'diradi.

Dilobar 2012-yili ilk „Bahor ifori“ nomli kitobchasini keng muxlislar e'tiboriga havola etgan edi. Undan keyin uning she'r, maqola va ijodiy tarjimalari „Andijon yoshlari“, „Xolis“, „Iqbol“, „Oq oltin“, „Vodiy gavhari“ va „Oltinko'l“ kabi gazetalarda e'lon qilindi. 2015-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi „Ijod“ jamoat fondi „Istedod maktabi“ VII respublika seminarida ishtirok etib, sertifikat va qator sovg'alar, jumladan, qimmatbaho kitoblar bilan taqdirlangan.

2018-yil taniqli shoir Muhammad Yusufning 64 yilligi munosabati bilan ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazilgan tanlovda “Vatanni sevishni sizdan o'rgandik!” nomli flashmobning “Eng yaxshi she'r” nominatsiyasi bo'yicha fahriy yorliq bilan hamda O'zbekiston Xalq demokratik

partiyasi tomonidan tashkil etilgan “Yosh siyosatchi-2018” respublika ko’rik-tanlovining Marhamat tuman bosqichida ishtirok etib, faol ishtiroki uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2019-yilda ustoz G’ani Majid boshchiligida „Bir shingil ijod” almanax to’plamida yosh shoiraning eng mukammal ijod na’munalari respublikning mashhur ijodkorlari bilan birgalikda to’plam holatida nashrdan chiqarildi. Shu yili davr talabi bo’lgan ingliz tilini yaxshiroq o’rganish maqsadida Andijon viloyati xodimlarni Kasbga qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida ingliz tili yo’nalishida ham tahsil oldi.

2019-yilda “Tadqiqot.uz”da “XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning tutgan o’rni” mavzusidagi respublika ilmiy onlayn konferensiyasida faol qatnashganligi uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yilning 19-noyabrda Belarus xalqaro ilmiy izlanishlar konferensiyasida o’zining “Forming the political views of future primary school teachers” nomli ilmiy ma’qolasi bilan ishtirok etib, xalqaro sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 29-dekabr kuni Farg’ona viloyatida MDH davlatlari o’rtasida o’tkazilgan eng yaxshi ilmiy ma’qola ko’rik tanlovida ishtirok etib, “Ilm-fan fidokori” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi. Hozirda uning „G’animat” nomli she’riy to’plami nashrdan chiqarishga tayyorlanmoqda. Kelgusida ijodkorning el nazariga tushgan taniqli shoira va mohir tarjimon bo’lishiga tilakdoshmiz.



Burxanova Munira Amriddinovna

Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 10-umumta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim fanlari o'qituvchisi.

Burxanova Munira Amriddinovna 1975-yil 27-fevral kuni Samarqand shahrida ishchi oilasida tavallud topgan.

1982-yilning sentyabrida Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi 10-maktabining 1-sinfiga o'qishga qabul qilindi. O'quv davri davomida barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirdi, tarbiyaviy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga namunalari xulqi bilan o'rnak bo'ldi, hamda, jamoat ishlarida faol qatnashdi.

Tuman va viloyatlarda o'tkazilgan fan olimpiadalarida qatnashdi. Jumladan, 1991-yil ona tili va adabiyot fanidan Samarqand viloyat olimpiadasida qatnashib, faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

1992-yil mazkur maktabni a'lo baholarga bitirdi va maqtoov yorlig'i bilan taqdirlandi.

1992-yil Samarqand Davlat universitetining maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim uslubiyati fakultetiga o'qishga qabul qilindi. Universitetni muvaffaqiyatli tugatib, 1996-yil o'zi o'qigan Samarqand shahridagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabiga boshlang'ich sinf o'qituvchisi vazifasiga ishga qabul qilindi. Hozirgi kunga

qadar shu maktabda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Oliy toifali o'qituvchi.

Maqola va tezislari gazeta va jurnallarida nashr etilgan, sertifikat bilan taqdirlangan. Jumladan, “Vunderkind.uz” jurnalining 2020-yil 8-sonida ta'lim tizimidagi o'z ish tajribasini ommalashtirgani uchun jurnal tahririyati tomonidan sertifikat bilan taqdirlangan.

“Muallim/ Учитель/ Teacher” metodik jurnalida 2020-yil oktyabr sonida “Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida og'zaki o'qitish metodlari” nomli maqolasi nashr qilindi. “Yoshlar olami” gazetasining 2021-yil 16-sonida “Kim bo'lmaylik, barchamizga muallimlar ta'lim berganini unutmashimiz kerak” nomli maqolasi e'lon qilingan.

“Ijodkor o'qituvchi” jurnalining 5-oktyabr 2021-yil 11-sonida “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasida oilaning roli” nomli maqolasi nashr etildi.

Maktabda olib borayotgan faoliyati davomida yosh avlodga puxta bilim berib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib kelgan.

Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limi tomonidan “Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va savodxonligini oshirishni ta'minlash jarayonida yangi texnologiyalarni olib kirish, ularni boshlang'ich ta'lim fani bo'yicha DTS talablariga nisbatan o'zlashtirish darajasini oshirib borish, ta'lim mazmunini bo-la shaxsiga yo'naltirish, o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy hamkorligi, iqtidori va qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o'qituvchilar o'rtasida bilim samaradorligini oshirish uchun “Eng xattot o'qituvchi” ko'rik-tanlovida qatnashib, II o'rinni

egalladi va Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limining faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi viloyat “Bolalar kutubxonasi”da “Mangu hilpira, o'zbek bayrog'i” nomli tadbirda 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining 3-“B” sinf o'quvchilari jamoasi bilan ishtiroki uchun sinf rahbari sifatida faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

Respublika Ta'lim markazi Al-Xorazmiy nomidagi Xalqaro olimpiada maktabi tomonidan respublika miqyosida o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan onlayn olimpiadada boshlang'ich ta'lim fanidan muvaffaqiyatli ishtiroki uchun bir necha marotaba sertifikat bilan taqdirlandi.

Respublika o'qituvchilari o'rtasida metod almashtirish telegram guruhlarida bo'lib o'tgan onlayn testlardan faxrli I va II o'rinlarni olganligi uchun 10 dan ortiq sertifikat va I darajali diplom bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbus test guruhida onlayn viktorina savollarida faolligi uchun (28.11.2020) I darajali diplom bilan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan “Qomusim – or-nomusim” mavzusidagi videoroliklar tanlovida faol qatnashib, barchaga namuna va o'rnak bo'lganligi uchun “O'zbekiston boshlang'ich pedagogi” kanali tomonidan (8.12. 2020-y) faxriy yorliq bilan, 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan “Ziyoli ustozlar” kanalida tashkil etilgan “Kasbim – faxrim” mavzusidagi tanlovda o'zining ijod namunasi bilan faol ishtirok etganligi uchun “Ziyoli ustozlar” kanali nomidan (13.09. 2021-y) oliy darajali diplom, “O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun” munosabati bilan

“Ona tilim – g`ururim, faxrim” shiori ostida o`tkazilgan tanlovda ishtiroki uchun “Pedagoglar olami - pedagoglar dunyosi” kanali nomidan (15. 10. 2021-y) diplom bilan taqdirlangan.

Munira Burxanovani mehnatsevarlik fazilatlarini o`zida mujassamlashtirgan va yoshlarga milliy tarbiya va puxta bilim bera oladigan, mustaqil respublikamiz ravnaqi yo`lida mehnat qiladigan haqiqiy pedagog-ayol sifatida ko`rish mumkin.



Muhammadiyeva Zamira Sharopovna

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 65-umumta'lim maktabining rus tili fani o'qituvchisi.

Muhammadiyeva Zamira Sharopovna 1967-yil 22-fevral kuni Shahrisabz shahrining “Palandara” qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan.

1974-yilda Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi 75-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. Maktabda o'qib yurgan davrlarida jamoat ishlarida faol qatnashdi. 1984-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi va Toshkent Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga qabul qilindi. Institutda barcha fanlarni a'lo baholarga o'qidi va turli xil tadbirlarda faol bo'lib, “Talabalik - oltin davrim” ko'rsatuvida ishtirok etishga muvaffaq bo'ldi.

1989-yil institutni muvaffaqiyatli tugatib, Yakkabog' tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 21-umumta'lim maktabida ish faoliyatini boshladi. U doimo ustozlari o'gitlarini qalbiga joylab bordi. Qator yillar davomida maktab “Rus tili uslubiyat birlashma”si boshlig'i vazifasida ishlab keldi. Ustozning ish faoliyati tumanda ommalashtirilgan bo'lib, o'z fani bo'yicha yetakchi ustozdir.

21-umumta'lim maktabi 2004-2005 o'quv yilidan tuman miqyosida rus tili bo'yicha tayanch maktabi hisoblandi. O'sha yillarda ustoz ko'p ishlarni amalga oshirdi. 2005-yil maktabda viloyat bo'yicha seminar tashkillashtirdi. Seminarda Zamira Muhammadiyeva rus

tili fanidan interfaol usulda dars tashkil etdi. Rus tili darslarida “klaster”, “sinkveyn” uslubida dars o'tish haqida tushuncha berdi.

2005-yilda “klaster” uslubini rus tili fanida qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanma yaratdi va respublika bo'yicha ommalashtirildi. Viloyat miqyosidagi seminarlarda “klaster” uslubini qo'llash borasida o'zi yaratgan uslubiy qo'llanma asosida ma'ruzalar qildi.

Trener ustoz sifatida maktabda o'tkaziladigan qator kechalarga ssenariylar yaratdi. “Праздник Букваря”, “Праздник Букетов”, “Неделя Русского Языка”, “Конституция Республики Узбекистан”, “Земля-твоя планета”, “В мире сказок”, “Вечер посвящений творчеству А. С. Пушкина”, “Давайте споём по-русски” shular jumlasidandir.

2006-yilda “Yilning eng yaxshi rus tili fani o'qituvchisi” ko'rik -tanlovida eng yuqori 93 ball olgan Zamira Sharopovna viloyat bosqichida faxrli I o'rinni qo'lga kiritdi. U o'quv uslubiy materiallar ishlab chiqishda viloyatda yetakchi ustoz hisoblanadi.

Namunali ustoz sifatida tumandagi “Yakkabog' ovozi”, viloyatdagi “Ziyokor” gazetalarida maqolalari chiqib turadi.

2008-yilda oliy toifali rus tili o'qtuvchisi bo'ldi.

2017-yil sentyabr oyida Zamira Muhammadiyeva Sharopovna “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi” nishoni bilan mukofotlangan.

14-ixtisoslashtirilgan maktab-internatida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida ishlaydi. Ixtisoslashtirilgan maktabda ishlab yurgan vaqtlarida ko'p yutuqlarga erishadi. Jumladan: bitta sinfdan bir

o'quv yilida 3 nafar o'quvchini Toshkent Davlat Jahon tillari universitetiga o'qishga kirishiga sababchi bo'ldi. O'quvchilarida o'z faniga nisbatan qiziqish uyg'otishga sazovor bo'lgan. O'quvchilari fan olimpiadalarida ishtirok etib, yuqori ko'rsatkichlarga erishib kelmoqda. Bir qancha shogirdlari institutni bitirib, rus tilidan dars berib kelmoqdalar.

2020-yilda A.I.Gertsin nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universitetining xalqaro miqyosdagi “C1” sertifikatini viloyatda birinchilardan bo'lib qo'lga kiritdi.

Maktabda ishlash bilan birgalikda o'quvchilarni institutga tayyorlash kurslarida o'zining uslubiy qo'llanmasi asosida ishlab, har yili bir qancha yutuqlarga erishib kelmoqda. Tumanning 50 dan ortiq maktablarda shogirdlari faoliyat yuritib kelmoqda.

2022-yilning 25-seniyabr kuni Samarqand shahrida MDH davlatlari miqyosida o'tkazilgan “Tashabbuskor islohotchi” ilmiy-amaliy ko'rik tanlovida esdalik ko'krak nishon va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

2023- yilda “Xalqaro ilmiy forum-2023”da ishtirok etib, “Ilm –fan iftixori” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



Sadullayev Muxriddin Faxriddin o'g'li

Navoiy viloyati, Karmana tumanining 9-maktabida tarbiya va huquq fani o'qituvchisi, o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari.

Sadullayev Muxriddin Faxriddin o'g'li 1992-yilda Navoiy viloyati, Karmana tumanida tug'ilgan.

Muxriddin 1998-2008 yillarda Karmana tumanidagi 9-umumta'lim maktabini a'lo baholarga bitirdi.

2008-2011 yillarda Karmana sanoat va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejida tahsil olib, imtiyozli qizil diplom bilan namunali tugatdi.

2013-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tagan. 2015-2019 yillar davomida Navoiy Davlat Pedagogika institutining tarix fakultetining milliy g'oya va ma'naviyat asoslari, huquq ta'limi yo'nalishini tugatgan. 2019-2022 yillar davomida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotida yoshlar yetakchisi lavozimida faoliyat yuritgan. 2019-2022 yil mart oyiga qadar Karmana tumanidagi 9-maktabda yoshlar yetakchisi va huquq fani o'qituvchisi bo'lib ishlagan. 2022-yil mart oyidan hozirgi vaqtga qadar ushbu ta'lim dargohida o'quv tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida ishlab kelmoqda.

2020-yil 3-noyabr kuni Navoiy viloyati xalq ta'limi tomonidan o'tkazilgan "Xalq ta'limi bilimdoni" tanlovida faxrli 1-o'rinni egallagan.

2020-yilda Karmana tumanining jamiyat hayotida o'zining fidoyiligi, mehnatsevarligi hamda ilmiy salohiyati

bilan Karmana tumanining eng faol “TOP 30” yoshlari safidan joy oldi. 2020-yil noyabr oyida BMT tomonidan o‘tkazilgan “Xalqaro yoshlar konferensiyasida” maxsus sertifikat bilan taqdirlangan.

2020-yil noyabr oyida yurtimiz bo‘ylab o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston - yangicha dunyoqarash” shiori ostida o‘tkazilgan ma‘rifiy tadbir va tanlovlarda viloyat va tuman hokimligining tashakkurnomalari bilan taqdirlangan.

2020-yil 2-6 dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi huzuridagi oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish markazi, taraqqiyot volontyorlar birlashmasi, “Oltin qanot” yosh volontyorlar guruhi va Yoshlar ittifoqi hamkorligida o‘tkazilgan “U-leader akademiy” loyihasida munosib ishtiroki uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2021-yil Yoshlar yetakchisi lavozimi faoliyati davomida maktab sardorlari bilan birgalikda “Eng namunali sardorlar kengashi” tanlovida viloyatda faxrli 1-o‘rinni egalladi.

2021-yil iyun oyida Namangan viloyatida o‘tkazilgan “Eng namunali sardorlar kengashi” respublika tanlovida maktab sardorlari bilan “Eng iste‘dodli jamoa” yo‘nalishi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

2021-yilda “Ustozlari qadr topgan yurt qudratli bo‘lur” shiori ostida o‘tkazilgan respublika tanlovida gran pri oliy darajali diplomi bilan taqdirlangan.

2021-yilda “O‘zbekiston tarixi” kanalidagi “Moziyga sayohat” nomli maxsus loyihasida ishtirok etib, yurtimizning tarixiy qadamjolari, milliy va madaniy merosimizni asrab-avaylash to‘g‘risida Navoiy viloyati Karmana tumani Hazora qishlog‘ida joylashgan tarixiy qadamjo Mavlono Orif

Deggaroniy ziyoratgohi tarixi haqida tadqiqotchi sifatida Karmana va Hazora xalqini uzoq tarixi yoritilishida o'z hissasini qo'shgan. 2021-yil dekabrda “Eng namunali yoshlar yetakchisi” respublika tanlovining viloyat bosqichida munosib ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egalladi hamda viloyat hokimligi va Yoshlar ittifoqi viloyat kengashining maxsus faxriy yorliq va sovg'alari bilan taqdirlandi.

2021-yil avgust oyida “Faol yoshlar va ilmiy izlanuvchilar” jamoatchilik kengashi tomonidan o'tkazilgan tanlovda faxrli 2-o'rinni egalladi.

2021-yil ta'lim va ilm-fan sohalarida izlanishlar olib bordi va Prezident tashabbusi bilan Toshkent shahrida o'tkazilgan “O'zbekiston uchun 100 g'oya” respublika tanlovi final bosqichida g'olib bo'lib, O'zbekistonning eng ilg'or 100 yoshlari safiga kiritildi va diplom, maxsus statuetka va sovg'alar bilan taqdirlangan.

2021-yil dekabr oyida Toshkentda o'tkazilgan Yoshlar forumi doirasida o'tkazilgan, “O'zbekiston uchun eng yaxshi 200 taklif” tanlovida ishtirok etib, “Yoshlar elchisi” deb e'tirof etildi.

2022-yil 20-may kuni O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnalida o'zining “Ta'lim bugunimiz va ertamizni hal qiluvchi jarayon” nomli maqolasi bilan ishtirok etib, maxsus sertifikat bilan taqdirlangan.


2022-yilning 25-sentyabr kuni Samarqand shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida o'tkazilgan “Tashabbuskor islohotchi” ilmiy amaliy ko'rik-tanlovida g'olib bo'lib, esdalik ko'krak nishoni va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

2022-yil dekabr oyida respublika miqyosida samarali natijalarga erishgan ilg'or yoshlarini bir joyda jamlagan

“C’zbeгим iftixorlari” nomli kitobida uning samarali faoliyati yoritildi.

Muxriddin Sadullayev faoliyati davomida o‘zining xalqparvarligi, adolatparvarligi, fidoyiligi, tirishqoqligi, talabchanligi, o‘ziga bildirilgan ishonch va ma’suliyati, masalaga teran va tahliliy yondashishi bilan tumanda, jamoasida ham o‘z o‘rniga ega.

U mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarga munosabat bildiruvchi, qonun loyihalari ishlab chiqishda xalqchil va yurt ravnaqiga naf keltiradigan g‘oya va takliflarni ilgari suradi. Hayotda doimo olg‘a intilib yashash va yangicha fikrlashga, zamon bilan hamnafas bo‘lish uchun inson yuksak salohiyat egasi bo‘lishi lozimligini yoshlarga ta’kidlaydi.



Qunisheva Muhayyo Mahmudaliyevna

**Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
5-IDUMning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.**

Qunisheva Muhayyo Mahmudaliyevna 1977-yil 5-noyabrda Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanining Mash'al qishlog'ida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

1984-yilda Kitob tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. Boshlang'ich sinf davrida uning chizgan rasmlari va yozgan she'rlari "Gulxan" jurnalida chiqarilgan. 1992-yilda huquq fanidan bo'lib o'tgan olimpiadada g'olib bo'lib, tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 1994-yilda maktabni a'lo baholarda tugatdi.

Maktab davrida barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirganligi sababli, 1994-yil Qarshi madaniyat texnikumiga o'qishga qabul qilindi. 2003-yil Shahrizabz pedagogika kollejining boshlang'ich sinflarda o'qitish yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilindi. O'qish davrlarida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi. Hozirda Qarshi Davlat Universiteti "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishlari" yo'nalishining sirtqi bo'limi bitiruvchisi, 5-kurs talabasi.

Ish faoliyatini 1995-yil Kitob tumanidagi 18-umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshladi. 2009-yilgacha shu maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi, 2009-2019 yillarda esa Kitob tuman Beshterak kasb-hunar kollejida o'qituvchi, 2019-yildan hozirgacha Kitob tuman 5-IDUMning boshlang'ich sinf o'qituvchisi vazifasida ishlab kelmoqda. Muhayyo Qunisheva pedagogik ish faoliyati davomida ta'lim sohasida bir qator yutuqlarga erishgan. 2019-2020 o'quv

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

yilida “Eng yaxshi dars ishlanma” ko’rik-tanlovida tumanda 1-o’rinni egalladi. 2020-2021 o’quv yilida “Ko’rgazmali qurollar” ko’rik-tanlovida viloyatda 2-o’rin sohibi bo’ldi. U ta’lim bergan o’quvchilari ham tuman, viloyatda o’tkazilgan turli xil ko’rik-tanlovlar va “Bilimlar bellashuvi”laridan faxrli o’rinlar olib kelgan. 2021-2022 o’quv yilida 4-sinfni a’lo baholarda tugatgan o’quvchilaridan 2 nafari “Prezident maktabi” ta’lim muassasasiga o’qishga qabul qilindi.

Dars jarayonida o’quvchilarni iqtidoriga qarab yo’naltirish o’qitishning zamon talablariga mos, ilg’or pedagogik texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishni o’zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Shuning uchun “Prezident maktabiga tayyorlov”, “Samarali interaktiv metodlar”, “Mental arifmetika” va yana turli xil kurslarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, shu kurslarning diplom va sertifikatlari sohibi bo’ldi. Maktabda “Dars muqaddas”, “O’rgan-o’rgat”, “Puxta reja-samarali natija”, “Murakkab fan o’rganaman”, “Yaxshi muallim-sifatli ta’lim” tavsiyalariga amal qilib ko’p yosh o’qituvchilarga ustozlik qilmoqda.

Salohiyatli pedagog, samimiy va jonkuyar inson sifatida hamkasblari va aholi o’rtasida hurmat qozongan.



Rustamova Feruza Musurmanovna

***Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani,
2-umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix
va huquq fanlari o'qituvchisi***

Rustamova Feruza Musurmanovna 1981-yil 29-avgust kuni Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, Chinobod mahallasida tug'ilgan.

1987-yilda Yakkabog' tumani 29-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 1998-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida tarix, huquq, ingliz tili, ona tili va adabiyot fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 1999-yil Abdulla Qodiriy nomli San'at va madaniyat institutining “Madaniyat nazariyasi va tarixi” fakultetiga o'qishga qabul qilindi. O'qish paytida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi.

2002-yilda institutni a'lo baholarga tamomladi va Yakkabog' tumanidagi 29-maktabda o'z faoliyatini davom ettirdi.

2012-yilda Qarshi Davlat Pedagogika Universitetining tarix fakultetini II mutaxassislik bo'yicha o'qishni tugatdi.

2013-yilda Yakkabog' tuman Iqtisodiyot kasb-hunar maktabida “Ijtimoiy gumanitar fanlar” bo'yicha kafedra mudiri sifatida o'z faoliyatini davom ettirdi.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

2020-yildan buyon Yakkabog' tuman 2-sonli umumta'lim maktabida ish faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

2020- yilda Moskva shahrining «ИНТЕРНАУК» jurnalida maqolasi chop etilgan.

2020-yilda “O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi konferensiyada o'zining “Ma'mun akademiyasining tashkil qilinishi” nomli maqolasi bilan ishtirok etdi. Konferensiyada faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2020-yilda “Tarix fanlarini o'qitishda ko'rsatmalilik va xaritalardan foydalanishning o'рни va ahamiyati” mavzusida Rossiyaning Moskva shahridagi «Интернаука» jurnalida maqolasi chop etildi.

2020-yilda Qarshi Davlat universiteti professori A.Choriyev bilan birgalikda “Mustaqillik yillarida O'zbekiston–Qirg'iziston madaniy aloqalari” mavzusidagi hammualliflikdagi maqolalari rus va ingliz tillariga ham tarjima qilindi.

2021-yilda MDH davlatlar o'rtasida « I Международное книжное издание», «Лучшие в образовании – 2021» nominatsiyasi bo'yicha oltin medal sohibasi bo'ldi.

2021-yilda “Xalq ta'limi a'lochisi” ko'krak nishoni sovrindori bo'ldi.

2022-yil 28-martda “Yunoniston madaniyati” mavzusida viloyatda ommalashtirish natijasini qo'lga kiritdi.

2022-yil “Ijodkor o'qituvchi ” respublika ilmiy-uslubiy jurnalida “Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalari” nomli maqolasi bilan ishtirok etdi.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

2022-yilning 25-sentyabr kuni Samarqand shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida o'tkazilgan “Tashabbuskor islohotchi” ilmiy amaliy ko'rik-tanlovida g'olib bo'lib, esdalik ko'krak nishoni va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

2023-yilda “Ilm-fan iftixori” ko'krak nishoni sohibasi bo'ldi.

U dars jarayonida o'quvchilarni iqtidoriga qarab yo'naltirish, o'qitishning zamon talablariga mos, ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Maktabda “Dars-muqaddas”, “O'rgan-o'rgat”, “Puxta reja-samarali natija”, “Murakkab fan o'rganaman”, “Yaxshi muallim –sifatli ta'lim” tavsiyalariga amal qilib, ko'p yosh o'qituvchilarga ustozlik qilmoqda.

Salohiyatli pedagog, samimiy va jonkuyar inson sifatida hurmat qozongan.



Rahimova Charosxon Odiljonovna

O'zbekiston Davlat Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistr talabasi.

Rahimova Charosxon Odiljonovna 1990 – yil 12- iyunda Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Davlat Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistr talabasi.

U hozirda tarjimonlik fakulteti “Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati” yo'nalishida kunduzgi ta'limda tahsil oladi. Millati – o'zbek. O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi a'zosi.

Charosxon 2019–yil O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetiga o'qishga kirgan. Ilmiy rahbari X.Samigova bilan 40 dan ortiq ilmiy-ijodiy ishlari chop etilgan, shundan 2 tasi turizm yo'nalishiga oid kitoblardir.

Ch.Rahimova o'z kasbiy mahorati va ma'naviy dunyoqarashini takomillashtirishga katta e'tibor beradi. U o'zining ilmiy va amaliy mahoratini oshirish maqsadida izlanishlar olib bordi. Oliy ta'lim muassasalari professor o'qituvchilari bilan ilmiy-metodik hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda ular bilan birgalikda ta'lim sohasidagi muammolarni bartaraf etishga va uni rivojlantirishga qaratilgan bir nechta ilmiy-metodik maqolalar tayyorlagan va tavsiyalar ishlab chiqqan. Tirishqoq, talabchan, institut professor-o'qituvchilari hamda talabalari orasida katta hurmatga ega.

Ch.Rahimova so'nggi yillar davomida xalqaro (Germaniya, Ukraina) shuningdek, respublika (Nukus, Termiz, Toshkent, Samarqand, Guliston, Jizzax) miqyosida o'tkazilgan ilmiy-nazariy va uslubiy konferensiyalarda

o'zining ilmiy axboroti va ma'ruzalari bilan faol qatnashdi. Ilmiy va kasbiy faoliyatini yanada rivojlantirish, muayyan tajribalar almashish maqsadida O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Til, adabiyot va folklor instituti, O'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zMU, ToshDPU, SamDU, AnDU, FarDU, QDPI, NDPI va boshqa ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni muntazam davom ettirmoqda.

Ch.Rahimova o'qishga kirgan paytdan tirishqoq, qiziquvchan, intiluvchan, jamoatchi talaba sifatida tanildi. Har doim o'ziga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat va yuksak mahorat ila bajaradi. Universitet tomonidan o'tkazilgan tadbirlarda faol ishtirok etishi, tarjimashunoslikka, adabiyotga va she'riyatga bo'lgan katta qiziqishi tufayli boshqa talabalardan ajralib turadi. Notiqlik san'ati, nutq madaniyati, sahna madaniyati, psixologiya kabi sohalarga qiziqishi tufayli ko'plab maqolalar muallifiga aylandi. Jumladan, SCOPUS tizimidagi xorijiy jurnallarda, OAK ro'yxatidagi mahalliy ilmiy jurnallarda, respublika va OTM miqyosidagi ilmiy anjumanlarda ko'plab maqolalari, ilmiy rahbari X.Samigova bilan birgalikda “English and uzbek dictionary of speech formulas (on the basis of dialogic rhetoric)”, (Ingliz va o'zbek tillarida nutqiy formulalar lug'ati),(dialogik ritorika asosida)” nomli qo'llanmalari chop etildi. Undan tashqari Nukus Davlat universiteti tomonidan tashkil etilgan “Til ta'limining zamonaviy tendensiyalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi g'olibi, mart oyida o'tkazilgan “Intercontinental youth online conference” da “The best speaker award” nominatsiyali sertifikat sohibi bo'ldi. “Sustainable development goals model united nations online conference – 2” da qatnashib,

faol va foydali fikrlari uchun sertifikat bilan taqdirlandi. “Global leaders online conference”da qatnashib, ishtirokchi xalqaro muammolarni hal qilish uchun aniq g'oyalar va yechimlarni taklif etib, konferensiya davomida o'zini yetakchi shaxs sifatida ko'rsatganligi uchun sertifikat sohibi bo'ldi. “Sustainable development goals model united nations online conference – 3” da qatnashib “The best freshman award” nominatsiyali sertifikat sohibi bo'ldi.

Respublika yosh olimlar kengashi nodavlat notijorat tashkiloti hamda Qarshi shahrida “International diplomats council” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan o'tkazilgan “Parvoz youngs forum” da qatnashib, sertifikat sohibi bo'ldi. Express Edition – ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash markazi hamda Premium ICT XK tashkilotlari hamkorligida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlab tashkillangan “Raqamli texnologiyalar va ta'lim istiqbollari” yo'nalishidagi ilmiy-amaliy konferensiyasida o'zining “Temir yo'l xodimlarining intizom madaniyati” hamda “Nutq texnikasi va madaniyati” mavzusidagi ilmiy maqolalari bilan qatnashib, sertifikat sohibi bo'ldi. U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga tavsiya etilgan.

Charosxon buyuk mutaffakir olimlarimizning durdona asarlarini jahon miqyosiga tanitishiga, mamlakatimiz turizm sohasiga kuchli qiziqishi tufayli turizm sohasida ham kelajakda o'zining ilg'or fikrlari va yangidan yangi g'oyalari bilan sohada salmoqli ishlar qilishiga ishonamiz.



Boyqabilov Abubakir Adilboyevich

Sharof Rashidov Nomidagi Samarqand Davlat Universiteti magistr talabasi.

Boyqabilov Abubakir Adilboyevich 1991-yil 3-avgustda kuni Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumani, Pichot qishlog'i, Changaltepa MFY, Obodsoy ko'chasi 38-uyda ishchi oilasida tug'ilgan.

1998-yilda Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanining 78-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 1998-yilda huquqshunoslik fanidan bo'lib o'tgan “Yosh huquqshunoslar bellashuvi”da tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2007-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida tarix, ona tili va adabiyoti, informatika fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 2010-yilda Qo'shrabod pedagogika kollejining ARM yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. O'qish paytida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi. Jumladan, “Informatikanig eng a'lochi talabasi” nominatsiyasi g'olibi, “Prezident asarlari bilimdonlari” ko'rik-tanlovida jamoasi bilan faxrli I-o'rinni, “Balli yigitlar” ko'rik-tanlovida faxrli II-o'rinni egalladi.

“Amir Temur izdoshlari” milliy kurash bo'ycha musobaqada tuman bosqichda I-o'rinni egalladi.

2011-yilda muddatli harbiy xizmatda bo'ldi. Xizmat davri davomida o'ziga yuklatilgan topshiriqlarni sidqidildan bajarib, harbiy qism komandiri tomonidan faxriy yorliqlar va tashakkurnomalar bilan taqdirlandi. Xizmat mobaynida jangovor tayyorgarlik, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik va

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirgani uchun xizmat tavsiyanomasiga ega bo'ldi.

2013-yilda Samarqand Davlat universiteti tarix fakultetiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. Abubakir universitetning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashdi.

2017-yil universitetni imtiyozli diplom bilan tugatdi.

Shu yili Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyiga tarix fani o'qituvchisi bo'lib ishga qabul qilindi. Ish davomida jamoasining ichida o'zining intiluvchanligini namoyon eta oldi.

2019-yil Samarqand veterinariya meditsinasi instituti akademik litseyi ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi bo'lib imtihon asosida ishga qabul qilindi, ishlash davomida 5 dan ziyod gazeta va jurnalga ilmiy maqola chiqardi

2021-yil Samarqand shahar 4-umumta'lim maktab yoshlar yetakchisi bo'lib suhbat asosida ishga qabul qilindi.

2021-yil “Eng namunali yoshlar yetakchisi” yo'nalishi bo'yicha diplom bilan taqdirlandi.

2021-yil Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti davolash ishi fakulteti tyutori lavozimiga suhbat asosida ishga qabul qilindi. Ishlash davomida jamoa orasida intiluvchanligi bilan o'z o'rniga ega bo'ldi. Talabalarni tarbiyalashda munosib ishlab kelmoqda.

Hozirgi kunda 25 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan xalqaro va respublika jurnallarida nashr etilgan.

Abubakirni milliy mafkura g'oyalariga sodiq, milliy ma'naviyat negizida yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, fidoyilik tuyg'usini va mehnatsevarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan va yoshlar orasida targ'ibot qila

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

oladigan, yurt ravnaqi yo'lida mehnat qiladigan haqiqiy o'zbek o'g'loni sifatida ko'rish mumkin.



Shopulotova (Kobilova) Zarina Abdumumin qizi

***Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti,
Akusherlik va ginekologiya yo'nalishi, II-
bosqich magistr talabasi.***

Shopulotova (Kobilova) Zarina Abdumumin qizi 1997-yil 8-sentabr kuni Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

2003-yilda Samarqand viloyati, Samarqand shahrining 14-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilingan. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, ko'rik-tanlovlarda, fan olimpiadalarida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'lgan hamda jamoat ishlarida faol qatnashib kelgan va har yili maqtov yorliqlari va faxriy yorliqlar bilan maktab ma'muriyati tomonidan taqdirlangan. 2007-yilda rus tili fanidan bo'lib o'tgan “Maktabning eng yaxshi kitobxon” bellashuvida I o'rinni egallagan. Bir necha bor kimyo va biologiya fanlaridan olimpiadalarda ishtirok etib, viloyat bosqichiga yo'llanmalarni qo'lga kiritgan. 2012-yilda maktabni a'lo baholarga tugatgan.

Maktab davrida biologiya, kimyo, matematika, rus tili fanlariga qiziqqani sababli 2012-yilda SamDU qoshidagi 1-son akademik litseyiga o'qishga qabul qilingan. O'qish davri davomida turli tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'lgan. Jumladan, “Quvnoq startlar” sport musobaqalarida stol tennisi bo'yicha faxrli III o'rin g'olibi bo'lgan.

2015-yilda akademik litseyni a'lo baholarga tamomladi. 2015-2020 yillarida Samarqand Davlat Tibbiyot instituti

“Kasb ta’limi (davolash ishi)” fakultetida o’qib, imtiyozli diplom bilan ushbu mutaxassislikni tamomlagan.

Qisqa vaqt ichida Zarina universitetda ham o’z bilimi, iqtidori hamda intiluvchanligi bilan e’tibor qozondi. Dars jarayonida faol qatnashishi va tartib-intizomi professor-o’qituvchilari, tengdoshlari orasida uning hurmatini yanada oshirdi.

Zarina har qanday inson bilan tezda til topishib ketadigan, dunyoqarashi keng va insonlarni ezgu maqsad sari birlashtira oladigan qizdir. Buni biz uning 2019-yilda respublika miqyosida “Sud tibbiyoti” fanidan birinchi marta bo’lib o’tgan olimpiadada I o’rinni egallab, o’zining insonparvarlikka da’vat etuvchi fikr-mulohazalari va maqolalari orqali ustozlari hamda tengdoshlarida katta taassurot qoldirganidan bilishimiz mumkin.

2020-yilda L.S.Persianinov nomidagi “Akusherlik va ginekologiya” fanidan talabalar o’rtasida o’tkaziladigan xalqaro ishtirokli IV Rossiya olimpiadasida jamoa tarkibida faol ishtirok etgani uchun sertifikat bilan taqdirlanib, ilmiy rahbari va institut rektori ishonchini oqladi. Tojikiston, Rossiya, Yaponiya, Angliya, Avstraliya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda o’tkazilgan onlayn ilmiy-amaliy anjumanlarda va forumlarda faol ishtirok etgan, kelajakda yana xorijda ta’lim olib, innovatsion g’oya va texnologiyalarni yurtimizda joriy qilish niyati ham bor.

2020-yili respublika miqyosida o’tkazilgan “Akusherlik va ginekologiya” fanidan olimpiadada III o’rinni egallagan. Shu yilda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti tomonidan tashkil etilgan “Samarqand-2020” birinchi xalqaro olimpiadada “Akusherlik va ginekologiya” fanidan I o’rinni egallagan.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

Zarina uch karra “Rektor stipendiyasi” sohibasi, 2020-2021 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi “Prezident stipendiyasi” ga sozovor bo‘lgan.

2021-2022 o‘quv yili mobaynida “Start-up tashabbuslar” 5-mavsumida faol ishtirok etib, “Practice room for medical students” loyihasi bilan g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

“Surunkali pielonefriti bo‘lgan ayollarda komorbidlik” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, dunyo bo‘ylab keng tarqalayotgan ayollarni homiladorlik va tug‘ruq asoratlarning oldini olish muammosini hal etish borasidagi amaliy ishlarni qo‘llashni ustozlari bilan birga ishlab chiqmoqda.

Hozirda u 100 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 3 ta EHM patent va 1 ta uslubiy tavsiyanoma muallifi va hammuallifi.

U tahsil olayotgan oliy o‘quv dargohida tashkil etilgan “Akusherlik va ginekologiya” to‘garagi a‘zosi va raisi, shu bilan birga talabalar ilmiy jamiyati faoliyati bilan yaqindan shug‘ullanadi.



Shopulotov Shoxrux Asliddin o'g'li

***Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Urologiya yo'nalishi, II-bosqich magistr
talabasi.***

Shopulotov Shoxrux Asliddin o'g'li 1996-yil 15-sentabr kuni Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

2003-yilda Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shaharchasidagi 7-IDUMning 1-sinfiga qabul qilingan. 2009-yilda Kattaqo'rg'on shaharchasiga ko'chganligi sababli o'qishini 2009-2012 yillar davomida 42-umumta'lim maktabida davom ettirgan. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, ko'rik-tanlovlarda, fan olimpiadalarida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'lgan hamda jamoat ishlarida faol qatnashib kelgani bilan bir qatorda maqto'v va faxriy yorliqlar bilan maktab ma'muriyati tomonidan taqdirlangan. Bir necha bor fan olimpiadalarida ishtirok etib, viloyat bosqichiga yo'llanmalarni qo'lga kiritgan. 2012-yilda maktabni a'lo baholarga tugatgan.

Maktab davrida biologiya, kimyo, ona tili va adabiyot, rus tili fanlariga qiziqgani sababli 2012-yilda SamDU qoshidagi 1-son akademik litseyiga o'qishga qabul qilingan. O'qish davri davomida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'lgan. A'lo baholarga o'qiganligi va jamoat ishlarida faol ishtiroki uchun faxriy yorliqlar bilan va tashakkurnomalar bilan litsey ma'muriyati tomonidan taqdirlangan. 2015-yilda akademik litseyni a'lo baholarga

tamomlagan va ushbu muassasaning direktori tashakkurnomasi bilan taqdirlangan.

2015-2020 yillarda Samarqand Davlat Tibbiyot instituti “Davolash ishi” fakultetida o‘qigan va a’lo baholi diplom bilan ushbu mutaxassislikni tamomlagan.

Qisqa vaqt ichida Shoxrux universitetda ham o‘z bilimi, iqtidori hamda intiluvchanligi bilan e’tibor qozondi. Dars jarayonida faol qatnashishi va tartib-intizomi professor-o‘qituvchilari, tengdoshlari orasida uning hurmatini yanada oshirdi.

2020-yilda L.S.Persianinov nomidagi “Akusherlik va ginekologiya” fanidan talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan xalqaro ishtirokli IV Rossiya olimpiadasida jamoa tarkibida faol ishtirok etgani uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

U har yili universitet tomonidan tashkil etiladigan «Zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolari» nomli xalqaro ilmiy-amaliy talabalar va yosh olimlar anjumanida ilmiy ma’ruzalar bilan qatnashib, faxrli I, II, III darajali diplomlarga sazovor bo‘lgan, qolaversa, chet el davlatlarida uyushtirilgan konferensiya va forumlarda faol ishtiroki uchun sertifikat va diplomlar bilan taqdirlanib kelmoqda.

Shu bilan birgalikda Shopulotov Shoxrux Tojikiston, Rossiya, Yaponiya, Angliya, Avstraliya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda o‘tkazilgan onlayn ilmiy-amaliy anjumanlar va forumlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Shoxrux Shopulotov 2021-yilda “Rektor stipendiyasi” ga sazovor bo‘lgan. 2021-2022 o‘quv yili mobaynida “Start-up tashabbuslar” 5-mavsumida faol ishtirok etib, “Practice room for medical students” loyihasi bilan g‘oliblikni qo‘lga kiritgan hamda 50 million so‘m grant mablag‘i bilan taqdirlangan.

"Giperaktiv qovuq sindromi bo'lgan kasallarni konservativ davolash terapiyasini optimallashtirish" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, dunyo bo'ylab keng tarqalayotgan va hayot tarziga ta'sir ko'rsatayotgan giperaktiv qovuq sindromida kelib chiqadigan asoratlarning oldini olish muammosini hal etish borasidagi amaliy ishlarni qo'llashni ustozlari bilan birga ishlab chiqmoqda.

Hozirda u 60 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 1 ta EHM patent va 1 ta uslubiy tavsiyanoma muallifi va hammuallifi.



Usmanova Aysulu Rinat qizi

**Qoraqalpoq Davlat universiteti,
Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistikasi
fakulteti 3-kurs talabasi.**

Usmanova Aysulu Rinat qizi 2002-yil 31-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiatosh shahrida tug'ilgan. Millati -qoraqalpoq.

2009-2020 yillarida Taxiatosh shahridagi 3-sonli maktabda ta'lim olgan.

2012-2018 yillar davomida Taxiatosh shahri 7-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabida fortepiano mutaxassisligi bo'yicha 7 yil ta'lim olib, a'lo darajali diplom bilan tamomladi.

2020-yil maktabni a'lo baholar bilan tamomlab, oltin medal bilan taqdirlandi.

2020-yildan boshlab Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakultetida to'lovli shartnoma asosida ta'lim olmoqda.

Usmanova Aysulu universitetda tahsil ola boshlagan dastlabki kunlaridan, o'zining bilimi, intiluvchanligi, tartib-intizomi, jamoat ishlarida faolligi bilan tezda ko'zga tushdi va o'z ustozlarining diqqat e'tiboriga sazovor bo'ldi. Aysulu o'z fanini chuqur o'zlashtirgan, bilimli, izlanuvchan, dunyoqarashi keng, ijodkor talaba. Iste'dodli talaba bo'lishi bilan birga badiiy kitoblar o'qish, pazandachilik va tikuvchilik bilan shug'ullanadi. Shuningdek, respublika miqyosida o'tkazilgan turli konferensiya, ko'rik-tanlov va

tadbirlarda muntazam ishtirok etib, sovrinli o'rinlarga sazovor bo'lgan.

2021-yilda "Türkiy tiller sistemasında professor E.Berdimuratovtın xizmetleri" nomli xalqaro ilmiy-amaliy online konferensiyasida o'zining maqolasi bilan qatnashib, ilmiy maqolasi chop etildi.

2022-yilda "Research and Education" ilmiy jurnalida tezisi chop etildi.

2022-yil "The research paper on Eurasian journal of Academic research" jurnalida ilmiy maqolasi e'lon qilindi.

2022-yilda "Ilm g'unchalar" mavzusidagi XII respublika ilmiy anjuman materiallarida o'zining ilmiy maqolasi bilan qatnashdi.

2022-yil Hindistonning "Young Academic International sciefentic" jurnalida ilmiy maqolasini chop etdi.

2022-yil Chexiyaning Praga shahridagi "Youth, science, education: Topical issues, achievements and innovations" onlayn jurnalida ilmiy maqolasi chop etildi.

2022-yil Avstraliyaning Melburn shahridagi "International Conference: Problems and scientific solutions" nomli jurnalida maqolasi chiqdi.

2022-yil AQShning Boston shahridagi "International Scientific and Practical Conference innovative development in the global science" jurnalida ilmiy maqolasini chop etildi.

2023-yil "Frazeologizmlerdiń dúzilislik jagınan túrleri" nomli ilmiy maqolasi Scopus bazasida indekslandi.

Bu jarayonda o'zidan oldingi tadqiqotchilar, olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishib chiqib, bugungi kunda mazkur masalada o'z yechimini topmagan ko'pgina mavjud muammolar va ayrim bahsli jihatlari bo'lgan-frazeologizmlarning tilshunoslikdagi ahamiyati, hozirda

ularni har tomonlama o'rganish, qoraqalpoq tilshunosligida badiiy asarda frazeologizmlarning qo'llanilishi, tilshunoslikdagi frazeologik boyliklarning individual uslubiy o'ziga xosligi, ularning semantik tabiati va boshqa shu kabi mavzuga oid dolzarb masalalarni tadqiq qilish ustida izlanishlar olib bormoqda. Izlanishlari natijasida talabanning "I.Yusupov asarlarida ravishlarning qo'llanilishi", "Bo'zug'lan" dostonidagi frazeologizmlar", "K.Karimovning "Zardusht" asarida dialekt so'zlarning qo'llanilishi", "I.Yusupov. Stil va frazema" , "About some toponyms in Takhiatash district", "Comparisons in I. Yusupov's poems", "Ibrayim Yusupov in his creative works - la/-le affixin meanings of word-making in verb-making from noun words" (in the case of the collection "Alasatlı dúnnya bul"), "Interpretation of the Ogabi novel by Kengesboy Karimov", "The use of taboo and euphemisms in the creative work of Kengesbay Karimov", " Frazeologizmlerdiñ dúzilislik jaǵnan túrleri" va boshqa ilmiy-tadqiqot ishlari ilmiy jurnallarda va ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida ijobiy taqriz-xulosalar olingan holda chop qilindi. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi miqyosida tashabbuskor talabalarni rag'batlantirish maqsadida o'tkazilgan tanlovda "Tashabbuskor islohotchi" kókrak nishoni bilan taqdirlandi.

Talaba xalqaro, respublika va universitet miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, "Ilm g'unchalari" atamasidagi XII respublika ilmiy-amaliy konferensiya va yoshlar orasida olib borilayotgan loyihalarda, ya'ni "I Book stipendiyasi", "Birgalikda yuksalamiz" va "Kitobxon yoshlar" loyihalarida yoshlarni kitobxonlikka targ'ib qilishda o'z faolligini ko'rsatib kelmoqda.



Jabborova Sevara Shuhratovna

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining III-bosqich talabasi.

Jabborova Sevara Shuhratovna 2002-yil 17-iyul kuni Samarqand shahrining Mingtut mahallasida tadbirkorlar oilasida tug'ilgan.

2009-yilda Samarqand shahridagi 63-umumta'lim maktabning 1-sinfiga qabul qilindi. 2015-yildan boshlab ta'limni Toshkent shahar, Chilonzor tumanining 101-umumta'lim maktabida davom ettirdi. O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 2019-yilda Yoshlar ittifoqi sardori etib tayinlandi. 2020-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida matematika, tarix, ingliz tili, ona tili va adabiyot fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirganligi sababli 2020-yilda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti, siyosatshunoslik yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi.

1-kursda amaliyotni Samarqand shahridagi 5 ta partiyaning faoliyati, maqsad va vazifalarini o'rganish bilan o'tkazdi. So'ng, ushbu vaziyatdan foydalanib, partiyalarning saylov oldi jarayonlari to'g'risida besh sonlik ko'rsatuv tayyorladi.

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

2-kurs davomida "Renessans" telekanalining "Rennews" informatsion dasturida muxbirlik va bir nechta shaxsiy loyihalarida boshlovchilik qildi. Hozirgi kunda ham faoliyatini O'zMTRKda yangi loyihalarni yo'lga qo'yish bilan davom ettirmoqda.

Uning quyidagi yutuqlari bor:

- "INTELLEKT" – Yoshlar siyosiy tahlil klubi hay'at a'zosi (2021-2023);

- "Adolat" sotsial demokratik partiyasi a'zosi;

- "Reaching Stars" online konferensiyasining 3-4-5-mavsum moderatori (2021);

- Xalqaro "Parvoz yoshlar forumi"ning 2-3-4-5-6-7-mavsum moderatori va koordinatori (2021-2023);

- Xalqaro "The global leader conference"ning 2-3-mavsumi koordinatori (2021);

- "Bilimdonlar ligasi" online loyihasi koordinatori (2021);

- "Faol qizlar harakati forumi"ning 2-3-mavsumi moderatori (2021);

- "Bir nuqtada birlashamiz" yoshlar forumining 3-mavsum delegati (2021);

- Xalqaro "Upward growth forum"ning delegati (2022);

- "Yosh adolatchilar" forumi qatnashuvchisi (2021);

- "Renessans" telekanali muxbiri (2021-2022);

- 10 dan ortiq xalqaro va mahalliy maqolalari xalqaro va respublika jurnallarida nashr etilgan;

- 50 dan ortiq xalqaro va respublika forumlar delegati, xalqaro va respublika sertifikatlar sohibasi;

- "Tashabbuskor islohotchi" xalqaro ilmiy-amaliy MDH ko'rik-tanlovida ishtirok etib, sertifikat, diplom, tashakkurnoma, esdalik nishoni hamda qimmatbaho sovg'a bilan taqdirlandi;

-Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining ijtimoiy tarmoqlardagi videodayjest boshlovchisi;

- 50 dan ziyod ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni yoritgan, ijodiy lavhalar tayyorlagan va ularning barchasi teletomoshabinlarga taqdim etilgan.

Shuningdek, “Islom Karimov”, “Tarixga nazar soling”, “Bahor ifori”, “Eng baxtli inson”, “Ushalmagan orzular”, “Haqiqat”, “Yangi hayot”, “Baxtni kutamiz”, “Koʻngil soʻzlaydi”, “Buvijonim soʻzlari” kabi 100 dan oshiq sheʼrlar hamda bir nechta hikoyalar muallifi.

Sevara fidoyilik tuygʻusini va mehnatsevarlik fazilatlarini oʻzida mujassamlashtirgan va yoshlar orasida targʻibot qila oladigan, mustaqil yurtimiz ravnaqi yoʻlida mehnat qiladigan ilmiy, ijtimoiy ijodkor, xalq bilan ham nafas ishlaydigan, harakatdan toʻxtamaydigan haqiqiy boʻlajak siyosiy jurnalist sifatida koʻrish mumkin.



Nazirqulova Shohista Ilhom qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Nazirqulova Shohista Ilhom qizi 2003-yil 13-may kuni Toshkent viloyati, Piskent tumanida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

2010-yil Toshkent viloyati, Piskent tumanining 18-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 2016-yilda ona tili va adabiyot fanidan bo'lib o'tgan "Bilimlar bellashuvi"da tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2021-yil maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida ona tili va adabiyot, matematika va biologiya fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 2022-yilda Toshkent Davlat Pedagogika universitetining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga davlat granti asosida talabalikk tavsiya etildi.

Hozirda universitetning 1-bosqich talabasi. Shohista universitetning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiadalar hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, ilmiy maqola va tezislari xalqaro va respublika jurnallarida nashr etilgan.

“Tadqiqotlar” jurnalida “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili darsida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar”, “Journal of innovations in social sciences” jurnalida

“Boshlang`ich sinf o`quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi”, “Образование, наука и инновационные идеи в мире, Благодарственное письмо” jurnalida “Boshlang`ich sinf o`quvchilarida so`z yasalishiga oid tayanch kompetensiyalarni shakllantirish” maqolalari nashr etilgan.

2023-yil butun Hindiston Kengashi Texnik ko'nikmalarni rivojlantirish notijorat tashkiloti, Milliy inson huquqlari va gumanitar federatsiyasi, Hindiston hukumati huzuridagi Ragd Hindiston sifat Kengashi, QCI xalqaro Advokatlar assotsatsiyasi - IBA va Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zosi bo'lgan.

Emiko konomi bilan professionallar uchun yapon tili kursini tugatgan.

Shohista fidoyilik tuyg'usini va mehnatsevarlik fazilatlarini o`zida mujassamlashtirgan va yoshlar orasida targ'ibot qila oladigan, mustaqil yurtimiz ravnaqi yo`lida mehnat qiladigan ilmiy, ijtimoiy ijodkor, xalq bilan ham nafas ishlaydigan, harakatdan to`xtamaydigan haqiqiy bo`lajak pedagog sifatida ko`rish mumkin.



Raximov Zehniddin Husniddin o'g'li

**Buxoro Davlat Tibbiyot instituti,
davolash ishi fakultetining IV-bosqich
talabasi.**

Raximov Zehniddin Husniddinbek o'g'li 2000-yil 5-yanvar kuni Buxoro viloyati, Jondor tumani, Peshxandoq qishlog'ida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

2006-yilda Jondor tumanining 26-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. Maktab davridayoq juda ham kōp fan olimpiadalarida yuqori ōrinlarni egalagan va faxriy yorliq, tashakkurnoma, diplomlarni qōlga kiritgan. Bundan tashqari, maktab davridayoq she'rlari viloyat gazetalarida chop etilgan. "Zakovat" turnirlarida I ōrinni egalagan. 2015-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

2015-yilda Jondor tumanidagi QX kolleji QXMTXKM yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. O'qish davri davomida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi.

2015-yil biologiya-kimyō olimpiadasi viloyat bosqichida II-ōrin, 2015-yil fevralda respublika "Yosh qutqaruvchi" tanlovida II ōrinni egallagan.

"Prezident asarlari bilimdonlari" ko'rik-tanlovida jamoasi bilan II o'rinni, "Balli yigitlar" ko'rik-tanlovida I o'rinni egalladi.

"QVZ" jamoaviy turda II-ōrin "Shaxmat-Shashka" musobaqasida III-ōrin, "Zakovat" viloyat doirasida tashkil etilgan erkin kurash ōyinlarining sovrindori bo'ldi.

2017-yilda respublika doirasida bōlgan "Shunqorlar" musobaqasining jamoaviy holda II-ōrin, 2018-yilda kollejni a'lo baholarga tamomladi.

2019-yil Buxoro Davlat Tibbiyot insititutining Davolash ishi yōnalishiga to'lov-shartnoma asosida talabalikka tavsiya etildi. Hozirda insititutning 4-bosqich talabasi. Shu 4 yil mobaynida katta yutuqlarga erishdi. Jumladan, 2019 -2020 yil mobaynida respublika doirasida tashkil etilgan tanlovlarni g'olibiga aylandi. Sertifikat, faxriy yorliq, tashakkurnoma va diplomlarni qōlga kiritdi.

2020-yil "Respublika iqtidorli talaba yoshlar" klubi a'zosi, "She'riyat shaydolari" tanlovi tashakkurnomasi, "INTIL-2 Olimpiadasi" sertifikati sohibi, RITYK" Kreativ she'r" tanlovi tashakkurnomasi, "Khiso olimpiadasi" sertifikati sohibi, "Globalashuv davrida yoshlar migratsiyasi va uning ijtimoiy-siyosiy masalalari" xalqaro konferensiyasi sertifikati, "Parvoz Mega loyihasi" tashakkurnomasi sohibi bo'ldi. Bir qancha maqolar yozdi, bu maqolalar chet el jurnalarida chop etildi .

2021-yil "Respublika Yosh olimlar kengashi" a'zosi, BuxDTI "Zakovat" klubi a'zosi, "BuxDTI volontyorlari" jamoasi a'zosi, "Oltin Qanot" va "U-Report" volontyori. "QVZ va teatr" jamoasi a'zosi 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari xalqaro va respublika jurnallarida nashr etilgan. "Eng zukko kitobxon" tanlovida II ōrin, "Mard ōg'lon" tanlovida III ōrin, "Taland Shou" tanlovida I ōrin, "Kelajak bunyodkori" sertifikati, "Ijodimdan bir parcha" I ōrin diplom va tashakkurnoma, "Govtech prize" sertifikati, "World Health

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

organization" sertifikati, "Mirzo Ulugbek vorislari" tanlovi sertifikati, Angliyaning "Chevining Alphagram" a'zosi, "Yilning iqtidorli talabasi" nominatsiyasi sohibi, UNICEF sertifikati, "Digital incunator program" a'zosi, "Yosh kitobxon", "rassomchilik" tanlovlari qatnashchisi hisoblanadi.

2021-yil 14-15 dekabrda "SamDTI xalqaro olimpiadasida" patologik fiziologiyadan 3-örin sohibi, "Большество акварели Маскова - 2022" sertifikati sohibi bo'ldi.

2021-yil dekabr oyi butunjahon doirasida Dubayda tashkil etilgan Change world 100000 EU Grand sohibi va Rimda bōlib o'tadigan keyingi mavsum yutuqli taklifnomasini qōlga kiritgan. Shu bilan birga "Registon stipendiyasi" sovrindori, "Jahon matbuot erkinligi - OAV davlat va jamiyat hayotidagi rōli" xalqaro konferensiyasi sertifikatini oldi. 5 ta tayyor innovatsiya ishlab chiqdi. "L.Ron Hubbard's writers of the future online Workshop", "Liderlar jamoasi", 2021-yil "Registon ta'lim grand", "Gold team" jamoaviy holatdagi tanlov sertifikatlari sohibi bo'ldi. "Zakovat" intellektual respublika ochiq turnirida jamoaviy bahslarda faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Fantastik janrda yirik kitob ham yozdi.

2022-yil Őzbekiston Liberal demokratik partiyasi a'zosi, Janubiy Koreya "Yonsei" universitetining koreys tili sertifikati, Rossiya Nobel Fest "ЭВОЛЮЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯ" sertifikati, xalqaro "Climate Science 2022" bronza medali va sertifikati, "We are Together" xalqaro tanlovi sertifikati, "Millat umidi grand" sertifikati, "Registon IELTS Grand" sertifikati sohibi bo'ldi. "Energy Globe Awards" olimpiadasi qatnashchisi, Challenge brain qatnashchisi, Őzbekiston-Vengriya Start-up akseleratsiyasiya dasturi qatnashchisi, 18

haftalik Vengirya Inovatsiya Grandi sohibi, Tokiyoda tashkil etilgan maqolar tanlovida "My values" maqolasi bilan sertifikatni qōlga kiritgan. Jetpack Compose for Andoroid Developers course sertifikati sohibi, "The best essay 2022" sertifikati sohibi. "Yangi Őzbekiston saylovlari yoshlar nigohida" ilmiy-amaliy konferensiya sertifikati, "Xalqaro global ambassador olympiada" sertifikati sohibi bo'ldi. "Asia Youth international model united nations" xalqaro konferensiyasi qatnashchisi, "Yilning eng iqtidorli talabasi" nominatsiyasi sohibi, " Yil talabasi" qatnashchisi shuni ham aytib ōtish kerakki, respublika doirasida tibbiyot insitituti doirasida ōtkazilgan tanlovlar qatnashchisi hisoblanadi va hozirda a'lo baholarda ōqimoqda.

Zehniddin Raximovni turli xil yōnalishlarda ilgor, zehnli, tinib-tinchimas, mehnatsevar va yuksak vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'usini o'zida mujassamlashtirgan va yoshlar orasida targ'ibot qila oladigan hamda turli xil innovatsion g'oyalar yaratuvchi iqtidorli talaba sifatida mustaqil respublikamizni kelajak ravnaqi yo'lida mehnat qiladigan haqiqiy o'zbek o'g'loni sifatida ko'rishimiz mumkin.



Asqarova Xurshida Ekram qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti, Kimyo texnologiya fakulteti, Oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishining 2-bosqich talabasi.

Asqarova Xurshida Ekram qizi 2003-yilning 19-yanvarida Qoraqalpog'iston Respublikasini Shomanay tumanida tug'ilgan. Dastlab ushbu tumanda joylashgan 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olgan. So'ngra Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi 7-umumta'lim maktabida o'qishini davom ettirdi. Maktab davrlarida a'lo baholari va na'munali xulqi uchun ko'plab diplomlar bilan taqdirlangan, eng bilimdon o'quvchi nominatsiyasiga ega bo'lgan. Kimyo va fizika fanlaridan olimpiadalarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan.

2016-2017 o'quv yilida umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan "Kamalak bilimdonlari" ko'rik-tanlovining ta'lim muassasasi bosqichida faxrli 1-o'rinni egallagan. Yoshlar ittifoqida ham faoliyat yuritib, bir qancha faxrli diplomlarga ega bo'ldi.

Maktabni bitirib, 2019-yili Toshkent viloyati Chirchiq akademik litseyiga o'qishga kirdi. Litseyda ham kimyo fanidan olimpiadalarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan. So'ngra 2021-yili Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universitetining kimyo-texnologiya fakultetining oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishiga o'qishga kirdi.

2021-yil universitetda o'tkazilgan "Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi" mavzusida "Eng yaxshi insho" tanlovida 3-o'rinni egallagan.

2021-2022 yil universitet saytida faol boʻlib, bir qator videorolik, shular jumlasidan “Bayrogʻimiz-faxrimiz”, “Til-millatning ruxiy gʻazinasi”, “Armiya bilan xalq bir tan-u bir jon”, “Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash”, “Oʻzbekiston farzandlari-kelajak posbonlari”, “Gʻazal mulkning sultoni”, “Madhiyam-iftixorim”, “Zulfiyaxonim izdoshlari”, “Amir Temur bobomizning 686 yilligi”, “Qoraqalpogʻiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligining 29 yilligi”, “Alisher Navoiyning 581 yilligi”, “Zulfiya shoiraning ijodiga bir nazar”, “Ittifoq faoliyati”, “Yashil makon muhim 40 kun,” “Sizga ming taʼzim aziz ustozim” kabi maqolalari chop etilgan.

2022-yil Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universitetida “Muqaddasdir vatan bayrogʻi” nomli videorolik tanlovida 3-oʻrinni egalladi. “Respublikamiz bayrogʻini birga chizamiz” nomli tanlovida esa 1-oʻrinni egalladi.

2022-yil “International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education-2022”, “Published with Conferencea International Database”, “Hosted Online from Berlin, Germany on July 30th 2022” jurnalida “Dairy products” mavzusida maqolasi chiqdi.

2022-yil “American Journal of Pedagogical and Educational Research” jurnalida “Development and commodity evaluation of semi-smoked sausages using paste-like concentrates from amaranth and lupine seeds” mavzusida maqolasi nashr etildi.

2022-yil “In Volume 1, Issue 8 of International scientific journal of “Science and Innovation” jurnalida “Soap production technology” mavzusida maqolasi chiqdi.

2022-yil “Ilmiy tadqiqotning oʻrni: muammo va yechimlari” nomli koʻp tarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

konferensiya doirasidagi "Ilmiy tadqiqotchi" xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik tanlovida "Food safety" nomli maqolasini taqdim etgan.

2022-yil "Vital Annex : International Journal of Novel Research in Advanced Sciences" jurnalida "Feeding Procedure" nomli maqolasi chiqqan.

2022-yil yurtimizda faollik ko'rsatayotgan TOP-30 nafar ilmiy izlanuvchilarining erishgan yutuqlarini nashr etayotgan "O'zbekistonning eng yaxshi ilmiy izlanuvchilari" kitobining 1-tomi onlayn nashrida biografik to'plamida omadlilar safiga kirib, o'z faoliyatini keng ommalashtirgan.

Hozirgi kunda Xurshida "Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari fanidan" darslik kitob yozmoqda.



Ashurova Shaxnoza Ortiq qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali, pediatriya ishi fakultetining 1-bosqich talabasi.

Ashurova Shaxnoza Ortiq qizi 2004 -yil 24-iyulda Surxondaryo viloyatining Sherabod tumanida ishchilar oilasida tavallud topgan. Millati-o'zbek.

2010-2021 yillarda Termiz shahri 3-umumiy o'rta ta'lim maktabini a'lo baholar bilan muvaffaqiyatli tamomladi.

2022-yil Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filialining pediatriya yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. Hozirda 1-bosqich talabasi.

Shaxnoza o'zining tengdoshlari orasida odob axloqi, mehnatsevarligi, tirishqoqligi, tashkilotchiligi va ilmga bo'lgan ishtiyoqi bilan ajralib turadi. U nafaqat universitet, balki respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan tadbirlar va tanlovlarda ham muntazam faol ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda. Jumladan, 2014-yili gimnastika sporti bo'yicha 2003-2004 yillar o'rtasida viloyat musobaqasida “Latofatli sportchi” nominasiyasi bilan taqdirlangan.

2015-yilda “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiy festivalining Termiz shahar va viloyat bosqichida faxrli 1-o'rinni egallagan.

2015-yilda “Xalq yo'li” gazetasida “Istiqlol farzandlari” nomli she'ri chop etilgan.

2018-yilda “Ma'naviyat gulshani” gazetasida “Bizning maktab” she'ri chop etilgan.

2020-yilda kimyo fanidan onlayn darsda faol ishtiroki uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2021-yilda Hindistondagi ilmiy jurnalda “Davlat tibbiy xizmati tashkilotida pullik tibbiy yordam” mavzusida maqolasi chop etilgan. .

2021-yilda “Sanoat korxonalarida COVID-2019 ning oldini olishda O‘zbekiston va xorij tajribalari” nomli maqolasi bilan Germaniya konferensiyasida ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlangan.

2021-yilda International scientific-practical conference the 21 century skills for professional activity” jurnalida “Davlat tibbiyot tashkiloti tizimining dori-darmon ta‘minotini tajribasini oshirish” nomli maqolasi chop etilgan.

2021-yilda Amerikada chiqadigan ilmiy jurnalda “Bemorning yurak qon-tomir patologiyasini o‘rganish usullari” nomli maqolasi chop etilgan.

2021-yilda Rossiya ilmiy jurnalida “Biomedportanometrik ko‘rsatkichlar miya va yuz bosh suyagining turli parametrlari bilan tana vaznining anormalliklari ortidagi talabalar tavsifi” nomli maqolasi chop etilgan.

2021-yilda “Centrial Asian research journal for interdisciplinary studies” jurnalida “Hayotning birinchi yilida tug‘ma nuqsonlarning erta klinik belgilarni funktsional namoyon bo‘lishi” nomli maqolasi chop etilgan.

2021-yilda “Eurasian journal of medical and natural sciences” jurnalida “Kimyoviy tahlil COVID-19” nomli maqolasi chop etilgan.

2021-yilda “Zamonaviy dunyoda tabbiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli 7-son ilmiy-amaliy, masofaviy, onlayn konferensiyada “Shaxsiy gigiyena va sog‘liqni saqlash

qoidalariga rioya qilish” nomli maqolasi bilan ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlangan.

2022-yilda “Parvoz Yoshlar” forumining 3- mavsumida faol ishtirok etganligi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2022-yilda 22-fevral kuni “Ilmiy tadqiqotlar sammiti”da faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2022-yilda “World Student Summit” da faol ishtiroki uchun sertifikat va tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2022-yilda “Parvoz Yoshlar Forumi”da tibbiyot yo’nalishida faol ishtirok etib, sertifikat, tashakkurnoma va tavsiyanoma bilan taqdirlangan.

2022-yilda MDH xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik-tanlovining 4-turida ishtirok etib “Tashabbuskor islohotchi ” esdalik nishoni, diplom va tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2022-yilda “Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filialida “O’zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostida o’tkazilgan tanlovda she’r yo’nalishi bo’yicha 2-o’rinni egallagan.

2022-yil 14-oktabr Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “2-Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi” da faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2023-yil 13- yanvarda “Xalqaro ilmiy forum” da tibbiyot yo’nalishi bilan ishtirok etdi va “ Ilm-fan iftixori” esdalik nishoni,sertifikat bilan taqdirlangan.



Nurqosimova Nilufar Qaxramonovna

**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Davolash ishi fakulteti, III-bosqich
talabasi.**

Nurqosimova Nilufar Qaxramonovna 2001-yil 8-dekabr kuni Samarqand viloyati, Payariq tumani, Gulzor mahallasida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

2008-yilda Payariq tumanidagi 41-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 2015-yilda ona tili va adabiyoti fanidan bo'lib o'tgan "Bilimlar bellashuvi"da qatnashdi, 2017-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida biologiya, kimyo, ona tili va adabiyot fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 2017-yilda Payariq tibbiyot kollejining Hamshiralik ishi yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. O'qish davri davomida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi. 2020-yilda kollejni a'lo baholarga tamomladi.

2020-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot institutining Davolash ishi yo'nalishiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. Hozirda universitetning 3-bosqich talabasi. Nilufar Nurqosimova universitetning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, o'nga yaqin ilmiy maqola va tezislari xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan. Bularga Turkiyada chop etilgan jurnalda "Podagra kasalligi va uni davolash",

Chexiyada chop etilgan jurnalda “Nekroz”, Rossiyada “Биохимический механизм атеросклероза”, “Galaxy international interdisciplinary research journal”da “Myocardial infarction” maqolalari chop etildi.

“Pedagog” respublika jurnali 3-sonidan “Albinizm”, “Poland international scientific online conference. Scientific aspects and trends in the field of scientific research”dan “Anemiya causes, symptoms, levels and language”, “Netherlands Intellectual education technological solutions and innovative digital tools”dan “Bronxial astma va uning etiologiyasi, patogenezi, klinik manzarasi, diagnostic tekshiruvlari, kechishi, asoratlari va uni davolash” maqolalari o’rin oldi.

2021-yil universitet talabalari o’rtasida o’tkazilgan “Rektor kubogi” sport musobaqasida volleybol sport turi bo’yicha qizlar jamoasida III-o’rinni egalladi.

2022-yili “Samarqand-2020” Samarqand Davlat universiteti tashabbusi bilan o’tkazilgan xalqaro olimpiadasi ishtirokchisi bo’ldi.

2022-yili “Abu Ali Ibn Sino izdoshlari, III renessans” Buxoro Davlat Tibbiyot instituti tashabbusi bilan o’tkazilgan xalqaro olimpiadada online qatnashib “За лучшее решение ситуационной задачи” nominatsiyasi sohibi bo’ldi.

20 dan ortiq xalqaro va respublika forumlar delegati, xalqaro va respublika sertifikatlar sohibi, jumladan, 2022-yil 18-19 noyabr kuni universitetimiz tashabbusi bilan o’tkazilgan O'zbekistondagi tibbiyot o'quv yurti talabalari I forumida faol ishtirok etdi.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi tashabbusi bilan o'tkazilgan "Гастроэнтерология и гепатология достижения, проблемы, перспективы" online forumi, “Kelajak

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

bunyodkorlari" forumi, "Xalqaro renessans" forumi, "Zamon" yoshlar forumi, "Talented youth" forumi, "Yosh innovatorlar" forumlarining faol ishtirokchisi bo'ldi.

Nilufarning ta'lim sohasidagi erishgan yutuqlari, samarali faoliyati hamda ilm-fan rivoji uchun qo'shayotgan hissasini ibrat qilsak arziydi.



Xudayqo'lova Madina Baxtiyor qizi

“TIQXMMI”MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining 2-bosqich talabasi.

Xudayqo'lova Madina Baxtiyor qizi 2003-yil 29-mart kuni Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumani, “O'rikzor” mahallasida ishchi oilasida tug'ilgan.

2010-yilda Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumanining 29-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi.

O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. Fizika fanidan 2016-yildan boshlab, 2020- yilgacha bo'lib o'tgan “Bilimlar bellashuvi” va fan olimpiadasi tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2021-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida matematika, geografiya, informatika, fizika, tarix, ona tili va adabiyot fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirilganligi sababli 2021-yilda “TIQXMMI”MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutiga geodeziya va geoinformatika yo'nalishiga to'lov-shartnoma asosida talabalikka tavsiya etildi. Madina institutning ilmiy to'garaklarida va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda.

Madina Xudayqo'lova o'qish davomida o'zining bilimga chanqoqligi, tashabbuskorligi, tashkilotchiligi, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajara olishi bilan guruh talabalaridan ajralib turadi. U nafaqat guruhdagi talabalarni

o'z ortidan ergashtiradi, undan tashqari institutdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol targ'ibotchi, barcha talabachilarni faol ishtirok etishga undaydi. Fanlardan olayotgan nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga va amaliyotda qo'llashga harakat qiladi.

Madina Xudayqo'lova har yili o'tkaziladigan respublika konferensiyalarida va yoshlar festivallarida muntazam ishtirok etib kelmoqda. O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qashqadaryo viloyat kengashi tomonidan yoshlarni iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun o'tkazib kelinayotgan madaniy-ma'rifiy va sport-sog'lomlashtirish tadbirlari shuningdek, turli loyiha, aksiya va festivallarni tashkil etishda tashabbuskorlik ko'rsatib kelmoqda.

Madina O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi va "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutida va respublika miqyosida tanlovlarda, konferensiya, forumlarda qatnashib, quyidagi yutuqlarga erishgan.

Soha bo'yicha respublika hamda oliy ta'lim muassasalari va O'rta Osiyo davlatlari miqyosida o'tkaziladigan ilmiy konferensiyalar, tanlovlarda o'z maqolalari bilan qatnashib kelmoqda.

"TIQXMMI" MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutida o'tkazilgan "Navro'z sayli" tadbirida "Sahna bezagi" nominatsiyasi bo'yicha Farg'ona viloyati jamoasi tarkibida ishtirok etib, 1-darajali diplom bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi "Elegant nur ziyo plus" nodavlat ta'lim muassasini qizil diplom bilan taqdirlandi.

2022-yilning 30-iyun kuni "TIQXMMI" MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti tomonidan o'zining

namunali xulqi, aʼlo oʻqishi, instituti jamoat ishlarida faol ishtiroki uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2022-yilning 30-sentabr oyida “Образование наука и инновационные идеи в мире” xalqaro jurnalida “Taxeometrik syomka” maqolasi chop etildi va sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yilning 2-oktabr oyida “Образование наука и инновационные идеи в мире” xalqaro jurnalida “Ozon qatlamining yemirilishi” maqolasi chop etildi va sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yilning 15-oktabr oyida “Образование наука и инновационные идеи в мире” xalqaro jurnalida “Ijod naqshi” maqolasi chop etildi va sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yilning 25-noyabr oyida “Yil talabasi-2022”da “Yilning eng faol ijodkor talabasi” nominatsiyasi uchun nomzod sifatida tavsiya etildi va tashakkurnoma bilan taqdirlandi.



Ikromova Ominaxon Elmurod qizi

**Andijon Davlat Pedagogika instituti,
Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi talabasi.**

Ikromova Ominaxon Elmurod qizi 2003-yil 2-martda Andijon tumani, Xortum MFY, Jevachi mahallasida tug'ilgan. 2010-yil Andijon tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilingan. Maktab davrida o'zining bilimiga chanqoqligi, o'tkir zehni sabab 2-sinfdan boshlab 4-sinfgacha fanlarni yaxshi o'zlashtirgani uchun ko'plab maqtovlarga sazovor bo'lgan. 2013-yilning sentabr oyidan ta'limni shu tumanning 54-umumta'lim maktabida davom ettirdi va 2021-yil shu maktabning 11-sinfini a'lo baholar bilan tamomladi. Bundan tashqari 2016-yil sentabr oyida o'zining san'atga bo'lgan qiziquvchanligi sabab Andijon tumanidagi 16-sonli bolalar musiqa va san'at maktabining dutor yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilindi va 2020-yili shu maktabning dutor mutaxassisligi bo'yicha o'qishni tamomladi. Bu davr ichida juda ko'p tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egalladi hamda dutorchi qizlar ansamblida qatnashib kelgan.

Shundan boshlab Ominaxon Ikromova ilmiy ishlarini boshlaydi va talaygina ilmiy va ijodiy ishlarini yozadi, bu ishlarining ko'pi 2022-yil turli nufuzli jurnallarda nashrdan chiqqan. Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Turon fanlar akademiyasi akademigi Muhabbat Isayeva tomonidan yurtimizning fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at, sport sohalari bo'yicha yurtimizni rivojlantirishda o'z hissasini qo'shayotgan iste'dodli, izlanuvchan, bilimli,

yuksak ma'naviyatli hamda tashabbuskor yoshlarni keng ommaga tanishtirish, ijodiy ishlarini, iste'dodlarini keng auditoriyaga yetkazish maqsadida eng iqtidorli va izlanuvchan yoshlarni xalqimizga tanishtirish, tengdoshlariga o'rnak qilib ko'rsatish maqsadida "O'zbekim iftixorlari" nomli kitobidan O.Ikromovanning avtobiografiyasi ham maqola o'rin olgan.

Hozirda u Andijon Davlat Pedagogika institutining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqichida tahsil olmoqda. Ominaxon Ikromova 2022-yil 25-sentabr oyida "Tashabbuskor islohotchi" Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik tanlovining ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Hozirda 20 dan ortiq maqola va tezislar muallifi. Bundan tashqari xalqaro o'nlab forumlar ishtirokchisi. Hozirda O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi a'zosi. "Oltin qanot" volontyorlar tashkiloti, "Quyosh nuri" hamda "Umid nuri" erkin volontyorlar harakati a'zosi. "Yorqin hayotga start" klubi motivatori.

Ominaxon 2022-yil "Birgalikda yuksalamiz" loyihasi a'zosidir. Bu loyihada ishtirokchilar salohiyati, qobiliyati, iste'dodiga ko'ra saralanadi va kitobxonlik ruhini ko'tarib beradigan loyiha hisoblanadi. 2022-yil iyul oyida o'zining ilmiy ishini "Yangi O'zbekiston" tanloviga ham yuborgan. Bugungi kunda u o'zining ilmiy ishlarini davom ettirmoqda va turli stipendiyalarni olishga harakat qilmoqda. 2022-yil 17-noyabrda "Eng yaxshi talaba" respublika tanlovining institut bosqichida faxrli 1-o'rinni egallab maxsus diplom bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, Amerikaning Amazon nashrida chop etilgan antologiyada O. Ikromovanning

maqolasi hamda o'zining avtobiografiyasi nashrdan chiqqan va u hozirda 26 ta davlatda sotuvda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan "Ilm-fan iftixori" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Andijon Davlat Pedagogika institutida o'tkazilgan radio va teleboshlovchilik bo'yicha o'tkazilgan kastingdan o'tgan va hozirda o'z ustida ishlamoqda.

Bundan tashqari Ominaxon sport sohasiga ham qiziqadi. Ayniqsa, voleybol va basketboll o'yinlarini xush ko'radi. Ko'pincha bo'sh vaqtlarida o'ynab turadi va IT sohasiga ham qiziqishi juda baland. Bu sohani mukammal o'rganish uchun turli onlayn kurslarda o'qib bilimni oshirib kelmoqda. Hozirda notiqlik qobiliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi tomonidan tashkil qilingan notiqlik kurslarida o'qib, o'z notiqlik mahoratini oshirmoqda va hamda ingliz tilini o'rganmoqda. Uning kelajakdagi orzu maqsadlaridan biri bakalavr bosqichini tugatib, magistratura bosqichini chet elda davom ettirish va bu bilan o'z bilim tajribasini yanada oshirib, kelajak yoshlarga chet el tajribasini olib kirish va ta'lim tizimiga o'zgartirish kiritib, o'quvchi yoshlarni bilim salohiyatini yanada oshirishdan iborat.



Ziyodullayeva Ezoza Kamoliddin qizi

**Termiz Davlat Pedagogika Instituti,
Boshlang'ich ta'lim fakulteti, Boshlangich
ta'lim yo'nalishining 2-kurs talabasi.**

Ziyodullayeva Ezoza Kamoliddin qizi 2003-yil 13-iyul kuni Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani, Obod MFYda tadbirkor oilasida tug'ilgan.

2010-yilda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida joylashgan 38-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi. 2021-yilda maktabni a'lo baholar bilan tugatdi. 2021-yili Termiz Davlat Pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga to'lov-shartnoma asosida talabalikka tavsiya etildi. O'qish paytida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida, institutning ilmiy to'garaklarida hamda talabalar va yosh olimlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Jumladan, 2021-yildan boshlab „Mohir qo'llar“ tikuvchiligidan to'garak o'ta boshladi.

2022-yil malakaviy o'quv amaliyoti davomida ochiq darslarda tashabbuskorligi, tadbirlardagi faolligi hamda namunali xulqi uchun maktab ma'muriyati tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

2022-yilda O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Surxondaryo viloyati Kengashi “Yoshlar qanoti” tashabbusi bilan “O'zbek tilim-o'zligim” shiori ostida o'tkazilgan maqolalar tanlovida faol ishtiroki uchun sertifikat hamda kitoblar bilan taqdirlandi.

2022-yilda O‘zbekiston „Milliy tiklanish“ demokratik partiyasining a‘zosi bo‘ldi.

Joriy yilning 30-noyabridan 5-dekabrgacha barcha hududlarda o‘tkazilgan “Volontyorlik haftaligi” doirasida tashkil etilgan o‘quv seminarida faol ishtirok etgani uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

Boshlang‘ich ta‘lim fakultetida “Zakovat” intellektual o‘yinida faxrli 1-o‘rinni egallagani uchun “Golden” jamoasi diplom bilan taqdirlandi.

“Zakovat” intellektual o‘yini saralash bosqichida yuqori natija ko‘rsatib, 2-o‘rinni egallagani uchun “Golden” jamoasi a‘zolari taqdirlandi.

2022-yilning dekabr oyida bo‘lib o‘tgan “Upward Growth” seminarlar forumi doirasidagi online treninglarda faol ishtirok etib, yurtimiz yoshlariga lider sifatida o‘rnak bo‘lganligi uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 8-dekabr “Konstitutsiya qabul qilingan kun” munosabati bilan “Konstitutsiya - kelajagimiz poydevori” nomli tadbirda faol qatnashib, faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

2022-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Global dunyoda ilm-fan va ta‘limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga qatnashib, sertifikat va sovg‘alar bilan taqdirlandi.

2022-yil Yoshlar ishlari agentligi Termiz shahar bo‘limi hamda “Mehrli qo‘llar” volontyorlik guruhi hamkorligida tashkil etilgan “Xazina qayerda?” musobaqasida faol ishtirok etgani uchun pedagoglar jamoasi sertifikat bilan taqdirlanadi.

2022-yilda o‘zbek tilining 23 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan maqolalar tanlovida faol ishtirok etib, faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Bundan tashqari bir qancha maqolalari chop etildi.

Jumladan, 2022 yilda “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik tarbiya asosida rivojlantirish” nomli maqolasi “Мугаллим хем узликсиз билимлендириу” ilmiy-metodik jurnalida chop etildi.

“Boshlang‘ich sinflarda darslarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish” mavzusidagi maqolasi respublika ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to‘plamida chop etildi.



Yaxyopo'latova Nilufarxon Botirjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Ingliz tili 3-fakultetining 3-bosqich talabasi.

Yaxyopo'latova Nilufarxon Botirjon qizi 2001-yil 1-aprel sanasida Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanida tavallud topgan.

2007-yil Namangna viloyati, Uchqo'rg'on tumani 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. Maktab o'quv davri mobaynida barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirishi, namunali xulqi, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol boshlovchi, ssenariy muallifi, tashkilotchiligi, respublika, viloyat, tuman miqyosidagi ko'plab tanlovlar, ingliz tili va ona tililari fanlaridan fan olimpiadalaridagi faol ishtiroki bilan tengdoshlariga namuna bo'ldi. “Uchqo'rg'on g'unchalari” nomli tuman gazetasida “Baxtimizning qomusi”, “Muqaddas-O'zbekistonim” she'rlari, “Yaxshi maqsad va intilish” publisistik maqolasi kabi bir qator ijodiy ishlari chop etilgan. “Badiiy nafosat bilimdonlari” ko'rik-tanlovining jamoaviy “Qo'g'irchoq teatri” yo'nalishi bo'yicha tuman, viloyat bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Samarqand shahrida bo'lib o'tgan yakuniy viloyat bosqichida faol ishtirok etdi. 2016-yil maktabni a'lo baholarga imtiyozli shahodatnoma bilan muvaffaqiyati tamomladi.

2016-yil Uchqo'rg'on Pedagogika kolleji “Kompyuter injineringi texnigi” yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. Kollejda o'qish davomida ko'plab tadbirlar, tanlovlarda faol ishtirok etdi. “Yoshlar ittifoqi”ning Uchqo'rg'on pedagogika

kolleji bosh yetakchisi sifatida ko'plab iqtidorli o'quvchilarning iqtidorlarini yuzaga chiqarishga ko'maklashdi hamda kollej radiosini bosh koordinatori sifatida turli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirdi. Kollej davrida barcha fanlardan a'lo baholarga o'qish bilan bir qatorda, ko'plab tanlovlarda, jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi.

Namangan viloyat hokimligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, viloyat ma'naviyat va ma'rifat markazlari tomonidan tashkil etilgan “Mahalla – mening taqdirimda” ko'rik-tanlovi g'olibi.

Yoshlar Ittifoqi tomonidan o'tkazilgan, “Mening birinchi ijodiy ishim” tanlovining “Maqolalar” va “Nazm” har ikkala yo'nalishlari bo'yicha faxrli 1-o'rin sohibasi bo'ldi.

“Yosh kitobxon” tanlovining tuman g'olibi va viloyat bosqichi faol ishtirokchisi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan “Eng iste'dodli kitobxon” ko'rik-tanlovining tuman bosqichi g'olibi va yakuniy viloyat bosqichida faxrli II o'rin sohibasi bo'ldi.

Namangan viloyat hokimligi tomonidan tashkil etilgan “O'zbekiston - umumiy uyimiz” shiori ostidagi tanlovda insholar yo'nalishi bo'yicha faxrli 2-o'rinni egalladi.

Xalqaro toifadagi International English Language Testing System (IELTS 6) sertifikat sohibasi.

Kollejni “Kompyuter injineringi texnigi” yo'nalishi bo'yicha barcha bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallab, qizil diplom bilan tamomladi.

2020-yil O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. Hozir kunda ingliz tili 3-fakulteti 3-bosqich talabasi va shu bilan birga O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining Ilmiy-

innovatsion ishlanmalarni tijoratashtirish bo'limida muhandis sifatida ham faoliyat yuritib kelmoqda. Universtitetda barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirib, chet tillarini jumladan, ingliz, nemis, koreys tillarini o'rganib kelmoqda. Jamoat ishlarida, respublika va xalqaro miqyosdagi turli ilmiy-amaliy anjumanlarda, tanlovlar, ma'naviy-ma'rifiy loyihalardagi faol ishtiroki va namunali xulqi bilan tengdoshlariga na'muna bo'lib kelmoqda.

10 ga yaqin tezis va maqolalar, 40 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosdagi sertifikatlar sohibasi. O'qishdan, izlanishdan aslo charchamaydi, doimiy ravishda xalqaro kurslarda o'qib, bilimlarini oshirib o'z ustida tinimsiz ishlab kelmoqda.

Quyida Nilufarxon Yaxyopo'latova tahsil olgan va muvaffaqiyatli tamomlagan bir qator respublika va xalqaro miqiyosdagi kurslardan bir qismi aks etgan:

HP Foundation tomonidan tashkil etilgan "Effective Leadership" kursi;

Global Nutrition Cluster and UNICEF Foundation tomonidan tashkil etilgan "Developing an Information-Sharing and Data Confidentiality Policy" kursi;

HP Foundation tomonidan tashkil etilgan "Inventory Management" kursi;

Save the Children & CSOD Foundation tomonidan tashkil etilgan "Personal Security Awareness" kursi;

The OPEN University tomonidan tashkil etilgan "Assessment in secondary modern foreign languages" tayyorlov kursi;

ETS Global tomonidan tashkil etilgan "The TOEFL ITP Level 1 Preparation Course for Teachers STEP 4: Speaking" vebinari;

Asian Development Bank Institute (ADBI Institute) tomonidan tashkil etilgan “Rethinking Higher Education Financing and Policies in a Changing World” kursi;

Toshkentdagi Amerika elchixonasi (American center in Tashkent) tomonidan tashkil etilgan 4 haftalik “O‘zbekistonda fuqarolik jurnalistikasini rivojlantirish” kursi;

Toshkentdagi Amerika elchixonasi (American center in Tashkent) tomonidan tashkil etilgan 15 haftalik “Iqlim savodxonligi” kursi;

“IT School Namangan” filialida “Kompyuter savodxonligi” yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oldi;

2022-yil mart oyida bo‘lib o‘tgan “International investment forum. Tashkent 2022” forumida volontyor tarjimon sifatida faol ishtirok etdi;

Toshkentd shahridagi “Korean education center” o‘quv maktabiga topshirgan arizasi muvaffaqiyatli qabul qilinib, 3 oy mobaynida koreys tilini bepul o‘rganish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Respublika Yosh maslahatchilar kengashi tomonidan tashkil etilgan “Ta‘lim granti” loyihasi doirasida nemis tili bo‘yicha 4 oylik bepul ta‘lim granti sohibasi. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tomonidan talaba-yoshlar orasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish hamda kitobxon yoshlarni rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan “Birga kitob o‘qiymiz” loyihasining 4-sonida O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub, “Ikki eshik orasi” romani bilan faol ishtirok etdi

Ta‘kidlab o‘tganimizdek, Nilufarxon chet tillariga qiziqishi baland va hozirda 4 tilda ingliz, rus, nemis, koreys tillarida muloqot qila oladi.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

Olimlar, yosh tadqiqotchilar, iqtidorli talabalar uchun mo'ljallangan New York shahrida bo'lib o'tadigan “Change the World Model United Nations – 2023” xalqaro ilmiy forumida ishtirok etish harajatlarini qoplash uchun ajratilgan 1 450.00 EUR miqdoridagi grant sohibasi bo'ldi.

The 7th International Student Symposium: «Celebrating Research & Creative Endeavor» 7-xalqaro talabalar simpoziumida faol ishtirok etdi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari doirasida o'tkaziladigan tanlovlarda ham doimo faol. “Vatan mehri yuragimda” ko'rik tanlovining universitet bosqichida faxrli 2-o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan “Ilm-fan iftixori” ko'krak nishoni va maxsus guvohnomasi bilan taqdirlangan.



Ergashova Shahrizoda Elbek qizi

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, filologiya va tillarni o‘qitish ingliz tili fakulteti, III bosqich talabasi.

Ergashova Shahrizoda Elbek qizi 2002-yil 22-iyun kuni Navoiy viloyati, Karmana tumanida ishchilar oilasida tug‘ilgan.

2009-yilda Navoiy viloyati, Karmana tumanining 21-umumta‘lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O‘quv davri davomida o‘tkazilgan madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o‘rnak bo‘ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 2012-yilda ingliz tili fanidan bo‘lib o‘tgan “Bilimlar bellashuvi”da tuman bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. 2014-2017 yillar oralig‘ida maktab, tuman va shahar miqyosida o‘tkazilgan shaxmat musobaqalarida ketma-ket faxrli 1-o‘rinni qo‘ldan boy bermay keldi. 2017-yilda maktab ma‘muriyati Ergashova Shahrizodani „Maktabning eng aqlli va tartibli o‘quvchisi“ deb topdi va unga bergan tarbiyasi uchun ota-onasini tashakkurnoma bilan taqdirladi. 2018-yilda maktabni a‘lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida ingliz tili, ona tili va adabiyot fanlarini a‘lo baholarga o‘zlashtirgani sababli 2018-yilda Navoiy davlat konchilik institutiga qarashli 2-akademik litseyiga, gumanitar fanlar yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilindi. O‘qish davri davomida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo‘ldi.

Jumladan, “Litseyning eng a‘lochi talabasi” nominatsiyasi g‘olibi, “Shekspir ingliz tili adabiyotining

yulduzi” ko’rik-tanlovida jamoasi bilan faxrli I o’rinni, ingliz tili fan olimpiadasida faxrli II o’rinni, “Eng yaxshi suxandon litsey talabasi” ko’rik-tanlovida II o’rinni egalladi.

Ingliz tilini bilish bilim darajasini aniqlash bo’yicha o’tkazilgan milliy ingliz tili imtihonidan B1 darajani qo’lga kiritdi. (CEFR B1)

Ingliz tilini bilish bilim darajasini aniqlash bo’yicha o’tkazilgan xalqaro ingliz tili imtihonidan B2 darajani qo’lga kiritdi. (IELTS 6.0)

2020-yilda litseyni a’lo baholarga tamomladi va Navoiy davlat konchilik institutiga qarashli 2-akademik litseyining direktori Feruza Tatjiddinovaning maxsus tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

2020-yil O’zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti filologiya va tillarni o’qitish ingliz tili fakultetiga talabalikka tavsiya etildi. Hozirda universitetning 3-bosqich talabasi. Shahrizoda Ergashova universitetning ilmiy to’garaklarida, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida bundan tashqari, universitetdan tashqari o’tkaziladigan tanlov, forum va konferensiyalarda faol qatnashib kelmoqda.

Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan “Ibrat tillar oromgohi”da tashkil etilgan ingliz tiliga ixtisoslashgan 2-mavsumda faol ishtirok etgani uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

“Asia International Model United Nations”da volontyor qatnashish uchun tavsiyanomani qo’lga kiritdi.

“Climate Science Olympiad-2022”da yarim finalga qatnashish uchun sertifikatni qo’lga kiritdi.

10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari ilmiy rahbari filologiya va tillarni o’qitish fakulteti dekani Sevara Ziyayeva

bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan xalqaro va respublika jurnallarida nashr etilgan.

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetida 2022-yil 31-oktabrda bo'lib o'tgan “Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida, “Soyabon” ijtimoiy loyihasida eng faol qatnashgan volontyorlik ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

Samarqand viloyatida o'tkazilgan “Ilmiy tadqiqotning o'rne: muammo va yechimlari” nomli ko'p tarmoqli xalqaro ilmiy amaliy konferensiya doirasidagi “Ilmiy tadqiqotchi” xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik-tanlovida o'z maqolasi bilan qatnashib, esdalik ko'krak nishoni, 2022-o'quv yilida “Yangi O'zbekistonni o'zimiz, o'z qo'llarimiz bilan bunyod etamiz!” shiori ostida o'tkazilgan insholar tanlovida universitet bosqichida faxrli II o'rinni egallab, shahar bosqichiga yo'llanma, 20 dan ortiq xalqaro va respublika forumlar delegati, xalqaro va respublika sertifikatlar sohibasiga aylandi.

Shahrizoda Ergashovaning faoliyati davomida o'zining xalqparvarligi, adolatparvarligi, fidoyiligi, tashkilotchiligi, tirishqoqligi, talabchanligi, o'ziga bildirilgan ishonch va ma'suliyatni oqlashi, masalaga chuqur va tahliliy yondashishi, o'z ustida tinmay ishlashi, kreativligi, boshqaruvchanligi bilan Toshkent Davlat Jahon tillari universitetida hurmatga sazovor.



Isheryakova Joanna Rinatovna

Buxoro Davlat Universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi, 2-bosqich talabasi.

Isheryakova Joanna Rinatovna 2004-yil 26-yanvarda Rossiyaning Astraxan tumanida tug'ilgan. 2010-yil Buxoro viloyati Romitan tumanidagi 3-maktabning 1-sinfiga qabul qilingan. Maktabda o'qib yurgan davrida bilimga ishtiyoqi tufayli bilimdon bo'lib, 11-sinfni a'lo baholarga tugatdi. O'qish davrida u doimo ko'plab tanlovlarda qatnashgan, ko'plab sovrinlar bilan taqdirlangan. Masalan, 2021-yilgi rus tili olimpiadasida 1-o'rin, insho, she'r yozish bo'yicha tanlovlarda faol ishtirok etgan va doimo yutuqlarni qo'lga kiritgan.

Joanna dastlab Gersen nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga grant asosida qabul qilindi. Shuningdek, u Moskva Akademiyasining talabasi bo'ldi. Shu universitetlarga o'qishga kirganiga qaramasdan, u O'zbekistonda o'qishni tanladi va shu yerda talaba bo'ldi.

2021-yilda Joanna BuxDU gid-tur va tarjimonlik faoliyatiga Chet tillari fakultetiga qabul qilindi. Shu paytdan boshlab Joanna o'z ilmiy ishini boshladi, u ko'p izlandi, o'z ustida ko'p ishladi.

1-kursni a'lo baholar bilan tugatdi, ko'plab maqolalar yozdi, “Jadidlar va ularning Turkiston o'lkasida yangi usul maktablari vujudga kelishiga qo'shgan ulkan hissasi” nomli maqolalaridan biri xalqaro antologiyada chop etildi, bu katta muvaffaqiyat edi, chunki bu antologiya 26 davlatda sotuvga qo'yildi. 8-oktyabr kuni “Renessans davri-ilmiy-tadqiqotlar

bilimi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. “Yil talabasi-2022” tanlovida g‘olib bo‘ldi, “O‘z sohasining eng bilimdon talabasi” nominatsiyasida 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Bundan tashqari, “Kelajak istiqbollari” xalqaro ingliz tili olimpiadasida birinchi o‘rinni egalladi.

U hozir ikkinchi bosqich talabasi, lekin u o‘qishni boshlaganidan beri bir qator muhim yutuqlarga erishdi. Uning 20 dan ortiq ilmiy maqolalari nufuzli xorijiy va milliy jurnallarda chop etilgan. Indoneziyada bo‘lib o‘tgan “Eng yaxshi ilmiy tadqiqotchi-2022” xalqaro tanlovida 3-o‘rinni egalladi. Shuningdek, u Hindistonning «Inson huquqlari va insonparvarlik milliy federatsiyasi» deb nomlangan xalqaro tashkiloti a‘zosi.

Biroq, uning ilmiy faoliyati bu bilan tugamaydi, u ko‘plab tanlovlarda ishtirok etib, hikoya va she‘rlar yozmoqda. Uning she‘rlari Amerika va Germaniyada ham xalqaro antologiyalarda nashr etilgan. Uning “Va onaning yuragi...” she‘rlaridan biri Germaniyaning “Raven Cage” xalqaro jurnalida chop etish uchun berilgan.

Joannaning birinchi kitobi «Yulduzlarga sayohat» ertagining rus tilidan ingliz tiliga tarjimasi «Just Fiction Edition» va «Notion Press Internet Store» kabi xalqaro jurnallarda nashr etilgan va Moldova Respublikasi, Germaniya, Amerika va shuningdek, Hindistonda sotuvga chiqarilgan. U B2 darajasida Cefr sertifikatini (Multilevel) oldi. Uning yutuqlari ro‘yxati uzun. Bugungi kunda u o‘zining ilmiy ishlarini davom ettirmoqda va turli stipendiyalarni olishga harakat qiladi. Uning orzularidan biri almashinuv dasturida g‘olib chiqish va Germaniyada o‘qish.

Bundan tashqari, chet tillarini o‘rganish va tarjima faoliyatiga ham qiziqadi. Hozirda u mustaqil ravishda

maqola va hikoyalarni tarjima qilishga harakat qilmoqda. Shuningdek, u ingliz va o'zbek tillarda she'rlar yozadi va u hozirgi kunda nemis tilini o'rganmoqda. U 5 tilda bermalol so'zlasha oladi. Uning istiqboldagi asosiy maqsadlaridan biri bakalavriatni yakunlab, Navoiy davlat stipendiyasi, Zulfiya mukofotini qo'lga kiritish va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida magistraturada o'qishni davom ettirishdir. Shuningdek, u IELTS sertifikatini eng yuqori ball bilan muvaffaqiyatli topshirib, chet elda o'qishni davom ettirmoqchi. Bu bilan bo'lajak yoshlarga xorij tajribasini yetkazish, ta'lim tizimiga o'zgartirishlar kiritish orqali talabalarning bilim salohiyatini yanada oshirish hamda mamlakatimiz uchun zarur insonlarni yetib chiqishiga ko'maklashishdir.



Yo'ldosheva Shahnoza O'raljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, 3-bosqich talabasi.

Yo'ldosheva Shahnoza O'raljon qizi 2002-yilning 29-iyun kuni Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi Guliston MFY da ziyolilar oilasida tug'ilgan.

2009-yilda G'uzor tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. 2012-2016 yillarda fan olimpiadalarida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Boshlang'ich sinfni ushbu maktabda tamomlab, 5-sinfdan aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan 68-sonli IDUMga qabul qilindi. O'qish davri mobaynida o'zining zukkoligi, aql-zakovatini namoyon qilgan holda faol va iqtidorli yoshlar qatoridan o'rin oldi. Turli ko'rik-tanlov va fan olimpiadalarida faol ishtirok etdi. Jumladan, 2018-yilda “Huquq bilimdonlari” tanlovida 1-o'rinni egalladi. “Yosh kitobxon” nomli insholar tanlovining respublika bosqichi sovrindori, 2018-2020-yillarda o'tkazilgan fan olimpiadalarida II va III o'rinlarni qo'lga kiritgan.

2019-2020 yillarda “XXI asr - intellektual avlod asri” shiori ostida o'tkazilgan litsey va maktab o'quvchilari uchun tashkil etilgan “Universitet olimpiadasi”da faxrli II va III o'rinni qo'lga kiritgan.

2020-yilda “Ona tilim-millatim ruhi” viloyat insholar tanlovining 1-o'rin sovrindori.

2020-yilda “Qizlar olimpiada”sida ona tili va tarix fanlaridan faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

2020-yilda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetiga o‘qishga qabul qilindi va hozirda 3-bosqich talabasi. Shahnoza Yo‘ldosheva universitetning ilmiy to‘garaklarida, talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, Qozog‘istonda o‘tkazilgan “Инновационные развитие науки и образования январь -2021” xalqaro ilmiy amaliy konferensiyada maqolasi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

“Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayoni va bosqichlari” nomli ilmiy -amaliy konferensiyada faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar: filologiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada “Zamonaviy adabiyotda modern ohang: “Bir piyola suv hikoyasi misolida”gi maqolasi uchun sertifikat oldi.

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU universiteti tomonidan tashkillashtirilgan “Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida “Ravish so‘z turkumining maktab darsliklarida berilishi” maqolasi bilan ishtirok etdi.

Yaponiyaning Go Peace Foundation tomonidan har yili an’anaviy o‘tkaziladigan “2022 International Essay Contest for young people” insholar tanlovida “My values” inshosi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

Xalqaro maydonga chiqish bo‘yicha “Shine” qizlar akademiyasining bitiruvchisi hisoblanadi.

Shahnoza ko‘plab xalqaro yutuqlarga erishgan:

Argentinaning “Working group of International Writers” tashkilotining faol a‘zosi;

Pokistonning fan, ta'lim, san'at va adabiyot bo'yicha "Iqra Foundation" tashkilotining a'zosi;

Misrning "Creativity Forum for Culture, Arts and Peace" ning a'zosi;

"Abdulla Oripov's dedicated life to poetry" maqolasi Amerikaning Amazon.com nashrida "Talented Voices of Uzbekistan" nomli xalqaro antalogiyada nashr etilib, 26 davlatga sotuvga qo'yilgan;

Harvard universitetining "Leadrs of Learning" kursi bitiruvchisidir;

Bundan tashqari Shahnoza "Yil talabasi-2022" tanlovi fakultet bosqichining "Yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi" nominatsiyasi bo'yicha faxrli 2-o'rin sohibasi bo'ldi.

Shahnoza Yo'ldosheva hozirgi kunda neyrolingvistika bo'yicha ilmiy izlanish olib bormoqda. Kelajakda o'z maktabiga asos solish uning asosiy maqsadi. Uni ayollarni ilmga chorlovchi, yosh avlodning kelajagi uchun qayg'uradigan, yangi bilimlar o'rganishdan charchamaydigan, Vatanning kori uchun hissa qo'shishni eng oliy maqsadi deb biladigan bir ilm kishisi sifatida ko'rishimiz mumkin.



Sadriddinova Hadija Ilxomjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti, Chet tillar fakultetining 1-bosqich talabasi.

Sadriddinova Hadija Ilxomjon qizi 2003-yil 14-dekabr kuni Toshkent viloyati, Chirchiq shahrida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

2010-yilda Farg'ona shahridagi 10-umumta'lim maktabning 1-sinfiga qabul qilindi. O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 2016-yilda biologiya (zoologiya) fanidan bo'lib o'tgan “Bilimlar bellashuvi”da shahar bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Farg'ona shahar prokuraturasi tomonidan o'tkazilgan "Yengil atletika" sport musobaqasida faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

2016-2017 yillarda umumta'lim maktablari o'rtasida o'tkazilgan "Kamalak bilimdonlari" ko'rik tanlovida faxrli 1-o'rin, 2018-yil "Yosh qutqaruvchi" kōngillilar musobaqasining shahar bosqichida faxrli 1-o'rin, sport tadbirlarida yengil atletika sport musobaqalarida faxrli 1-o'rin, shaxmat bo'yicha faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Hozirgi kunda yoshlar uchun turli imkoniyatlar yaratilganligi bois turli xil xalqaro konferensiyalarda faol qatnashib, o'zining izlanuvchan ekanligini ko'rsatib kelmoqda. 2022-yil Respublika “Yosh olimlar” kengashi, “Buyuk kelajak”, “Kelajak bunyodkorlari” volontyorlar birlashmasi, “Leader youth”, “Parvoz Yoshlar” forumi tomonidan o'tkazilgan "IELTS and SAT", "International

scholarships", "Journalism and Blogging", "Psychology" mavzusidagi davra suhbatlari faol ishtirokchi lideri sifatida tan olindi.

2022-yilda Farg'ona Davlat universitetiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. Hozirda universitetning 1-bosqich talabasi. Sadriddinova Hadija universitetning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan:

10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari xalqaro va Respublika jurnallarida nashr etilgan.

Yosh olimlar jamoat kengashi, Xalqaro diplomatlar kengashi, "Yosh liderlar" uyushmasi, "Kelajak quruvchilari" ko'ngillilar uyushmasi bilan hamkorlikda "Parvoz yoshlar forumi" onlayn konferensiyasining V mavsumini faol tashkil etish, "Yoshlar parlamenti" Forumining rasmiy ishtirokchisi tashabbuskorligi, qiziquvchanligi va bilimi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'lgani uchun taqdirlandi.

2022-yil Germaniya xalqaro jurnalida "Oxirgi tadqiqotlarning analitik aspektlari" nomli maqolasi bilan qatnashib, xalqaro sertifikat va diplom, Yoshlar ishlari agentligi "Yetti avlod yoshlar forumi"ning diplom va sertifikati bilan taqdirlandi. "Best Publication" ilmiy tadqiqotlar markazining "Intellectual izlanuvchi" esdalik ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi.

Turkiyaning Istanbul shahrida o'tkazilgan konferensiyada diplom, sertifikatiga ega bo'ldi.

O'zbekiston Milliy tiklanish partiyasi "Til posbonlari" loyihasi Farg'ona viloyat raisi, Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

tomonidan tashkillashtirilgan insholar tanlovining "Yashash baxti" mavzusidagi inshosi uchun faxrli 1-o'rinni egalladi.

10 dan ortiq xalqaro va respublika forumlar delegati, xalqaro sertifikatlar sohibi. Farg'ona shahar prokuraturasi tomonidan o'tkazilgan "Yengil atletika" sport musobaqasida faxrli 3-o'rinni egalladi.

2022-yil O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti tomonidan talaba qizlar o'rtasida mini futbol sport turi bo'yicha "Rektor kubogi" musobaqasida jamoasi bilan faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi tomonidan "Eng faol ittifoq sardori" deb topildi.

Amerika Qo'shma Shtatlari elchixonasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Yoshlar va oilalarni qo'llab-quvvatlash jamiyati, Toshkent Inha universiteti, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi hamkorliklarida o'tkazilgan Technovation challengeda G.I.T jamoasi a'zosi sifatida "Piramida" nomli mobil ilovasini ishlab chiqishdagi ajoyib faoliyati uchun taqdirlangan.

Hadija Sadriddinovani mustaqil yurtimiz ravnaqi yo'lida mehnat qiladigan haqiqiy o'zbek qizi sifatida ko'rish mumkin.



Qodirova Dilnoza Xoliq qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining 2-bosqich talabasi.

Qodirova Dilnoza Xoliq qizi 2003-yil 6-avgustda Jizzax shahrida tug'ilgan. Millati-o'zbek.

Qodirova Dilnoza Xoliq qizi 2010-yilda Jizzax shahridagi 4-umumta'lim maktabining 1-sinfiga o'qishga qabul qilindi.

2014-2015 o'quv yilidan to 2020-2021-o'quv yiliga qadar Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil etilgan ko'rik-tanlov va bellashuvlarda faol ishtirok etgan. 2014-yildan 2017-yilgacha 4-umumta'lim maktabi “Kamalak” bolalar tashkiloti kengashida maktab sardori, 2018-2019 yillarda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi 4-maktab kengashida iste'dodli yoshlar yo'nalishi sardori, 2020-yilda esa maktab bosh sardori sifatida saylanib, ko'plab tadbirlarda faol ishtirok etgan.

2018-2019 o'quv yilida 9-sinflar, 2019-2020 o'quv yilida 10-sinflar, 2020-2021 o'quv yilida 11-sinflar kesimida ona tili va adabiyot fanidan fan olimpiadasining viloyat bosqichi faol ishtirokchisi sifatida e'tirof etilgan.

Bundan tashqari, Dilnoza Qodirova viloyat va respublika miqyosida tashkil etilgan “Korrupsiya- taraqqiyot kushandasi” nomli insholar tanlovi shahar bosqichida faxrli 2-o'rinni egallagan, “Men yosh iste'molchiman” insholar tanlovida esa 3-o'rinni egallagan. “Jaholatga qarshi ma'rifat”, “Konstitutsiya - baxtimiz poydevori” kabi insho tanlovlari

ishtirokchisi va sovrindori. 2018-yilda “Navoiy vorislari” nomli g’azalxonlik kechasida shahar bosqichida g’oliblikni qo’lga kiritib, viloyat bosqichida ham faol ishtirok etgan. U yuqoridagi ishlar natijasiga ko’ra bir necha marotaba diplom, faxriy yorliq, tashakkurnomalar hamda esdalik sovg’alari bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, karving san’atini mukammal o’rganib, bir qancha tanlovlarda qatnashib, guvohnoma, faxriy yorliq va “Eng nozik iste’dod egasi” nominatsiyasini qo’lga kiritdi.

2021-yilda shu maktabining 11-sinfini a’lo baholarga tamomladi va oltin medal bilan taqdirlandi.

2021-yilning sentyabrida O’zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining media va kommunikatsiya fakulteti MKLT yo’nalishiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. Hozirda u 2- bosqich talabasi.

2022-yil mart oyida “Izlanish va ijod” nomli davriy to’plamda Dilnoza Qodirovaning “Amir Temur shaxsiga murojaat” nomli maqolasi nashr qilindi. 2022- yil mart oyida Fransiya tashkiloti bilan hamkorlikda o’tkazilgan 12 kunga mo’ljallangan “Adovat tili” kursida faol qatnashib, o’zining tashabbuskorligi va iste’dodini namoyon qilib, faxrli 3-o’rinni egalladi hamda sertifikat, esdalik sovg’alari bilan taqdirlandi. Hozirda u bir nechta maqola va tezislari muallifi.

Uning ko’plab maqolalari xalqaro va respublika nufuzli jurnallarida nashr qilingan.

Shu bilan birga Dilnoza ko’plab xalqaro va respublika miqyosida o’tkazilgan forum va konferensiyalarda faol ishtirok etib, sertifikat, tashakkurnomalarga sazovor bo’lgan. Masalan, “Modern trends in the development of Media Linguists” nomli xalqaro, “Madaniyatlararo kommunikatsiya aspektida lingvistika va

lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida volontyor sifatida, “Global Leaders Week” forumining 1,2,3-mavsumlarida , “Power”, “Young leaders conference”, “Talented youth forum”, “Merger Youth forum”, “Universe” erkin volontyorlik harakati tashabbusi bilan tashkil etilgan “Bir nuqtada birlashamiz” nomli yoshlar forumining 8-mavsumida hamda “Xalqaro ilmiy forum-2022” ko’p tarmoqli ilmiy anjumanida faol ishtirok etib, delegatlar orasida o’zining tashabbuskorligi bilan o’rnak bo’lgan.

Dilnoza Qodirova Turkiyaning eng nufuzli “Turk Yayinevi” nashriyoti tomonidan chop etilayotgan “Turkchaning dunyodagi o’zbek ovozi” xalqaro antalogiyasiga o’z maqolasi bilan qatnashgan.

Amerikaning Amazon saytida e’lon qilingan hamda 26 ta davlatga sotuvga qo’yilgan “Leader Girls lead the world” nomli O’zbekistonning eng faol 35 nafar lider xotinqizlari hayoti o’rin olgan avtobiografik kitobda ham Dilnoza Qodirovaning avtobiografiyasi yoritilgan.

Dilnoza “Shine qizlar akademiya”sining 1-mavsum bitiruvchisi. Hozirda u 3ta xalqaro tashkilotlar a’zosi. Bular quyidagilar:

1. Indoneziyaning “ASIH SASAMI GLOBAL WRITER FOUNDATION”;
2. Hindistonning IQRA FOUNDATION;
3. Argentinaning “JUNTOS POR LAS LETRAS” International Writers Foundation;

Bundan tashqari, Dilnoza valontyor sifatida ham “Oltin qanot” hamda “Quyosh nuri” hamda “U-report Toshkent” kabi valontyorlik harakatining faol a’zosi.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

Dilnoza Qodirovaning erishgan yutuqlari, samarali faoliyati hamda ilm-fan rivoji uchun qo'shgan hissasi inobatga olinib, “Best publication” ilmiy tadqiqotlar hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlash markazining “Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun”, “Tashabbuskor islohotchi” va “Ilm-fan iftixori” esdalik ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi.

Dilnoza Qodirova 2022-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining tuman hamda viloyat bosqichlarida ta'lim yo'nalishida g'olib bo'lib, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Dilnoza Qodirova kelgusidagi hayoti va faoliyati davomida oliy ta'limning bakalavr hamda magistr bosqichlarini muvaffaqiyatli, imtiyozli tugallab, ta'limda eng yuksak cho'qqiga, davlat stipendiyasi va mukofotlari, kasbiy kamolot va ijodiy barkamollikka erishishni maqsad qilgan.



Meliyeva Muxlisa Olim qizi

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti IV-bosqich talabasi.

Meliyeva Muxlisa Olim qizi 2000-yil 12-yanvar kuni Jizzax shahri, Uchariq MFY da ziyolilar oilasida tug‘ilgan.

2006-yilda Jizzax shahridagi 14-umumta‘lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O‘qish davri davomida o‘tkazilgan madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o‘rnak bo‘ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 2012-2013 yilda fizika fanidan bo‘lib o‘tgan “Bilimlar bellashuvi”da viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. 2015-yilda maktabni a‘lo baholarga tugatdi.

2015-yilda Jizzax Iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejining menejment yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilindi. O‘qish davri davomida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo‘ldi. Jumladan, “Sarishtali qiz-oila ko‘rki” nominatsiyasi g‘olibi, “Huquq bilimdonlari” ko‘rik-tanlovida jamoasi bilan faxrli I o‘rinni, “Balli qizlar” ko‘rik-tanlovida faxrli I o‘rinni egalladi.

2018-yilda kollejni a‘lo baholarga tamomladi va O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga qabul qilindi.

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tomonidan o‘tkazilgan bir qancha loyihalar, festivallar, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib keladi, Yoshlar ittifoqi Jizzax viloyat Kengashi qoshidagi Yetakchilar kengashi raisi, “Yetakchi

yoshlar" klubi tashkilotchisi va rahbari lavozimida faoliyat yuritgan.

Jizzax shahar televideniyesi muxbiri sifatida faoliyat yuritgan. "Firibgarlik jinoyati", "Xalq ta'limi islohotlari yo'lida", "Tengdoshim", "Hammasi yurakdan" kabi ko'rsatuvlari efirga uzatilgan.

Respublika miqyosida o'tkazilgan "Eng yaxshi sog'lom turmush tarzi targ'ibotchisi" nominatsiyasi g'olibi, "Oltin sertifikat" sovrindori, "Kamolot qizlari" ko'rik-tanlovining "Eng zukko ishtirokchi" nominatsiyasi g'olibi, "Yurt kelajagi" respublika tanlovining shahar bosqichida "Jurnalistika yo'nalishi" g'olibi, "Harakatdagi yoshlar" respublika yoshlar Forumi ishtirokchisi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Jizzax viloyat Kengashi tomonidan Sh.Rashidov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan "O'zbek xalqining fidoiy farzandi" tanlovida "Sh.Rashidov hayot yo'li haqida eng yaxshi maqola" nominatsiya g'olibi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan "Barkamol avlod" sport musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazishdagi faolligi hamda internet tarmog'i orqali tezkor yoritishdagi faolligi uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Jizzax viloyati "Kelajak liderlari" klubi Axborot xizmati rahbari, O'zJOKUda tashkil etilgan "PR CLUB"da monitoring bo'limi mas'ul rahbari vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda.

Jizzax shahar prokuraturasida, "O'zbekiston24" kanali va "Xalq so'zi" gazetasida, "Istiqbolli avlod" NNT ijtimoiy axborot markazi bo'limida jamoatchilik asosida faoliyat yuritgan.

“Yoshlik bahori” festivali, “Mening ovozim – Vatanim kelajagi” shiori ostida o‘tkazilgan “Saylov va yoshlar” ko‘rik-tanlovi, “Men yetakchiman” lider yoshlar festivali, “Mahalla – milliy qadriyatlar e‘zozlanadigan maskan” kabi bir qancha loyihalar asoschisi va tashkilotchisi.

“Globalashuv davrida PR va xalqaro kommunikatsiyalar: an‘analar va innovatsion yondashuv” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida “Jamoatchilik bilan aloqalar va unga yaqin sohalar” mavzusidagi maqolasi chop etilgan.

“Development of a modern education system and creative ideas for it, republican scientific-practical online conference on “Suggestions and solutions” to‘plamida “Jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda iqtisodiy Piar strategiyasi va taktikasi” mavzusidagi ilmiy maqolasi chop etilgan va diplom va sertifikat bilan taqdirlangan.

Xalqaro yoshlar assotsiatsiyasining “Modern youth conference”da PR menejerlik faoliyati, “Republican leader girls” festivali, “Youth invest global forum”, “Global youth Leadership conference”da OAV va jurnalistika yo‘nalishida “Eng yaxshi ishtirokchi” nominatsiyadagi g‘olibi, Online Digital Camp “Raqamli avlod - 2020” loyihasida “Media va raqamli marketing” yo‘nalishidagi ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

Internews Network xalqaro NNT tomonidan “Internet-jurnalistikasi asoslari” onlayn treningini muvaffaqiyatli tamomlagani uchun xalqaro sertifikat bilan taqdirlangan.

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan o‘tkazilgan “Yil talabasi-2020” respublika tanlovining

“Yilning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng bilimdon talabasi” yo‘nalishida sertifikat bilan taqdirlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” g‘oyasi ostida o‘tkazilgan tadbirlarda faol ishtirok etganligi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

Jizzax viloyati “Kelajak liderlari” klubi faoliyati va rivojlanishiga qo‘shgan hissasi uchun Jizzax viloyat hokimining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan.

Turizm va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tomonidan o‘tkazilgan “Media makonda yangi trendlar” mavzusidagi yozgi oromgohdagi ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Innovatsion rivojlanish vazirligining “Kelajak liderlari” klubi I respublika hisobot forumidagi faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

Xitoy Xalq Respublikasi Tashqi savdo vazirligi Xalqaro biznes va iqtisodiyot universitetining “Economic and Trade Cooperation and Development” xalqaro sertifikatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Bosh ilmiy-metodik markaz tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli kursni muvaffaqiyatli tamomlagani uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

Muxlisa Meliyevani kelajakda mustaqil diyorimizning rivojlanishida, taraqqiy etishida o‘z hissasini qo‘sha oladigan bilimdon, yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishiga ishonamiz.



Mahmudov Muzaffar Mansurjon o'g'li

**O'zbekiston Davlat Jahon Tllari
Universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish
(koreys tili) yo'nalishi 3-bosqich talabasi.**

Mahmudov Muzaffar Mansurjon o'g'li 1994-yil 8-dekabr kuni Toshkent viloyati, Toshkent tumanida ishchi oilasida tug'ilgan.

2001-yilda Toshkent viloyati, Toshkent tumanining 9-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. Sport musobaqalari g'olibi bo'ldi. Maktabda o'tkazilgan futbol turnirlarida o'z sinfi jamoasi bilan 7-8-9-sinflarda o'tkazilgan kuzgi va bahorgi mavsumlarda qatorasiga 6 marotaba chempionlikni qo'lga kiritdi. Maktab davrida sportning futbol turi bilan professional ravishda shug'ullandi. 2010-yilda maktabni a'lo baholarga tamomladi.

2010-yilda Zangiota tumani “Transport va servis” kasb-hunar kollejiga o'qishga qabul qilindi. O'qish davrida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi. Sportning suzish turi bilan professional ravishda shug'ullandi.

Kollejni tamomlagandan so'ng tadbirkorlik faoliyatini boshladi. O'zining ilk biznesini parrandachilikni rivojlantirishga, broyler jo'jalarini jadal o'stirishga va sarflangan ozuqalarga nisbatan yuqori sifatli, arzon go'sht yetishtirib bozorga yetkazib berishdan boshladi. Bundan

tashqari issiqxonada pomidor va bodiring yetishtirib, bozorga yetkazib berish bilan shug'ullandi.

2013-yil sentabr oyidan 2015-yil iyul oyigacha Team o'quv markazida ingliz tilini mukammal o'rgandi va maxsus “Achievement” sertifikatini bilan taqdirlandi.

2017-yilda “AKFA” korxonasi ishchi xodim bo'lib ishga joylashdi. Korxonadagi ish faoliyati davomida qisqa muddat avval operator, keyin esa hisobchi vazifasida ishladi. Bundan tashqari, ingliz va rus tillarini bilganligi uchun italiyalik mutaxassislar bilan ish jarayonida tarjimonlik vazifasini ham bajardi.

2018-yildan buyon Toshkent shahar Mirobod tumani 2-BO`SMda gazooperator vazifasida ish faoliyatini yuritib kelmoqda.

2020-yilda O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetining Filologiya va tillarni o'qitish (koreys tili) yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. Muzaffar Mahmudov o'qishga kirgan davridan boshlab o'z salohiyatini, yetakchilik qobiliyatini va ilmga chanqoqligini ko'rsata oldi. U jamoat ishlarida, xususan, universitet tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy va ma'naviy tadbirlardagi faol ishtiroki, darslarga muntazam qatnab, faqat a'lo baholarga o'zlashtirishi bilan boshqa talabalardan ajralib turadi.

2021-yilda harbiy xizmatga chaqirildi. Harbiy xizmat davomida jangovar, ma'naviy-marifiy tayyorgarlik va boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirgani uchun xizmat tavsiyanomasiga ega bo'ldi.

2022-yilda respublikada o'tkazilgan “Talabalar ligasi” zakovat turnirida O'zDJTuning “Polyglot” jamoasida munosib ishtirok etdi. Bundan tashqari, koreys, xitoy, yapon tillari, madaniyati va tarixini shijoat bilan o'rganib

kelmoqda. Ingliz va rus tillarida erkin muloqot qila oladi. Chet tillarini o`rganishga bo`lgan qiziqishi juda yuqori.

2022-2023 yilgi o`quv mavsumida Alisher Navoiy nomli davlat stipendiyasi sohibi bo`ldi. Hozirgi kunda Muzaffar Mahmudov koreys, xitoy, yapon tillarining tarixi, rivojlanish bosqichlari va bu tillarni o`rganishdagi yangi metodlar, ularning bugungi kundagi tutgan o`rniga oid bir qancha ilmiy ishlar olib bormoqda. OAK tasarrufidagi bir qancha nufuzli, xalqaro va mahalliy jurnallarda ushbu tillarga oid ilmiy ish, maqola, tezislari chop etilgan.

2022-yil aprel oyida “Koreys tilini o`qitishda pedagogik kasbiy kompetensiya muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyada o`z ma`ruzasi bilan faol ishtirok etgani uchun maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil aprel oyida “O`zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnalda maqolasi chop etildi.

2022-yil 15-iyunda “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar. Nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasida “Til o`rganuvchilar uchun xitoy, koreys, yapon tillarining ahamiyati va hozirgi kundagi tutgan o`rni” nomli tezisi bilan ishtirok etdi va maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 24-iyunda “Academic research in modern science” (USA) nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasida “Xitoy tilini o`rganishdagi bosqichlar va ierogliflarni o`rganishdagi zamonaviy yondashuvlar” nomli tezisi bilan ishtirok etdi va maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 1-iyul “Models and methods in modern science” (France) nomli ilmiy masofaviy, onlayn konferensiyasida “Koreys tili tarixi va uning rivojlanish bosqichlari” nomli

tezisi bilan ishtirok etdi va maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 5-iyul “Development and innovations in science” (Netherlands) nomli ilmiy masofaviy, onlayn konferensiyasida “Yapon tili tarixi, yozuv tizimi va uning rivojlanish bosqichlari” nomli tezisi bilan ishtirok etdi va maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil iyul “Образование и наука в XXI веке” (Russia) nomli ilmiy jurnalda “Buyuk ipak yo`li tarixi va uning ahamiyati” nomli ilmiy maqolasi chop etildi va maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

Muzaffar Mahmudovni milliy mafkura g`oyalariga sodiq, milliy ma`naviyat negizida yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, fidoiylilik tuyg`usini, mehnatsevarlik fazilatlarini o`zida mujassamlashtirgan va yoshlar orasida targ`ibot qila oladigan, mustaqil respublikamiz ravnaqi yo`lida mehnat qiladigan haqiqiy o`zbek o`g`loni sifatida ko`rish mumkin.



Abduxakimova Umida Baxodirovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishining 2-bosqich talabasi.

Abduxakimova Umida Baxodirovna 2001-yil 2-oktyabrda Toshkent viloyatida tug'ilgan. Millati-o'zbek.

2008-yil Piskent tumanidagi 18-umumta'lim maktabning 1-sinfiga qabul qilindi. 2017-yil maktabni a'lo darajali shaxodatnoma bilan bitirib, Angren tibbiyot kollejining “Feldsher-laborant” yo'nalishiga qabul qilindi.

Kollejda tahsil olish davomida u intizomli, ziyrak va zukko o'quvchi sifatida o'zini ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o'rganishga harakat qildi va kollejni ham a'lo darajali diplom bilan ta'momladi. Bundan tashqari, chaqiriqqacha harbiy ta'lim fanlarini a'lo o'zlashirib, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida yaxshi natijalar ko'rsatganligi uchun harbiy guvohnomaga ham ega bo'ldi.

2021-yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining “Fizika va astronomiya” yo'nalishida 1-bosqichga qabul qilingan bo'lib, hozirda 2-bosqich talabasi.

Umida juda ko'plab tadbirlarni tashkillashtirishda faol qatnashgan. Barcha talabalarga o'rnak bo'lgan holda izlanuvchanligi, tashkilotchilik faoliyati, ijodkorligi bilan fakultet yoshlarini ergashtirib, ularni ertangi kunga ishonch va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi uchun o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Bugungi kunga qadar U.Abduxakimovaning respublika va xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalari chop etilgan. U.Abduxakimova respublika miqyosida ko'plab forum, konferensiya, sammitlar tashkilotchisi va ishtirokchisi hisoblanadi.

Bundan tashqari, shu kungacha ko'plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Masalan, 2018-yil Piskent tumani Yoshlar ittifoqi tuman Kengashi media kotibi vazifasida faoliyat yuritgan va bir yil davomida ko'plab ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borgan.

2021-yil azim Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Toshkent Yoshlar forumi-2021" ishtirokchisi sifatida faol qatnashgan.

2021-yil sentyabr oyidan buyon universitet qizlarining faolligi va o'ziga bo'lgan ishonchini yanada orttirish maqsadida tashkil etilgan "Qizlarjon" klubiga rahbarlik qilib kelmoqda.

2021-yil noyabr oyida universitet miqyosida o'tkazilgan "Talabalikkacha uch qadam" insholar tanlovida o'zining ijodiy mahorati va badiiy kechinmalarini yaqqol yoritganligi uchun g'oliblikni qo'lga kiritgan va diplom bilan taqdirlangan.

2022-yil mart oyida fizika-matematika fakulteti talabalarini fan doirasida bilim darajasini oshirish maqsadida Parkent tumanidagi "Fizika-Quyosh" instituti qoshidagi stansiyasiga quyosh panellari orqali elektr olishni tushuntirish uchun talabalarga sayohat tashkillashtirib, fakultet tomonidan "Fizik sfera" yaratganligi uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2022-yil o'z sohasidan kelib chiqib, bolalarga mental arifmetika sirlarini o'rgatish maqsadida mental arifmetika trenerlik kursini tamomladi va sertifikatni qo'lga kiritdi.

2021-2022 o'quv yilida universitet Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti fizika-matematika fakultet talabalar kengashi raisi sifatida faoliyat yuritib, fakultetda bir qator yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar tashkillashtirgan.

2022-2023 o'quv yilidan boshlab U.Abduxakimova Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti kengashining media kotibi sifatida faoliyat yuritib universitet jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

2022-2023-o'quv yillari davomida fizika-matematika fakultet yetakchisi vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda.

2022-yil mart oyidan buyon "Qalb muhri" erkin volontyorlik harakati "Loyihalar ummoni" yo'nalishi koordinatori va media kotibi vazifasida ishlab kelmoqda.

2022-yil iyul-avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan 5 tashabbus ijrosini ta'minlash hamda yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazish maqsadida o'tkazilgan onlayn tanlovlar tashkilotchisi sifatida universitet va Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2022-yil aprel oyida "Global Leaders Week" liderlar haftaligi onlayn konfrensiyada ishtirok etib sertifikat va diplomlar bilan taqdirlandi.

2022-yil avgust oyida o'tkazilgan "International Relationship" forumida xalqaro aloqalar, diplomatik-etiketika qoidalari, turizm va marketing, tasvirli ovoz - diktordan saboqlar va shu kabi mavzularda faol ishtirok etganligi uchun sertifikatlar bilan taqdirlandi.

2022-yil "Ustozlar uchun" respublika pedagoglar jurnalining 34-sonida "Abdulla Avloniy - milliy va zamonaviy

pedagogika asoschisi” nomli maqolasini ommalashtirganligi uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil may oyida o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston mening tasavvurimda” insholar tanlovining respublika bosqichi ishtirokchisi.

2022-yil oktyabr oyida “Oltin qanot volontyorlari” va Volontyorlar akademiyasi NTMning turli loyihalarida faol targ‘ibotchi sifatida namuna ko‘rsatgani uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil noyabr oyida biznes boshqaruvi va SMM kurslari mavzularida bo‘lib o‘tgan “Young Professional Forum 2” forumida faol ishtirok etdi va sertifikatlarga ega bo‘ldi.

2022-yil noyabr oyida universitetda o‘tkazilgan “Yil talabasi-2022” ko‘rik-tanlovining “Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi” nominatsiyasida g‘oliblikni egallab, maxsus diplomni qo‘lga kiritdi.

2022-yil noyabr oyida o‘tkazilgan “Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi” mavzusida o‘tkazilgan insholar tanlovida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi va respublika bo‘yicha “Korrupsiya” to‘g‘risidagi insholar to‘plami kitobiga ushbu insho maqola sifatida kiritildi.

2022-yil noyabr oyidan boshlab “Qalb muhri” EVHda volontyorlar jamoasini boshqarish qobiliyati ko‘zda tutilib, Toshkent shahri koordinatori vazifasi yuklatildi.

2022-yil dekabr oyida universitetda “Stipendiantlar” klubini tashkil etib, o‘z orqasidan 150 ga yaqin yoshlarni ergashtira oldi va hozirda stipendiant bo‘lish sir-asrorlarini o‘rgatib, yordam berib kelmoqda.

2022-yil dekabr oyida “Science and innovation” ilmiy jurnali tomonidan “O‘zbekistonning taniqli olimlar

ensiklopediyasi” 1-tomi yaratilgani munosabati bilan O‘zbek Milliy Akademik teatrida bo‘lib o‘tgan marosim tashkilotchisi sifatida jurnal direktori tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

2022-yil mobaynida hujjat ishlarida epchilligi hamda ilmiy maqolalari orqali “Science and innovation” jurnalini o‘ziga jalb qilganligi sababli jurnalda tahririyat a‘zosi vazifasida ishlab kelmoqda va guvohnomaga ega.

Umida Abduxakimova hozirgi kunda “Zamonaviy kasblar – kelajak asosi” deb hisoblaydi. Shu sababli, universitetning bir qator yoshlariga frilanserlik sirlarini bepul “Neyrokopirayterlik” kursi orqali yoshlarga qisqa muddatda ko‘p miqdorda katta mablag‘larga erishish yo‘llarini o‘rgatib kelmoqda. Bundan tashqari, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda intellekt darajasini oshirish maqsadida “Zakovat” klubini yuritib kelmoqda.



Bekturdiyeva Guli Sodiqjon qizi

**Samarqand Davlat Chet tillari instituti,
Xorijiy til va adabiyot fakulteti, II-bosqich
talabasi.**

Bekturdiyeva Guli Sodiqjon qizi 2004-yil 10-avgust kuni Toshkent viloyati, Angren shahrida ishchilar oilasida tug'ilgan.

2010-yilda Toshkent viloyati, Angren shahrining 20-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi.

"Ramzimiz faxrimiz", "Konstitutsiya-baxtimiz qomusi", "Tarix va huquq", "Xalqaro oila kuni" ko'rik tanlovlarida faxrli I, II va III o'rinni egallagan. "Xotira va qadrlash" kuniga bag'ishlanib o'tkazilgan tumanlararo marafon yugurishida faxrli II o'rinni ham olgan. 2017-yili shaharlararo "Kamolot" va "Kamalak" tashkilotlarha tarafidan o'tkazilgan "Kamalak bilimdonlari" tanlovida faxrli III o'rinni egallagan. 2019-yilda chizmachilik fanidan bo'lib o'tgan "Bilimlar bellashuvi"da tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgan. 2020-yilda o'tkazilgan "Yosh kitobxon" tanlovining tuman bosqichiga yo'llanma olib, "Eng yosh kitobxon" o'quvchi nominatsiyasi g'olibasi bo'lgan.

G. Bekturdiyeva 2021-yilda ona tili va adabiyoti fanidan bòlib o'tgan bilimlar bellashuvining tuman bosqichiga yo'llanma olib, faxrli III o'rinni egallagan. 2021-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida ingliz tili, ona tili va adabiyot, matematika fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 2021-yilda Samarqand Davlat Chet tillari institutining xorijiy til va adabiyot fakultetiga talabalikka tavsiya etildi. O'qish davri davomida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'lib kelmoqda. Jumladan, “Zakovat” intellektual klubida, “Zakovat viktorinasi”da jamoaviy II o'rinni, “Giyohvandlik - asr vabosi” shiori ostidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashliklashtirgan.

“Balli qizlar” ko'rik-tanlovida faxrli III o'rinni egalladi.

G. Bekturdiyeva institutning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, 10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tavsiya etgan xalqaro va respublika jurnallarida nashr etilgan.

2021-o'quv yilida Samarqandda o'tkazilgan "Role of ICT in teaching foreign languages" konfrensiyasida ishtirok etdi. Shu yilning dekabr oyida Samarqand viloyatida tashkil etilgan "The Youth Festival" ishtirokchisi, "Teaching writing through stories" maqolasi bilan "International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences" GA qatnashib xalqaro sertifikat va diplom sohibi bo'ldi. 2022-o'quv yilida "World Student Summit" ishtirokchisi.

"Samarqand Tourism Yoshlar forumi", SamDCHTI tomonidan o'tkazilgan XXVIII xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, "Chet tillarni o'qitishda dolzarb muammolar, innovatsiyalar, an'analar, yechimlar va badiiy adabiyotlar tahlili" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchisi bo'ldi.

2022-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda "3-Renessans va ommaviy diplomatiya - yoshlar nigohida" nomli xalqaro forum-anjuman ishtirokchisi bo'ldi.

"Flight Youth Forum" VI season's "The best delegat" nominatsiyasi g'olibi, "The Global Leaders Week" online conference ishtirokchisi, "Google Digital Garage"da tashkil etilgan "The Fundamental of Digital Marketing" kursining faol talabasi bo'ldi.

2022-o'quv yilida "Yangi O'zbekistonni o'zimiz, o'z qo'llarimiz bilan bunyod etamiz!" shiori ostida o'tkazilgan insholar tanlovining institut bosqichida faxrli o'rinni egalladi. 10 dan ortiq xalqaro va respublika forumlar delegati, xalqaro va respublika sertifikatlar sohibi bo'ldi.

Samarqand Davlat Chet tillari institutida o'tkazilgan "Konstitutsiya - mening taqdirimda" nomli insholar tanlovida faxrli III-o'rin sovrindori bo'ldi.

Germaniya davlatining Munich shahrida o'tkazilgan "Innovative Trends in Science, Practice and Education" xalqaro maqolalar tanlovida lingvistika sohasi bo'yicha qatnashib, faxrli o'rinni egallagan.

Educba tomonidan tashkil etilgan "Statistics Essential for Analytics" kursining faol bitiruvchisidir.

"Linda Brown yoga" instruktori tomonidan tashkil qilingan online kursini bitirgan.

WHO tomonidan tashkil qilingan "Cholera Outbreaks: Emergency Preparedness and Response" kursining ishtirokchisi bo'ldi.

WHO tomonidan tashkil etilgan Dr Ahmed Al-Mandhari tomonidan o'tkazilgan "COVID 19 National Survey Package" ,

"Social Listening and Community Feedback" kurslarining faol ishtirokchisi bo'ldi.

WHO tomonidan tashkil etilgan Ozarbayjonda o'tkazilgan "Infeksiyalarning profilaktikasi va nazorat uzra liderlik va programming idora etishlik" online kursining "The best delegate" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

UNICEF tomonidan tashkil qilingan "Education for Emergency" online kursining bitiruvchisi.

G. Bekturdiyevaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari katta. U yuksak vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'usini va mehnatsevarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan va yoshlar orasida targ'ibot qila oladigan, mustaqil respublikamiz ravnaqi yo'lida mehnat qiladigan iste'dod egasidir.



Keldiyorova Navbahor Nuriddin qizi

**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Davolash ishi fakulteti, IV-bosqich
talabasi.**

Keldiyorova Navbahor Nuriddin qizi 1999-yil 22-mart kuni Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanida ziyolilar oilasida tug'ilgan.

2006-yilda Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar 15-umumiy va o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. O'qish davomida biologiya, kimyo va ingliz tili fanlaridan o'tkazilgan shaxar bosqichlarida faol qatnashib kelgan. 2015-yilda Qarshi shahrining 9 -umumiy va o'rta ta'lim maktabni a'lo baholarga tugatdi.

2019-yilda Samarqand Davlat Tibbiyot institutining Davolash ishi yo'nalishiga talabalikka tavsiya etildi. Hozirda universitetning 4-bosqich talabasi.

Navbahor Keldiyorova universitetning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tavsiya etgan xalqaro va respublika jurnallarida nashr etilgan. 2020-yilda Elsevier tomonidan o'tkazilgan "International Conferce Elsevier science day in Uzbekistan" haftaligida faol qatnashib sertifikat, 2021-yilda Springer Nature tomonidan o'tkazilgan masofaviy tanlovda faol

qatnashib sertifikat, 2021-yilda “Innoweek.uz-2021” xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligida ishtirok etib sertifikat, xalqaro miqyosidagi “Eurasian journal of medical and natural sciences” jurnalida “Актуальные вопросы сахарного диабета” nomli maqolasi bilan qatnashib, mualliflik guvohnoma va sertifikat, 2022-yilda “American association of continuing medical education” tomonidan tashkil etilgan “Привлечение частного сектора для внедрения инструментов для борьбы с COVID-19 и достижения цели «Здоровье для всех»” kursini muvaffaqiyatli tugatib sertifikat, 2022-yilda “Health emergencies” programme tominidan tashkil etilgan “Диагностический экспресс-тест на антигены (SARS-CoV-2)” kursini muvaffaqiyatli tugatib sertifikat, 2022-yilda “НКР аллогенные ткани или ауто-кости? Какая методика позволит избежать осложнения в практике?” vebinarida faol qatnashib sertifikat bilan taqdirlangan. 2022-yilda 16-17 dekabr Samarqand Davlat Tibbiyot universitetida «Samarqand-2020» tibbiyot oliygohlari talabalarining III xalqaro olimpiadasida faol ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Nufuzli xorijiy “Universum: Химия и биология” jurnallida “Medicinal schizophyllum communis fr. the first report of the fungus which is distributed in the territory of Uzbekistan” maqolasi bilan qatnashib sertifikat, Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasida “Organik chiqindilar bilan boyitilgan vermikompost namunalarning mikroorganizmlar tahlili” mavzusidagi ilmiy maqola chop ettirdi.

ADTI tomonidan o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyasida “Фармакотерапевтическое лечение

синдрома поликистозных яичников" nomli tezisi bilan qatnashib I o'rinni egallab diplom;

JDPI tomonidan o'tkazilgan "Zamonaviy biologik ta'limni rivojlantirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi" ilmiy amaliy konferentsiyasida faol qatnashib, sertifikatlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Navbahor Keldiyorova o'qish davomida intizomi, ziyrakligi, bilimdonligi va har qanday o'ziga yuklatilgan vazifaga ma'suliyat bilam yondoshib, vijdonan bajarishi bilan ajralib turadi.



Pardayeva Sevinch Shuxrat qizi

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi.

Pardayeva Sevinch Shuxrat qizi 2002-yil 31-dekabr sanasida Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani, "Chaqar" qishlog'ida ishchilar oilasida tug'ilgan.

2009-yilda Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanining 3-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol qatnashib, tengdoshlariga o'z bilim va namunali xulqi bilan o'rnak bo'ldi. 2020-yilda a'lo baholarga o'qib, maktabni oltin medal bilan tugatdi.

Maktab davri mobaynida u ko'plab tadbirlarda xususan, "Yosh musavvirlar" to'garagi faol a'zosi sifatida har o'quv yilida turli xil nominatsiyada g'oliblikni qo'lga kiritgan.

2017-yil "Kamalak bilimdonlari" ko'rik-tanlovida "Mash'al" jamoasi a'zosi sifatida qatnashib, faxrli I-o'rinni egallagan.

2018-yilda Sankt Peterburg shahrida butun jahon bo'yicha onlayn tarzida o'tkazilgan fan olimpiadasida matematika fanidan faxrli I-o'rinni, rus tili va fizika fanlarda ham o'z bilimlarini ko'rsatib, sertifikatlarni qo'lga kiritgan, geografiya fanidan o'tkazilgan olimpiadasining II tuman bosqichida faol qatnashgan, 8-mart "Xalqaro xotin-qizlar" bayrami munosabat bilan o'tkazilgan "Ibratli onaning iboli qizi" tanlovida qatnashib faxrli I-o'rinni egallab "Eng iboli qiz" nominatsiya bilan taqdirlangan. Tuman "Xotin qizlar"

bo'limi raisi ota-onalariga estalik sovg'alari bilan taqdirlagan.

3 yil o'qish mobaynida maktab sardori bo'lgan hamda G'uzor tuman Yoshlar ittifoqi a'zosi hisoblangan. U maktabda teatr studiyasi tashkil etgan va 2018-yilda "Yoshlar - kelajak bunyodkori" shiori ostidagi yoshlar festivalining "Talabalar teatr studiyalari" festivalida 3-maktab jamoasi g'olib bo'ldi. Dolzarb mavzuning sahnaviy talqinini gavdalantirgani uchun Sevinch Pardayeva II darajali diplom, estalik sovg'alari va kitoblar bilan taqdirlagan.

2019-yilda Sankt Peterburg shahrida butun jahon bo'yicha onlayn tarzida o'tkazilgan fan olimpiadasida faol qatnashishda davom etib, matematika fanidan I o'rinni, nemis tilidan III o'rinni egallagan.

Tumanda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi madhiyasini kuylash ko'rik tanlovida jamoasi bilan II o'rinni egallagan.

Ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida harbiy okruglarda o'tkazilgan "Temurbeklar" harbiy-sport o'yinlari G'uzor tuman bosqichida I-o'rinni egallab, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgan "Sheryurak" jamoasi bilan faol qatnashishgan va viloyat bosqichida ham III-o'rinni egallashgan.

G'uzor tuman xalq ta'limi bo'limi "Temur tuzuklari bilimdoni" tuman bosqichi ko'rik tanlovida faol ishtirok etib, faxrli II o'rinni egallagan va viloyat bosqichida ham faol ishtirok etgan.

G'uzor tuman xalq ta'limi bo'limi "Besh tashabbus Navro'zda" festivali "Qizlarjon" yo'nalishida hududiy maktablar o'rtasida I o'rinni va tumanda III o'rinni egallab,

G'uzor tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri R.Eshqobilova tomonidan esdalik sovg'alari va diplom bilan taqdirlangan.

2018-2019, 2019-2020 o'quv yillarida barcha fanlarni a'lo darajada o'zlashtirgani, eng ko'p baho olib tengdoshlariga na'munali xulqi bilan o'rnak bo'lgani uchun 2 yil ketma-ketlikda "Yilning eng yaxshi o'quvchi" nominatsiyasi bilan taqdirlangan.

Maktabdagi shaxmat va shashka musobaqalariga ham faol qatnashgan. Kompyuterda dasturlarda ishlash bo'yicha to'garaklar ochgan. Informatika fani bo'yicha o'tkazilgan tadbirlarda faol qatnashgan. “Zakovat” musobaqalari tashkillashtirib, bellashuvlar o'tkazgan.

Respublika Yoshlar markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi hamda viloyat Yoshlar markazi tomonidan tashkil etilgan Amaliy yo'nalishi san'at (tikuvchilik, pazandalik, karven) to'garagini qizil darajali diplom bilan 2019-yilda tamomlagan.

2020-yilda G'uzor tuman hokimi B.Suyunov va G'uzor tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri R.Eshqobilovalar shaxsan o'zlari tomonidan oltin medal bilan hamda ota-onalariga tashakkurnoma estalik sovg'alari bilan taqdirlangan.

2021-yil "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutiga qabul qilindi.

Institutda ham barcha fanlarni a'lo darajada o'zlashtirib, tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

2022-yilda Navro'z festivali doirasida Qashqadaryo viloyatida "Xush kelding, Navro'zim" mavzusida o'tkazilgan tadbirda Xorazmliklar vakili sifatida faol ishtirok etgan.

Institutda o'tkazilgan Navro'z festivalida Qashqadaryolik "laparchilar" jamoasidan qatnashib, chet eldan tashrif

buyurishgan mehmonlarga o'zbek milliy laparlaridan kuylab hamda milliy cholg'u asbobimiz hisoblangan chanqovuz cholg'usida kuy chalib bergan.

Viloyat musiqali drama teatrida oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkazilayotgan "Yilning eng faol talabalar teatr studiyalari" tanlovining hududiy bosqichi bo'lib o'tdi. Unda viloyatimizdagi beshta oliy ta'lim muassasasidan teatr jamoalari ishtirok etdi. Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti "Iste'dod" talabalar teatr studiyasi tanlovda Usmon Nosir tavalludining 110 yilligi tavalludining munosabati bilan "Na qabring topoldim, na topdim mozor" tarixiy dramasini namoyish etib, faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Unda Sevinch Pardayeva bosh qahramon sifatida faol ishtirok etib, Qashqadaryo milliy televideniyasida "Fayzli kun musiqiy dam olish dasturida" jonli efirda mehmon sifatida ishtirok etgan.

Institutda barcha tadbirlarda faol shaxmat-shashka musobaqalarida, institutlar o'rtasida o'tkaziladigan "Zakovat" ko'rik tanlovlarida qatnashib, estalik sovg'alarini qo'lga kiritgan. Maqolalari ham matbuotda chop etilgan.

Sevinch Pardayeva o'zining tirishqoqligi, mehnatsevarligi, bilimga chanqoqligi va xulq-atvori bilan o'z tengdoshlariga namuna bo'la oladi.



Yusupova Farangiz Adhamjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabasi.

Yusupova Farangiz Adhamjon qizi 2001-yil 14-avgustda Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanida tug'ilgan. Millati-o'zbek. "Milliy tiklanish" partiyasi a'zosi. 2008-yil Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 5-o'rta ta'lim maktabiga 1-sinfga o'qishga boradi. Maktabda doimiy tanlov va tadbirlarda faol ishtirok etadi. 5-sinfdan 7-sinfgacha "Kamalak" boshlang'ich tashkilotining maktab sardori, 7-sinfdan 11-sinfga qadar "Kamolot" hamda "Yoshlar ittifoqi" sardori bo'lib faoliyat yuritadi. Har yili o'tkaziladigan "Bilimlar bellashuvi" va "Fan olimpiada"larida tuman bosqichida faol qatnashib, faxrli o'rinlarni egallaydi.

2016-yilda "Konstitutsiya-baxtimiz poydevori" respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida tasviriy san'at yo'nalishida ishtirok etib, faxrli 3-o'rinni egallaydi. 2017-2018 yillarda o'tkazilgan "Yuksak ma'naviyatli avlod" respublika festivalining tuman bosqichida "O'z asarlarida milliylikni aks ettirgan rassom" nominatsiyasi bo'yicha faxrli 2-o'rinni egallaydi. 2018-yilda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Qarshi tuman kengashida o'tkazilgan "Konstitutsiya bilimdoni" tanlovida ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni egallaydi.

2021-yilda O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyot ingliz tili fakultetiga talabalikka tafsia etilgan. Fakultet yoshlar ittifoqi a'zosi. "Faol talabalar bilan ishlash" yo'nalish sardori.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan e'lon qilingan yoshlar o'rtasida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy me'rosini keng targ'ib qilish, ularning adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, ularga o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish maqsadida “Ma'rifat maydoni” tanlovining respublika bosqichida faxrli 3-òringa loyiq deb topildi. Farangiz Yusupova “Ekstremizm, terrorizm va missionerlikning mudhish qiyofasini fosh etish” mavzusidagi tanlovida faol ishtiroki uchun estalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Universitetda talabalar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi hamda Media va kommunikatsiya fakulteti tashabbusi bilan «Biz korrupsiyaga, giyohvandlikka va jinoyatchilikka qarshimiz!» shiori ostida o'tkazilgan rasmlar tanlovida faol ishtiroki uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Aleksandr Feinberg ijodini talabalar o'rtasida targ'ib qilganligi hamda Aleksandr Faynberg haftaligi va olimpiadasida faolligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Hamda International online conference: the toefl family of assessment for building confidence and success konferensiyasi faol ishtirokchisi.

Farangiz Yusupova “Oltin qanot” volontyorlar klubi a'zosi. 3-dekabr «Xalqaro nogironlar kuni» va 5-dekabr «Xalqaro volontyorlar kuni» munosabati bilan tashkil qilingan «Ezgulikda birlashaylik-2021» respublika festivalida kreativ fikrlari bilan o'ртоqlashgani va o'zining faolligini namoyish etish uchun Olmazor tuman hokimligi tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi. Farangiz Yusupova «Yosh ijodkorlar» to'garagining faol a'zosi. Shoir va yozuvchilar

tomonidan o'tkaziladigan ijodiy kechalarning faol ishtirokchisi hamdir.

Farangiz Yusupova ko'plab xalqaro forumlar qatnashchisi, “Zamon youth forum”, “Adequate consult”, “Merger youth forum 3 season”, “Target future conference”, “Ability youth forum”, “Armidid youth forum”, “Global youth forum 3 season”, “Rise 3 season”, “Parvoz”, “Development youth forum 1”, “The best delegate”, “Leader academy youth forum”, “My flag is my honor” shular jumlasidan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi miqyosida umumiy muammolarga doir masalalar bo'yicha yoshlarning samarali takliflarini ishlab chiqishda, talabalararo ilmiy aloqalarni rivojlantirishni hamda xalqaro va milliy andozadagi ta'lim tizimi rivojiga qo'shgan hissasi uchun Farangiz “Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun” ko'krak nishoni hamda guvohnomasi bilan mukofotlangan.

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti ingliz tili birinchi fakulteti “Zakovat” klubi faol a'zosi, 2022-yil “Zakovat” kuzgi mavsumini tashkil etgani uchun fakultet dekani hamda fakultet yetakchisi tomonidan diplom bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, O'zDJTU boshlang'ich tashkiloti tomonidan “Youth week” nomi ostida tashkil etilgan haftalikni tashkillashtirishda ko'rsatgan amaliy yordami uchun tashakkurnoma va estalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

2022-yil 14-16 noyabr kunlarida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan “World Conference of early Childhood Care and Education” (WCECCE) konferensiyasida tarjimon volontyor bo'lib qatnashgani uchun O'zbekiston Respublikasi

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

Maktabgacha Ta'lim Vazirligi hamda UNESCO Toshkent Vakolatxonasi tomonidan sertifikat bilan mukofotlandi.

“Yil talabasi-2022” respublika tanlovining universitet bosqichida “Yilning eng faol tashabbuskor targ'ibotchi talabasi” nominatsiyasi g'olibi deb topilib, diplom va estalik sovg'alari bilan mukofotlangan.



Safarova Gulshoda Shuhrat qizi

Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tili ta'limi fakulteti, Amaliy filologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Safarova Gulshoda Shuhrat qizi 2003-yil 14-yanvarda Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani, Qorakamar qishlog'ida ishchilar oilasida tug'ilgan.

2010-yil G'uzor tumanidagi 65-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri mobaynida o'tkazilgan qator madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. Boshlang'ich sinflardan boshlab ko'rik-tanlov va fan olimpiadalarida qatnasha boshlagan. Jumladan, 3-sinfigida “Bilimlar bellashuvi” ning tuman bosqichida faxrli II o'rinni, 4-sinfigida esa faxrli I orinni egallagan. 5-sinfigidan boshlab to 11-sinfigiga qadar ona tili va adabiyotga bo'lgan qiziqishi sababli shu fan yo'nalishida fan olimpiadalarida qatnashib, faxrli o'rinlarni egallagan. 6-sinfigida “Men OITSga qarshiman” insholar tanlovida faxrli I o'rinni egallagan va sertifikat va esdalik sovg'alar bilan taqdirlangan.

7-sinfigida G'uzor tumanida o'tkazilgan “Ingliz tili bilimdonlari” jamoaviy ko'rik-tanlovida faxrli II orinni egallagan. Bundan tashqari, shu kabi bir qator ijodiy va ilmiy ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etgan. Maktabdagi shaxmat to'garagining faol a'zosi sifatida maktab o'quvchilari ortasida doimiy birinchi o'rinlarni egallagan va 9-sinfigida tumanlararo shaxmat musobaqasida faxrli III o'rinni

egallagan. 10-11 sinflarda ham maktab va tumanda tashkil etilgan tadbirlar, tanlovlar va fan olimpiadalarida faol ishtirok etib, maktabdagi “Eng faol o‘quvchi” nominatsiyasi bilan bir necha bor taqdirlangan va 11-sinfni kumush medal bilan tamomlagan.

2021-yilda O‘zbek tili va adabiyoti universitetining amaliy filologiya yo‘nalishiga hujjat topshirib, davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. 2021-2022 o‘quv yilining birinchi yarim yilligidayoq o‘qituvchilar nazariga tushdi va 2021-yil 20-oktyabrda o‘tkazilgan “O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktika masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida o‘zining “Frazeologik lug‘atda “og‘iz” leksemasini ifodalovchi iboralarning berilishi, semantik xususiyatlari va amaliy filologik ahamiyati” mavzusidagi ma‘ruzasi bilan faol qatnashib, maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 27-aprelda bo‘lib o‘tgan “Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lida ilk odimlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida “Rustam Jabborovning “Muruvvat” hikoyasida syujet va kompozitsiya masalalari”, 2022-yil 26-oktyabrda “O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy anjumanida “Jahon mamlakatlarida til siyosati va til boshqaruvi”, 2022-yil 30-noyabrda “Filologiya masalalari - yosh tadqiqotchilar nigohida” nomli ilmiy-amaliy konferensiyasida “Mamlakatlardagi til siyosatining ko‘rinishlari hamda til managementi bilan bog‘liq masalalar” maqolalari bilan ishtirok etib, maxsus sertifikatlar bilan taqdirlandi.

Amaliy va nazariy topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarib, o‘zining tirishqoqligini ko‘rsata oldi va o‘quv yilini faqat a‘lo

baholar bilan yakunladi. Kafedra mudiri va o'qituvchilar nazariga tushdi.

2022-yil fevral oyi mobaynida olib borilgan malakaviy amaliyotni Xadicha Sulaymonova sud-ekspertiza markazida, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi hamda “Davlat xizmatlari agentligi” da o'tab, o'zining til bo'yicha olgan bilimlarini muvaffaqiyatli amalda qo'llab, malakaviy amaliyotni yuqori baholar bilan yakunladi.

Gulshoda Safarova o'qishdan bo'sh vaqtlarida jamoat ishlarida va tadbirlarda faol ishtirok etdi. Jumladan, 2021-2022-o'quv yili boshida “Adiblar xiyobonida” o'tkazilgan “Turk xalqlari adiblari” tadbirida faol ishtirok etdi va Turkiyadan kelgan mehmon o'qituvchi Aslan Bahtiyor darslarida ishtirok etishga muvaffaq bo'ldi. Iqbol Mirzo, Zilola Xo'jamova, Jamol Kamol, Izzat Sulton kabi shoir va yozuvchilar, qolaversa, o'z sohasining mutaxassisi Toshkent shahar Yakkasaroy tuman hokimining til masalari bo'yicha maslahatchisi Shahnoza Soatova bilan bo'lgan vebinarda faol ishtirok etdi.



Qobilova Madina Sobir qizi

**Termiz Davlat Pedagogika instituti,
Boshlang'ich ta'lim fakulteti, Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishining 2-bosqich talabasi.**

Qobilova Madina Sobir qizi 2003-yil 15-mart kuni Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida ishchilar oilasida tug'ilgan.

2009-yilda Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanining 34-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. Maktabda o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi. 2020-yilda a'lo baholarga o'qib, maktabni kumush medali bilan tugatdi.

2022-yili Termiz Davlat Pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. O'qish paytida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'lib kelmoqda.

Jumladan, 2021-yil 2-noyabrda “Aholini yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish” o'quv kursini muvaffaqiyatli tugatdi.

2022-yil “Biz seni sog'indik bahor” nomli bayram sayli doirasida o'tkazilgan “O'zbekim qizlari” ko'rik-tanlovida faol ishtirok etdi. 2022-yil malakaviy o'quv amaliyoti davomida o'zining faolligi, ochiq darslarda tashabbuskorligi, tadbirlardagi faolligi hamda namunali xulqi uchun maktab ma'muriyati tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

2022-yilda O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Surxondaryo viloyati Kengashi “Yoshlar qanoti” tashabbusi bilan “O'zbek tilim - o'zligim” shiori ostida o'tkazilgan maqolalar tanlovida faol ishtirok etdi.

Joriy yilning 30-noyabridan 5-dekabrigacha barcha hududlarda o`tkazilgan “Volontyorlik haftaligi” doirasida tashkil etilgan o`quv seminarida faol ishtirok etgani uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil boshlang`ich ta`lim fakultetida “Zakovat” intellektual o`yinida faxrli 1-o`rinni egallagani uchun “Shiddat” jamoasi diplom bilan taqdirlandi.

2022-yilning iyun oyida bo`lib o`tgan “Power forum” seminarlar forumi doirasidagi online treninglarda faol ishtirok etib, yurtimiz yoshlariga lider sifatida o`rnak bo`lganligi uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 20-may “Yoshlar uchun bir kun-hamma uchun har kun” mavzusidagi ma`naviy-ma`rifiy tadbirda bilimdonlik bahsi bo`yicha o`tkazilgan musobaqada faol ishtirok etgani uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

2022-yil 8-dekabr Konstitutsiya qabul qilingan kun munosabati bilan “Konstitutsiya - kelajagimiz poydevori” nomli tadbirda faol ishtirok etgani uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

2022-yil Yoshlar ishlari agentligi Termiz shahar bo`limi hamda “Mehrli qo`llar” volontyorlik guruhi hamkorligida tashkil etilgan “Xazina qayerda?” musobaqasida faol ishtirok etgani uchun pedagoglar jamoasi sertifikat bilan taqdirlanadi.

Madinaning bir qancha maqolalari chop etildi.

Jumladan, “Hujjatlarning paydo bo`lish tarixi, inson hayotida tutgan o`rni, mustaqilligimizdan keyingi o`zgarishlar” nomli maqolasi “МУГАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИУ” №3-2022 ЖЫЛ ISSN 2181-7138 ilmiy metodologik jurnalida chop etildi.

“The level of importance of the 2nd class textbooks in primary grades” nomli maqolasi chop etildi.

“Model-intensiv yechim” mavzusidagi maqolasi “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish: muammolar va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to‘plamida chop etildi.

“Oilada bolaga jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, ekologik tarbiyani shakllantirish” mavzusidagi maqolasi chop etildi.

Madina Qobilova fidoyilik tuyg‘usini va mehnatsevarlik fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan va yoshlar orasida targ‘ibot qila oladigan, mustaqil respublikamiz ravnaqi yo‘lida mehnat qiladigan haqiqiy o‘zbek qizi sifatida ko‘rish mumkin.



Oltinbekova Dilxumor Oltinbekovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, ingliz tili fakulteti, xorijiy til va adabiyot yo'nalishining 3-bosqich talabasi.

Oltinbekova Dilxumor Oltinbekovna 2002-yil 1-aprelda Jizzax shahrida tug'ilgan. Millati-o'zbek.

2009-yil Jizzax shahar 5-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. 2018-yil maktabni a'lo baholarga tamomlab, JDPI akademik liseyining xorijiy til va adabiyoti yo'nalishiga qabul qilindi.

2020-yilda O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetiga o'qishga qabul qilinib, hozirda mazkur universitetning 3-bosqichida tahsil olib kelmoqda.

Dilxumor iste'dodli hamda tashabbuskor yoshlar sifatida matbuot sahifalaridagi chiqishlari bilan nafaqat tuman, viloyat va respublika nashrlarida ham o'z o'rniga ega. U “Ma'rifat”, “Tong yulduzi”, “Jizzax ovozi”, “Kelajak bunyodkori”, “Ziyo chashmasi”, “G'uncha” kabi gazeta va jurnallarda o'z chiqishlari bilan faol ishtirok etib kelgan.

Dilxumor Oltinbekova badiiy janrlar bilan bir qatorda publisistika va ilmiy sohalarda ham ijod qilib kelmoqda. Buning samarasi o'laroq Jizzax viloyatida Adolat SDP tomonidan muntazam tashkil qilingan “Iste'dod” klubining adabiyot sardori, O'zbekiston Yoshlar ittifoqining “Yosh ijodkorlar”, “Targ'ibotchi kitobxon” klublari a'zosi bo'lgan.

Jizzax viloyat Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi “Sangzor”, “Jizzax ovozi” gazetasining “Mushoira” mahorat maktabi, O'zbekiston san'at va madaniyat targ'ibot markazi

qoshidagi “Ohu” ijodkorlar klublari faol a'zosi hisoblangan. 2018-yildan buyon O'zbekiston Yoshlar ittifoqida faoliyat olib kelmoqda. Shu kunga qadar barcha tashkiliy ishlarda faol. 2018-2019 yillar sport yo'nalishida yetakchilik qilib O'zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati sport federatsiyasi hamda sport qo'mitasi bilan birgalikda ko'plab musobaqa, seminar, mahorat darslari hamda sport ustalari bilan turli uchrashuvlar tashkil qildi.

2018-yil O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Jizzax shaxar Kengashi qoshida tashkil etilgan “Sardorlar maktabi”ning 3 oylik o'quv seminarlarida o'zining tashkilotchiligi, qiziquvchan va izlanuvchanligi, epchilligi, fikr va g'oyalari bilan o'zini ko'rsata olganligi, o'qish davomida tashkiliy ishlarni puxta bajarganligi uchun sertifikatni qo'lga kiritgan.

2019-yilda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Jizzax viloyati Yetakchilar Kengashi faoliyatidagi tashabbuskorligi, namunali xulqi va faolligi bilan o'z tengdoshlariga o'rnak bo'lgani uchun diplom bilan taqdirlangan.

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 81 yilligi munosabati bilan Jizzax viloyati gandbol federatsiyasi hamda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi hamkorligida o'zi tomonidan rejalashtirilgan va tashkil etilgan sportning gandbol turi bo'yicha “Xotira turniri”da faol ishtirok etganligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

2019-yilda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Jizzax viloyati Kengashi hamkorligida tashkil etilgan “Stol tennisi” musobaqasida tashkilotchiligi bilan bir qatorda faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritgani uchun diplom bilan taqdirlangan.

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni amalga

oshirish, jumladan, ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha sportning voleybol turidan tashkil etilgan musobaqada faol ishtirok etganligi uchun 2-darajali diplom bilan taqdirlangan.

2019-yilda “Yoshlar oyligi” hamda 1-iyun “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” munosabati bilan “Baxtli bolalik” loyihasida faolligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

2019-yilda Jizzax akkumulyator zavodi aksiyadorlik jamiyatiga qarashli “ENERGY” yozgi bolalarni sog'lomlashtirish oromgohida mavsumlar davomida o'zining fidoyiligi va yuqori intellektual qobiliyati bilan mavsumni yuqori kayfiyatda a'lo darajada tashkil etishda ko'rsatgan faolligi uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2019-yilda Jizzax viloyati kasaba uyushmasi tashkilotlari Kengashiga qarashli Sharof Rashidov yozgi sog'lomlashtirish oromgohida 6-mavsum davomida o'tkazilgan tadbirlarda faol ishtiroki, bolalar tarbiyasiga qo'shgan hissasi va fidokorona mehnati uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

2019-yilda “Nur education” o'quv markazida samarali mehnat qilib kelganligi, o'quvchi yoshlarga o'z bilimlarini mukammal o'rgatayotganligi, jonkuyarligi va shijoatkorligi bilan boshqalarga o'rnak bo'lib kelganligi uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2019-yilda Akademik lisey va kasb-hunar kolleji o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan “Eng namunali yosh qutqaruvchi” musobaqasining Jizzax viloyat bosqichida faol ishtirok etganligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

2019-yilda Akademik litsey va kasb-hunar o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha o'tkazilgan viloyat olimpiadasida rus tili fanidan faxrli 3-o'rinni egallaganligi uchun diplom bilan taqdirlangan.

2020-yil pandemiya davrida o'zining fidoiyligi, Vatanga bo'lgan muhabbati hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan tashkil etilgan ko'ngilli yoshlar safidagi faolligi bilan tengdoshlariga na'muna bo'lib 1197 qisqa raqamli (Call center)da operator bo'lib faoliyat olib borganligi uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2020-yilda xalqaro til bilish darajasi sertifikatini (IELTS) qo'lga kiritgan.

2020-yil 20-fevralida “Moskovskiy finansovo-promishlenniy” universitetiga qabul qilindi.

2020-yilda Rossiyada o'tkazilgan “Vserossiyskaya olimpiada “Vremya znaniy” da faol ishtirok etib, ingliz tili fanidan faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritgan.

2020-yilda avgust oyida turizm sohasini chuqur o'rganishga qaratilgan “Dream forum” ilmiy konferensiyasida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2020-yil “AKFA MED LINE” universiteti talabasi bo'ldi.

2020-yil oliy ta'lim muassasalariga xotin-qizlarni qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etishi uchun tavsiyanomani qo'lga kiritdi.

2020-yil "Yoshlar forumi - 2020" da Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan o'tkazilgan uchrashuvda qatnashish baxtiga muyassar bo'ldi.

Quyida Dilxumor ishtirok etgan xalqaro konferensiya va forumlar ro'yxati berilgan:

2021-yil 7-mart “Sustainable development goals model united nations online conference”;

2021- yil 20-mart “Global leaders online conference”;

2021-yil 20-mart “International youth online conference”;

2021-yil 20-mart “International youth online conference-the best speaker award”;

2021-yil 20-mart “Global leaders online conference-the best delegate award”;

2021-yil 22-mart “Eurasian youth online conference” ;

2021-yil 23-mart “Eurasian youth online conference 3-the best delegate award”;

2021-yil 23-26 mart “Merger youth forum 1”;

2020-yil 15-avgust “Tashkent international youth online conference”;

2021-yil 29-avgust “Leader academy international forum”.

Dilxumor 2021-yil 26-sentabr “Ilmiy maqola qanday yoziladi” mavzusidagi vebinar ishtirokchisi, MDH davlatlari o'rtasida o'tkazilgan “Eng yaxshi yosh olim-2021” tanlovi 1 - o'rin sohibasi bo'ldi.

2021-yil Prezident saylovi munosabati bilan universitet miqyosida o'tkazilgan videoroliklar, 2021-yil “Yilning eng faol tashabbuskor targ'ibotchi talabasi” tanlovlarida 1-o'rinni egalladi.

2022-yil Jizzax akkumulyator zavodi Aksiyadorlik jamiyatiga qarashli “Energy” yozgi bolalarni sog'lomlashtirish oromgohida mavsumlar davomida o'zining fidoyiligi va yuqori intellektual qobiliyati bilan mavsumni yuqori kayfiyatda, a'lo darajada tashkil etishda ko'rsatgan faolligi uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2022-yil 18-sentabrda ilmiy tadqiqotlar hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlash markazi tomonidan o'tkazilgan “Best publication” tanlovi, 2022-yil 19-dekabr olimlar kengashi tomonidan tashkil etilgan “Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar yetakchisi” ko'krak nishoni sohibasi bo'ldi.

2023-yil 6-yanvar Linguaskill til bilish sertifikatini qo'lga kiritgan.

30 dan ortiq maqola va tezislari xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

2 marotaba Butunjahon konferensiyasida (2022 y. International Taskent Investment Forum, 2022 y. World Conference on Early Childhood Care and Education ECCE) tarjimon sifatida ishtirok etgan.

Dilxumor zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha ham chuqur bilimga ega. Internet tarmog'idagi o'z veb-sahifalari orqali yoshlar ishtirokida jurnalistikaga oid mavzularda onlayn muloqotlarni o'tkazib kelmoqda.

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Ingliz tili 3-fakultetiga qarashli "3rd English faculty", “Yoshlar Ittifoqi Ingliz tili 3-fakulteti”, universitet “UzSWLU” rasmiy telegram kanallarini yuritadi.

2020-yildan boshlab universitetda fakultet yetakchisi bo'lib faoliyat yuritib kelmoqda. Qizlarning faolligi va o'ziga bo'lgan ishonchini yanada orttirish maqsadida tashkil etilgan "Qizlarjon" klubiga ham rahbarlik qilib keladi.

Oltinbekova Dilxumor Oltinbekovna kelgusida Vatanimiz ravnaqi yo'lida bor bilim va mahoratini ishga solgan holda o'zining yangidan-yangi ilmiy ishlari bilan yoshlarga o'rnak bo'lishiga ishonamiz.



Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Nukus Davlat Pedagogika institute, O'zbek tili va adabiyoti fakultetining, 1-bosqich talabasi.

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi 2003-yil 4-sentabr kuni Surxondaryo viloyati, Angor tumanida tadbirkor oilasida tug'ilgan.

2010-yilda Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi. 2017-yilda fransuz tili fanidan bo'lib o'tgan “Bilimlar bellashuvi”da tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2019-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida tarix, ingliz tili, ona tili va adabiyot fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 2019-yilda TerDU akademik litseyining ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. O'qish davri davomida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi. Jumladan:

- “Eng iqtidorli talaba” nominatsiyasi g'olibi,
- “Yuksak ma'naviyatli avlod” ko'rik tanlovida insho yozish bo'yicha g'olibi,
- “Orasta qizlar” ko'rik-tanlovida faxrli 1-o'rinni egalladi (2020).

2020-yilda kollejni a'lo baholarga tamomladi va TerDU Akademik litseyining diplomi bilan taqdirlandi.

Ko'plab oromgohlarda bo'lib o'tgan forum, konfrensiya, trening va Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan

tadbirlaring faol ishtirokchisidir. 2019-2020 yillar oralig'ida Termiz shahridagi TerDu akademik litseyida o'qigan. 2021-yilda Toshkent shahridagi "Yosh Jurnalistlar" maktabini tamomlagan. Adiba 80 dan ziyod tuman, viloyat tanlovlarida, forumlarda faol ishtirok etgan. Ilk kitobi 9-sinfligida "Ko'ngil g'unchalari" nomi ostida nashr qilingan. She'rlari "Umid uchqunlari" she'riy to'plamlaridan ham joy olgan. She'rlari matbuot va gazetalarda nashr qilinib turadi. Televideniyada bir nechta lavhalarda muxbir va boshlovchilik ham qilgan. Adiba „Kamalak yulduzlari“-2017, "Kamalak bilimdonlari", "Yil sardori", "Eng faol sardor", "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi", „Biz zulmliqqa qarshimiz“ tanlovida insho yozish bo'yicha 1-darajali diplom bilan taqdirlangan. Yozgan she'rlari respublika filologlari tomonidan yaxshi baholanib, "Ikki buyuk siymo" tanlovi g'olibi ham bo'lgan. "Eng yaxshi kitobxon maktab" badiiy ijod yo'nalishida bir qator yutuqlarga erishgan. 2021-yilda Amirxon Umarov tomonidan sertifikat bilan taqdirlangan. Hozirgi kunda Nukus shahridagi Nukus Davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

Adiba ismi jismiga mos qiz. Uning intilishlari, qiziqishlari juda ham baland. She'riyatga qiziqishi yoshligidan boshlangan. Yaqin kunlar ichida Adibaning navbatdagi to'plami Qozog'iston Respublikasi "Qo'sh qanot" fondi bilan hamkorlikdagi to'plamda chiqishi kutilayapti. Kelajakdagi orzulari turk, ingliz tillarini o'rganib, chet elda grant asosida o'qish hamda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori bo'lish. Yosh shoira qizimizning kelajakdagi orzu va maqsadlariga omad tilaymiz.



Meliqulov Nurmuhammad Normahmadovich

**Termiz Davlat Pedagogika Instituti,
Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish
yo'nalishining III-bosqich talabasi.**

Meliqulov Nurmuhammad Normahmadovich 2001-yil 11-mart kuni Surxondaryo viloyati, Denov tumani, Ushor qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan.

2008-yilda Surxondaryo viloyati, Denov tumanining 62-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda bir nechta tadbirlar ssenariysini tuzib undagi rollarni ijro etib jamoat ishlarida faol qatnashdi. U o'zining aktyorlik qobilyati bilan barcha ustozlar e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Maktab davrida biologiya, tarix, ona tili va adabiyot fanlarini yaxshi o'zlashtirgan. Bundan tashqari, she'rlar mashq qilib turadi. Ustozi Mahmasoli Raqibovdan sh'er yozish usullari va sirlarini o'rgandi. Shu jumladan, uning "Onajon" deb nomlangan she'ri "Surxon gazetasi"da chop etilgan.

2019-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

2020-yilda Termiz Davlat Pedagogik Institutining Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishiga to'lov shartnoma asosida talabalikka tavsiya etildi. Hozirda Institutining 3-bosqich talabasi. Meliqulov Nurmuhammad Termiz Davlat Pedagogik Institutida Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida tashkillashtirilgan "Quvnoqlar va Zukkolar"

ko'rik tanlov yetakchisidir. Hozirgi kunda Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakultetida Yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat yuritmoqda. Turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan:

15 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari xalqaro va respublika jurnallarida nashr etilgan.

2022-o'quv yilida Termiz Davlat Pedagogika Institutida o'tkazilgan "ZAKOVAT" intellektual o'yinida faol ishtirok etib faxrli I-o'rinni egallab sertifikat sohibi bo'ldi.

2022-o'quv yilida bir nechta oliy ta'lim muassasalar o'rtasida o'tkazilgan "Yilning eng faol talabalar teatr studiyalari" ko'rik-tanlovida eng yaxshi erkak roli uchun I o'rinni egallab, xalqaro sertifikat sohibi bo'ldi.

2022-o'quv yilida "Besh tashabbus - besh imkoniyat" doirasida o'tkazilgan "Ma'naviy-marifiy tadbir" ko'rik-tanlovida ishtirok etib, faxrli I o'rinni egallab diplom.

2022-o'quv yilida talabalar o'rtasida 4+2 dastur doirasida o'tkazilgan tanlovda faxrli II-o'rinni egallab, diplomni qo'lga kiritdi.

2022-o'quv yilida "Yangi O'zbekistonni o'zimiz, o'z qo'llarimiz bilan bunyod etamiz!" shiori ostida o'tkazilgan insholar tanlovida universitet bosqichida faxrli I-o'rinni egallab diplom bilan taqdirlandi.

30 dan ortiq xalqaro va respublika forumlar delegati, xalqaro va respublika sertifikatlar sohibi.



Hasanboyeva Shahrizoda Husniddin

Namangan Davlat universiteti, Tibbiyot fakulteti, Davolash ishi yonalishining 1-bosqich talabasi.

Hasanboyeva Shahrizoda Husniddin qizi 2005-yil 2-iyul kuni Namangan shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan.

2011-yilda Namangan shahridagi 7-umumiy va o'рта ta'lim maktabining 1-sinfga qabul qilindi. O'qish davri davomida doimo a'lo baholarga o'qib, jamoat ishlarida faol bo'lib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi. Ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlarda boshlovchi va ishtirokchi sifatida qatnashdi. Xususan, "Siz tarixni bilasizmi?" tanlovi g'olibi bo'ldi. "Balli qizlar" tanlovida faxrli I o'rinni egalladi.

"Yosh kitobxon" tanlovinining faol ishtirokchisi. Shahrizoda Hasanboyeva maktab sha'nini himoya qilishda faol bo'ldi. 2017-yilda biologiya(zoologiya) fanidan bo'lib o'tgan "Bilimlar bellashuvi"ning shahar bosqichiga yollanmani qolga kiritdi. 2019-yilda bo'lib o'tgan "Bilimlar bellashuvi"da shahar bosqichida faxrli o'rinni egalladi. 2020-yilda Rossiya Federasiyasi tomonidan o'tkazilgan ingliz tili onlayn olimpiadasida faxrli I-o'rinni egalladi. 2022-yilda fanlar olimpiadasida kimyo fanidan faxrli o'rinni egalladi. Shahrizodaning she'riyatga bo'lgan iqtidori va qiziqishi maktab davrida namoyon bo'lgan edi.

2020-yilda karantin davrida bo'lib o'tgan "Uyda qoling-ijod qiling" respublika tanlovining "She'riyat" yonalishida faxrli II o'rin sohibi bo'ldi va hokimlik tomonidan taqdirlandi.

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

2022-yilda ózini a'lo baholari va namunali hulqi uchun maktabni oltin medal bilan yakunladi.

2022-yilda Namangan shahrida bólib ótgan "Bagrikenglik" festivalida faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

Maktabni yakunlagach, kóplab chet el universitetlariga muddatidan oldin talabalikka tavsiya etildi.

2022-yilda Namangan Davlat universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yònalishiga talabalikka tavsiya etildi. Hozirda universitetinig 1-bosqich talabasi.

Shahrizoda 1-bosqich talabasi bólsa-da, universitetda bólib ótadigan kóplab tanlovlarda ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, "Eng faol talaba", "Zakovat intellektual óyini", - "Men òz kasbimni sevaman", "Men pazandaman", "Besh tashabbus", "Iqtidorli yoshlar", "Mirzo Ulug'bek vorislari" "Kitobxon yoshlar" tanlovlarining faol ishtirokchisi va g'olibi bo'ldi.

Hozirda she'riy kitobi chop etilish arafasida. Universitet tomonidan "Zulfiya" mukofotiga nomzodlikka tavsiya etilgan.



Mirzaulug'ov Shahzod Behzod o'g'li

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining III-bosqich talabasi.

Mirzaulugo'v Shahzod Behzod o'g'li 2001-yil 1-yanvar kuni Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi Tuyaboshi qishlog'ida tavallud topgan. Millati-o'zbek.

2019-yilda qishlog'idagi 65-umumta'lim maktabini a'lo baholar bilan tamomladi. Uning faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak bir necha marotaba “Bilimlar bellashuvi” va fan olimpiadalarida fransuz tili fanidan faxrli o'rinlarni egallagan. Respublika bosqichida Qashqadaryo viloyati sharafini munosib himoya qilgan.

2016-2017 o'quv yilida tuman miqyosidagi “Prezident asarlari bilimdoni” ko'rik-tanlovining mutlaq g'olibi bo'ldi. 2020-yil dekabr oyligida universitet talabalari o'rtasida o'tkazilgan sportning tennis turi bo'yicha faxrli 1-o'rinni, voleybol bo'yicha 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Universitet iqtidorli talabalarining izlanishini o'zida jamlagan “Izlanish va ijod” to'plamida ham uning “Nutq siyosati va madaniy nutq” nomli maqolasi bosilib chiqdi. 2021-yilda talabalar o'rtasida o'tkazilgan “Eng yaxshi innovator” ko'rik-tanlovida ham munosib qatnashib, diplom hamda ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkazilgan “Ma'rifat maydoni” ko'rik-tanlovida 3-o'rinni, “Eng yaxshi teatr studiyalari” tanlovida 2-o'rinni qo'lga kiritdi. 2021-yilning 18-25 dekabr kunlari “O'zbekiston yoshlar forumi-2021”da o'z g'oya, tashabbus va takliflari

bilan faol qatnashib, “Yoshlar elchisi” deya eʼtirof etildi. 3-xalqaro kitob nashri doirasida tashkil qilingan MDH davlatlari yoshlari oʻrtasidagi “Eng yosh olim-2021” tanlovida oʻz maqolasi bilan qatnashib, “Eng yosh olim” deb eʼtirof etildi va koʻkrak nishoni bilan taqdirlandi.

“Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonliging huquqiy kafolati” mavzusida respublika ilmiy amaliy konferensiyasida “Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonliging huquqiy kafolati” nomli maʼruzasi bilan ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlandi.

Uning “Izlanish va ijod” toʻplami va maqolalari xalqaro yuqori imfak faktorli jurnallarida chop etildi. 2021-yilda talabalar oʻrtasida oʻtkazilgan “Eng yaxshi innovator” koʻrik-tanlovida ham munosib qatnashib, diplom hamda koʻkrak nishoni bilan taqdirlandi. “English and uzbek dictionary of speech formulas” lugʼati va boshqa kitoblar muallifidir.

Oliy taʼlim muassasalari talabalari oʻrtasida oʻtkazilgan “Maʼrifat maydoni” koʻrik-tanlovida 3-oʻrinni, “Eng yaxshi teatr studiyalari” tanlovida jamoasi bilan 2-oʻrinni qoʻlga kiritdi. 2021-yilning 18-25 dekabr kunlari “Oʻzbekiston yoshlar forumi - 2021”da oʻz gʻoya, tashabbus va takliflari bilan faol qatnashib, “Yoshlar elchisi” nominatsiyasini qoʻlga kiritdi. Respublikamizda oʻtkazilgan “Mirzo Ulugʻbek vorislari” tanlovi gʻolibi boʻldi.

2022-yilda Shahzod oʻzining chuqur intellektual salohiyati, bilimi, va jamiyat hayotiga befarq emasligi uchun “Xalqaro issiq yurak nishoni” mukofoti bilan taqdirlandi.



Toshqulov Zoyirjon Bahodir o'g'li

**Samarqand Davlat Tibbiyot
Universitetining 3-bosqich talabasi.**

Toshqulov Zoyirjon Bahodir o'g'li 1998-yil Samarqand viloyati, Jomboy tumanida tug'ilgan. 2005-yil Jomboy tumani 20-umumiy o'rta ta'lim maktabiga 1-sinfga qabul qilingan. Maktab davrida ham maktabning turli ma'naviy va marifiy tadbirlarida faol ishtirok etgan. “Bilimlar bellashuvi” va fan olimpiadalarida tuman va viloyat miqyosida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Maktabni na'munali baholarga tugatgan. 2014-yilda maktabni tugatib, Jomboy Transport kasb hunar kollejida o'qishini davom ettirgan. Kollej vaqtida ham mutaxassisligi bo'yicha yaxshi baholarga tahsil olgan. Kollejni tugatgach, 2020-2021 o'quv yilida Samarqand Davlat Tibbiyot instituti “Davolash ishi” fakultetiga o'qishga qabul qilindi.

Zoyirjon Toshqulov o'zining zukkoligi, jamoat va o'quv ishlarida faolligi, bilimga chanqoqligi bilan ajralib turadi. O'zining kamtarin va xushmuomalaligi bilan ustozlar mehrini qozongan. Hozirda fakultetning iqtidorli talabalaridan biri. Zoyirjon o'qishi davomida barcha fanlarni “a'lo” baholarga o'zlashtirib kelmoqda. Universitetning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiada va tanlovlarda hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashadi. Uning ilmiy maqola va tezislari respublika va xalqaro nashrlarda chop etilgan.

Jumladan, 2021-2022-o'quv yilida “Достижения Фундаментальной, прикладной медицины и фармации”, xalqaro konferensiyasida “Shotut sirkasining xalq

tabobatidagi ahamiyati" nomli tezisi bilan qatnashgan. 2022-2023 o'quv yili mobaynida esa "O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida "Yog' emboliyasi", "International scientific-online conference" xalqaro Niderlandiya konferentsiyasida "Yurak ishemik kasalliklari", "Научный импульс" xalqaro jurnalida "Appenditsit va uning turlari", bundan tashqari shu o'quv yilida "Best publication" ilmiy tadqiqotlar markazi" tomonidan MDH davlatlari miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik-tanlovida o'zining "Spirtli ichimliklarning jigarga ta'siri" nomli maqolasi bilan ishtirok etib, g'olib deb topilgan va "Intellectual izlanuvchi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, "Samarqand-2020" xalqaro tibbiyot talabalari olimpiadasida gistologiya, sitologiya va embriologiya fanidan faxrli III o'rin sohibi hisoblanadi. Shuningdek, Registon o'quv markazi tomonidan o'tkazilgan insholar tanlovida g'olib deb hisoblanib, ushbu markazda ingliz tili kurslarida qatnashish uchun 100 foizlik vaucher bilan taqdirlangan.

Zoyirjon yurt ravnaqi yo'lida mehnat qiladigan haqiqiy o'zbek o'g'lonidir.



Karimova Inobat Umidbek qizi

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining 2-bosqich talabasi.

Karimova Inobat Umidbek qizi 2000-yil 28-dekabrda Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanida tug'ilgan. 2019-yilda Qo'shko'pir tumanidagi 48-maktabni tamomlab, Xorazm viloyati Yuridik texnikumiga o'qishga kirdi. 2021-yildan “TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining 2-bosqich talabasi.

2020-yil iyun oyida Inson huquqi madaniyati markazi tomonidan respublika miqyosida o'tkazilgan “Huquqiy madaniyat - erkinlik kafolati” tanlovidagi faol ishtiroki va yuqori natijalarga erishganligi uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2020-yil ICT - O'zbekiston volontyorlari jamoatchilik birlashmasi tomonidan “Eng faol targ'ibotchi” tanlovida faxrli 2-o'rinni egallagani uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2020-yil 1-10 avgust kunlari “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining Vobkent tuman kengashi va Buxoro Davlat Universiteti tomonidan “Ijodimdan bir parcha” shiori ostida e'lon qilingan tanlovda rassomchilik yo'nalishi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgani uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2020-yil 10-11 avgust kunlari O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi va O'zLiDeP partiyasi tomonidan butun dunyo bo'ylab

zoom platformasida o'tkazilgan “International girl summit-2020” sammitida muvaffaqiyatli ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan. 2020-yil Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti tomonidan respublika miqyosida o'tkazilgan “Dunyoning top 10 liderlari” videoroliklar tanlovida faxrli 1-o'rinni egallagani uchun diplom va estalik sovg'alari bilan taqdirlangan.

2021-yil fevral oyida O'zbekistonda ilmiy-amliy tadqiqotlar mavzusidagi respublika 25-ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyada “Fuqarolikda shaxsning huquqiy maqomi” maqolasi bilan faol ishtirok etgani uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2022-yil iyun oyida “Nasaf” nashriyoti tomonidan “Qalb gavhari” deb nomlangan she'riy to'plamida ilk she'ri chop etilgan.

2022-yilning 23-24 sentabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan “Tashabbuskor islohotchi” tanlovida diplom, tashakkurnoma, sertifikat va ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

2022-yil iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida “Registon” ta'lim loyihasi tomonidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va oliygoh.uz ta'lim platformasi hamkorligida respublika miqyosida tashkil etilgan “Registon” stipendiyasi tanlovida faol ishtirok etganligi uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2022-yil 22-aprel “Butunjahon yer kuni” ga bag'ishlangan “Bizning yer, bizning kelajak” mavzusidagi respublika fotosuratlar tanlovida faxrli 1-o'rinni egallagani uchun diplom va 1 000 000 so'm pul mukofotini qo'lga kiritgan.

2022-yil may oyida “TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti viloyat musiqali drama teatrida oliy ta’lim muassasalari talabali o’rtasida o’tkazilgan “Yilning eng faol talabalari teatr studiyalari” tanlovining hududiy bosqichida faxrli 3-o’rinni egallagan.

2022-yil Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Iste’dod” talabalar teatr studiyasi Usmon Nosir tavalludining 110 yillik tavalludi munosabati bilan “Na qabring topoldim, na topdim mozor” tarixiy dramasini Dehqonobod kaliyli o’g’itlar zavodida namoyish etganliklari uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2022-yilning 23-iyul kuni ilmiy maqolasi uchun “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi va ma’lumotnoma, tabriknoma hamda mualliflik guvohnomasi topshirildi.

2022-yilning 29-iyul kuni institut talaba-yoshlari uchun “Yoshlar giyohvandlikka yo’q deydi” mavzusida tashkil etilgan rasmlar tanovida faxrli 1-o’rinni egallagani uchun diplom va pul mukofoti topshirildi.

2022-yilning iyul oyida Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi miqyosida tashkil etilgan “Tashabbuskor islohotchi” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik-tanloviga taqdim etilgan ilmiy ishlari kengash tomonidan ko’rib chiqilib, bir ovozdan ma’qullandi Samarqand shahrida maxsus ko’krak nishoni va diplom, tashakkurnoma shuningdek, sovg’alar bilan taqdirlandi.

2022-yil 30-sentabr kuni Rossiyaning “Образование наука и инновационные идеи в мире” jurnalida 3 ta maqolasi nashr etildi.

2022-yilning dekabr oyida “O’zbekim iftixorlari” kitobida avtobiografiyasi chop etilgan.

2022-yilning dekabr oyida Hindistonning Iqra fondi "Ta'lim, ma'daniyat, san'at, millatlararo totuvlikni ta'minlovchi" tashkilotning guvohnomasiga ega bo'ldi.

Argentinaning "Juntos porletras" tashkilotiga a'zolik guvohnomasi, Misrning "Ijodkorlik, san'at, madaniyat" tashkilotiga a'zolik guvohnomasi topshirilgan.

2022-yilda "Yil talabasi -2022" tanlovida "Yilning eng faol iqtidorli talabasi" nominatsiyasi bo'yicha faxrli 1-o'rinni egallagani uchun diplom va pul mukofoti bilan taqdirlangan.

2022-yilning 17-noyabrda "Xalqaro talabalar kuni" munosabati bilan o'tkazilgan "Talabalik - oltin davrim" tanlovida "Eng yaxshi fotosuratlar" va "Eng yaxshi videorolik" yo'nalishida ishtirok etgani uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2022-yilning dekabr oyida Rossiyaning "Моя Республика" tanlovida faol ishtiroki uchun diplom bilan taqdirlangan.

2023-yilning yanvar oyida Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universiteti Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan o'tkazilgan "Adabiyot bilan bir qadam" nomli ijodiy tanlovida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2023-yilning yanvar oyida Hindistonning "Namaste India" jurnalida she'ri chop etilgan.

2023-yilning yanvar oyida "Kelajak ilmi qizlar hamjamiyati" o'quv kursini muvaffaqiyatli tamomlagani uchun O'zbekiston Respublikasi Yosh Maslahatchilar kengashi raisi tomonidan qimmatbaho sovg'alar va sertifikat bilan taqdirlangan.

"Hilol III" kitobida she'rlari chop etildi.

"ILM-FAN FIDOIYLARI"

2023-yilning fevral oyida Amerikaning "The Works of Fiction of Talented Uzbek Creators" antalogiyasida she'ri chop etilgan.

2023-yilning fevral oyida institutda o'tkazilgan "Asrlarga tatigulik daholik" tadbirida faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlangan.

2023-yilning mart oyida institutning "Shoira qizlar klubi" tomonidan o'tkazilgan "Nazm va navo shaydolari" tanlovida 1-o'rinni olgani uchun diplom bilan taqdirlangan.

2023-yilning mart oyida "Bekajon" jurnalida "Abdulla Oripov o'xshashi yo'q shoir" maqolasi chop etildi.

2023-yilning mart oyida Qozog'iston Respublikasining "Qo'sh qanot" fondi tomonidan tashkillashtirilgan "Mo'tabar ona" tanlovida ishtirok etib oltin medal bilan taqdirlandi.



Maxammadjonova Marjona Sherzodbek qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining 2-bosqich talabasi.

Maxammadjonova Marjona Sherzodbek qizi 2003-yil 30-noyabrda Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanida o'qituvchilar oilasida tug'ilgan. Millati - o'zbek. Hozirda O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Media va kommunikatsiya fakulteti 2-bosqich talabasi.

Maxammadjonova Marjona Sherzodbek qizi 2010-yilda Qo'rg'ontepa shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 41-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga o'qishga qabul qilindi. 2015-yili Andijon viloyatining ixtisoslashtirilgan davlat internat-maktabida tahsil o'la boshladi va o'zining shijoati va salohiyatlarini aynan shu paytlarda ko'rsata boshladi. 2021-yilda shu maktabining 11-sinfini a'lo baholarga tamomladi.

Marjona 2015-2016 o'quv yilidan buyon o'zining namunali xulqi, a'lo bilimi, iqtidori, izlanuvchanligi, ijodkorligi, tashabbuskorligi bilan tengdoshlari, sinfdoshlari orasida ajralib turgan va ustozlari e'tiborini qozongan.

2014-2015 o'quv yilidan to 2020-2021 o'quv yiliga qadar Respublika Xalq ta'limi vazirligi, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi, shahar xalq ta'limi bo'limi tomonidan tashkil etilgan loyihalar va tanlovlarda faol ishtirok etgan.

2018-2019 yillarda O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Qo'rg'ontepa shahar press-klub yo'nalishi sardori, keyinchalik esa Yoshlar ishlar agentligi viloyat sardorlari a'zosi etib ham tayinlandi.

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

2015-2017 yillar oralig'ida matematika fan olimpiadasi tuman va viloyat g'olibi, 2018-2019 o'quv yilida rus tili “Iqtidorli bolalar” bellashuvida eng faol o'quvchi, 2018-2021 yillarida o'tkazilgan ingliz tili fan olimpiadasining tuman va viloyat bosqichlarida qatnashgan va eng faol ishtirokchi sifatida e'tirof etilgan.

Bundan tashqari, Marjona viloyat va respublika miqyosida tashkil etilgan “Korrupsiya-taraqqiyot kushandasi” nomli insholar tanlovi tuman va shahar bosqichi qatnashchisi, “Jaholatga qarshi ma'rifat”, “Konstitutsiya - baxtimiz poydevori”, “Ayol – hayot kuychisi” kabi insho tanlovlari ishtirokchisi va sovrindori. 2019- yilda “Bobur izdoshlari”, 2020- yili “Zulfiyaxonim qizlari” nomli badiiy-ijodiy tanlovlarda o'z salohiyatini ko'rsatgan va g'oliblikni qo'lga kiritib, tuman hamda viloyat bosqichlarida ham faol ishtirok etgan. Yosh bo'lishiga qaramay o'zining innovatsion g'oyalari va harakatlari tufayli Andijon Yoshlar ishlari agentligi va Qo'rg'ontepa hokimligi yordamida 2020- yilda o'zining oilaviy “Big life” loyihasiga asos soldi, shu yili eng ilg'or “Yosh tadbirkor” Andijon viloyati nominatsiya g'olibi bo'ldi, 2020-yili fevral oyida xalqaro IELTS 6.5 sertifikatini qo'lga kiritdi. Hozirgi kunda ispan tili va fransuz tillari o'rganuvchisi hamdir.

Marjona Maxamadjonova 2022-yil mart oyida fakultetda Fransiya tashkiloti bilan hamkorlikda o'tkazilgan 12-kunga mo'ljallangan “Adovat tili” kursida faol qatnashib, o'zining tashabbuskorligi va iste'dodini namoyon qilib, faxrli 2- o'rinni egalladi hamda sertifikat bilan taqdirlandi va shu yili aprel oyida Media va kommunikatsiya fakulteti tomonidan o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy “Medialingvistik rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari”

konferensiyasi spikeri, volontyor qatnashuvchisi sifatida o'z salohiyatini ko'rsatdi. 2022-yil Media va kommunikatsiya fakultetida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi faol qatnashchisi. 2022-yil iyun va iyul oylarida xalqaro „Global Youth“ forumida qatnashib, bir qator Angliya, Rossiya, Fransiya, Argentina, Amerika qo'shma shtatlari, Ispaniya va Turkiya kabi davlatlarni O'zbekistondagi rasmiy a'zoliqi guvohnomalarini qo'lga kiritgan. 2022-yil avgust oyida Amazonda nashr etilgan "Leader girls lead the world" kitobida o'zining ishlari va tarjimai holini havola etgan. Hamda qator xalqaro loyihalar a'zosi. 2022-yil iyun oyida tashkil qilingan Amerika Qo'shma Shatatlari qoshidagi "American council" va O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti tomonidan tashkil etilgan "Mighty Girls" klubi a'zosi va koordinatori. "Girls Unity" loyihasining faol ishtirokchisi, "UGRAD" grand-loyihasi yarim finalisti hisoblanadi. "Global Youth Week", "Futur young leaders", "Unity Forum" "Upward growth forum" kabi xalqaro va respublika forumlarining rasmiy delegati, "Ekoist" Andijon va respublika bosh sardorlari jamoasi a'zosi.

Marjona kelgusidagi hayoti va faoliyati davomida yuksak marralarni o'z bilimi, shijoati va salohiyati bilan erishishni, hayotiy va yetuk kasbiy kamolotga yetishishni o'z oldiga yetuk maqsad qilib qo'ygan.



Tolashev Elnur Dilmurod o'g'li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Ona tili va adabiyoti fakultetining 2-kurs talabasi.

Tolashev Elnur Dilmurod o'g'li 2003-yil 31-dekabrda Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida ziyolilar oilasida tugilgan.

2010-yilda G'uzor tumanidagi 18-orta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri mobaynida barcha madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib, barchaga o'rnak bo'ldi. Bundan tashqari, ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan olimpiadalarda tuman, viloyat va respublikalarda faxrli o'rinlarni egallagan. Barcha tadbirlarda faolligi, izlanuvchanligi tufayli maktab ma'muriyati, tuman hokimligi tomonidan "Eng faol o'quvchi", "Eng tashabbuskor o'quvchi" nominatsiyalari bilan taqdirlangan. 2021-yilda maktabni oltin medal bilan tamomlagan.

2021-yilda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining ona tili va adabiyoti yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. O'qish paytida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2021-yil 21-oktabrda "Ona tilim – faxrim-gururim" insholar tanlovida faol ishtirok etgan.

2021-yil dekabr oyida o'zbek tili va adabiyoti fakultetida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinida faol ishtirok etgan.

2022-yil yanvar oyida universitet ortasida o'tkazilgan futbol musobaqasida jamoasi bilan qatnashib, faxrli 2-òrinni egallagan.

2022-yil 9-mayda "Xotira - muqaddas, qadr - abadiy" nomli tadbirda faol ishtirok etgan.

2022-yil oktabrda o'tkazilgan universitet birinchiligi futbol musobaqasida jamoasi bilan faol ishtirok etgan.

2022-yil noyabr oyida bòlib o'tgan malakaviy amaliyotda faol ishtirok etdi.

Bundan tashqari, o'zining ilmga chanqoqligi sababli bir qancha maqolalar chop etish uchun o'z ustida ishlamoqda. "Boburnomada shaxs va inson tasviri", "O'zbek dialektologiyasi va shevashunoslik" maqolalari shular jumlasidandir.

Elnur Tòlashevni o'z Vatani rivojiga munosib hissa qòshishga tayyor inson sifatida ibrat qilib ko'rsatsak arziydi. Bundan tashqari, bòsh vaqtlarida she'r mashq qiladi. Uning she'rlari tumanning "G'uzor hayoti" gazetasida muntazam bosilib chiqqan.

Shu bilan birgalikda bir qator tanlovlarda gòlib bòlgan.

"Adolat" sotsial demokratik partiyasi tashabbusi bilan o'tkazilgan "Biz korrupsiyaga qarshimiz" nomli tadbirda viloyat bosqichida gòlib bòlgan va nodir kitoblar tòplami bilan mukofotlangan.

"O'zbekiston - Vatanim manim " insholar tanlovida faol ishtirok etgan.

Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan o'tkazilgan "Alisher Navoiy - sòz mulkining sultoni " nomli tadbirda gòlib bòlgan va diplom, esdalik sovg'alari bilan taqdirlangan.

"Abdulla Qodiriy ijodiy merosini o'rganamiz" insholar tanlovida faol ishtirok etgan.

Yoshligidan sportga qiziqishi tufayli karate va futbol bilan shugullanib keladi. Karate sport turi bōyicha otkazilgan viloyat, respublika musobaqalarida bir necha bor faxrli oʻrinlarni qōlga kiritgan.

Hozirgi kunda oʻzi tanlagan yōnalish bōyicha shaxdam qadam tashlab, oʻzbek tilining rivojiga munosib hissa qōshish uchun tinmay harakat qilmoqda.



Jumayeva Mukarrama Bekzod qizi

**Samarqand Davlat Chet tillar instituti,
Ingliz tili fakultetining IV-bosqich
talabasi.**

Jumayeva Mukarrama Bekzod qizi 2000-yil 24-iyun kuni Samarqand viloyati, Narpay tumani, O'zbekkenti MFY da ziyoli oilada tug'ilgan.

2006-yilda Narpay tumanining 4-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'quv davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi.

2012-2015 yillarda ingliz tili fanidan bo'lib o'tgan “Bilimlar bellashuvi” va olimpiadaning tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2015-yilda maktabni a'lo baholarga tugatdi.

Maktab davrida ingliz tili, tarix, ona tili va adabiyot fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 2015-yilda Kattaqo'rg'on shahar Samarqand Davlat Chet tillar Instituti qoshidagi 2-sonli akademik litseyining xorijiy til yo'nalishiga (ingliz tili) o'qishga qabul qilindi. O'qish davri davomida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi. 2018-yilda litseyni a'lo baholarga tamomladi.

Pedagogik faoliyatini 2018-yilda o'zi tahsil olgan Narpay tumanining 4-umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi sifatida boshlagan va hozirga qadar o'z faoliyatini yuritmoqda. Maktabda “We speak English” nomli to'garak tashkil etib, bir necha shogirdlarini respublika bellashuvlariga tayyorlamoqda.

2019-yilda Samarqand Davlat Chet tillar institutining ingliz tili II fakulteti, xorijiy til va adabiyoti, (ingliz tili) yo'nalishiga to'lov-shartnoma asosida talabalikka tavsiya etildi. Hozirda universitetning 4-bosqich talabasi.

2021-yilda Narpay tumanining 34-DMTTning ingliz tili rahbari sifatida ishga qabul qilingan va hozirga qadar o'z faoliyatini yuritmoqda. U o'z sohasi borasida ko'rsatgan fidokorligi sababli, bir necha marta e'tirof etilib, rahbariyat tomonidan rag'batlantirilib, o'z jamoadoshlariga o'rnak sifatida ko'rsatilgan holda faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Mukarrama Jumayeva institutning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, 80 ga yaqin ilmiy maqola va tezislari xalqaro va respublika jurnal va konferensiyalarida nashr etilgan.

Respublika Yosh Olimlar Kengashi a'zosi, 2021-yil 22-yanvarda tashkil etilgan "Buyuk ipak yo'li chorrahasida" tanlovida ilmiy maqolalar va "Start up" loyihalar yo'nalishi koordinatori edi. 2021-yil 27-dekabr kuni Samarqand viloyatida o'tkazilgan "Yo'l boshchi-2021" global sammitida tashkilotchi bo'lgan hamda pedagogika sohasi bo'yicha o'z maqolasi bilan qatnashib, xalqaro sertifikat va diplom bilan taqdirlangan. 2021-2022 yillarda Samarqand viloyati "Qizlar ovozi" AKT yo'nalishi koordinatori sifatida faoliyat yuritgan.

2022-yil British Council tomonidan tashkil etilgan "Future English online teacher community" platformasi a'zosi sifatida 31-yanvar kuni Britaniya Kengashi tomonidan "Future English" dasturi doirasida taqdim etilgan "Engaging with approaches to inclusive learning" modulini hamda 17-may kuni "Engaging with assessment for learning"

modulini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat bilan taqdirlangan.

2022-yil 8-oktabr kuni "Renessans" ilmiy markazi va nashriyot uyi tomonidan tashkil etilgan xalqaro konferensiya Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetining filiali MDU (MGU) Toshkent shahrida bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy-amaliy tanlovining ishtirokchisi sifatida "Renessans davri: Ilmiy-tadqiqotlar yetakchisi" hamda "Milliy ilmiy tadqiqotlar yetakchisi" esdalik ko'krak nishoni sohibasi bo'ldi.

2022-yil 20-dekabr kuni "Science and innovation" nomli xalqaro ilmiy jurnali tomonidan tasis etilgan "Ilm-fan targ'ibotchisi" nomli ko'krak nishoni sohibasi bo'lishga erishdi.

"Best Publication" ilmiy tadqiqotlar markazining 2022-yil 24-dekabr kungi 32-sonli buyrug'iga asosan "Intellectual izlanuvchi" esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

50 dan ortiq xalqaro va respublika forumlar rasmiy delegati, xalqaro va respublika miqyosida sertifikatlar sohibasi va 15 dan ortiq forum hamda konferensiya tashkilotchisi sifatida faol ishtiroki uchun tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2023-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan Toshkent shahar Ilg'or tadqiqotlar ilmiy markazi tashabbusi bilan o'tkazilgan Xalqaro ilmiy forumda faol qatnashib "Learning english through social networks" maqolasi pedagogika yo'nalishi bo'yicha eng yaxshi maqola deb topilib, "Ilm-fan iftixori" ko'krak nishoni va maxsus guvohnomasi bilan taqdirlandi.

2023-yil 20-yanvar sanasida "Science box" ilmiy markazi tomonidan tashkil etilgan "Ilmiy tadqiqotning o'rni:

muammo va yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada faol qatnashib, «Ilmiy Tadqiqotchi» koʻkrak nishoni bilan taqdirlandi.

Mukarrama Jumayeva har yili volontyorlik ishlarining faol qatnashchisi va targʻibotchisi. “Quyosh nuri” erkin volontyorlik harakatining Samarqand viloyati hududiy boshqaruvchisi, “Oltin qanot”, “Universe” EVH volyontyorlik jamoasi hamda Talabalar assotsiatsiyasi va U-Report qoʻmita aʼzosi.

Mukarramani mustaqil respublikamiz ravnaqi yoʻlida mehnat qiladigan haqiqiy oʻzbek qizi sifatida koʻrish mumkin. U intizomi, aʼlo oʻqishi va namunali xulqi, jamoat ishlaridagi faol ishtiroki, oʻz dunyoqarashi va tirishqoqligi bilan ajralib turadi. Uning ilmga boʻlgan qiziqishi va intiluvchanligi boshqa tengdoshlaridan ajralib turadi. Mukarrama mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarga munosabat bildiruvchi, vatanparvar va yurt ravnaqiga oʻz hissasini qoʻshishga doim shay, yoshlar oʻrtasida menejer va liderlik xususiyatini rivojlantirishda, ularni xalqchil va fidoiy, oʻz kasbining yetuk mutaxassisi boʻlib yetishishida, yoshlar orzularini roʻyobga chiqarishda sababchi boʻlishni asosiy vazifasi va maqsadi sifatida biladi.



Inomov Azizjon Ikromjon o'g'li

Namangan Davlat universiteti, Yuridik fakultet, Yuristprudensiya yo'nalishining 3-bosqich talabasi.

Inomov Azizjon Ikromjon o'g'li 1999-yil 9-may kuni Namangan viloyati, To'raqorg'on tumani, Kumidon qishlog'ida ishchilar oilasida tug'ilgan.

2005-yilda To'raqorg'on tumanidagi 51-umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindi. O'qish davri davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ssenariy muallifi va boshlovchi sifatida faol qatnashib, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi hamda jamoat ishlarida faol qatnashdi.

Maktab davrida tarix, huquq, ona tili va adabiyot fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirgani sababli 2014-yilda Namangan Yuridik kollejining xo'jalik masalalari bo'yicha huquqshunoslik yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. O'qish davri davomida turli xil tadbirlar va jamoat ishlarida faol bo'ldi. Jumladan, “Yosh huquq bilimdoni” nominatsiyasi g'olibi bo'ldi, “Konstitutsiya-baxtimiz poydevori” ko'rik tanlovida jamoasi bilan faxrli I o'rinni egalladi.

2017-yilda kollejni a'lo baholarga tamamladi. 2019-yilda muddatli harbiy xizmatda bo'lib, jangovor tayyorgarlik, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik va boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirgani uchun xizmat tavsiyanomasiga ega bo'ldi.

2020-yilda Namangan Davlat Universitetining Yuristprudensiya yo'nalishiga davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi. Hozirda universitetning 3-bosqich

talabasi. Inomov Azizjon universitetning ilmiy to'garaklarida, turli olimpiada hamda talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyalarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, 5 dan ortiq maqolasi xalqaro va respublika ilmiy jumallarida nashr etilgan,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “Korrupsiyaga qarshi kurash qonuni targ'iboti” yo'nalishi bo'yicha 1-darajali diplom bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ilmiy amaliy konfrensiyada o'zining maqolasi bilan ishtirok etib, sertifikat va estalik sovg'alar bilan taqdirlangan.

Namangan viloyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan “Huquq bilmdonlari” ko'rik-tanlovida o'z jamoasi bilan qatnashib, faxrli 2-o'rinni egallagan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmaganligi va sud-huquq sohasidagi islohotlar bo'yicha yuborgan taklifi uchun Prezident adminstratsiyasi tomonidan minnaddorchilik bildirilgan.

Uning erishgan yutuqlari quyidagicha:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan o'tkazilgan tanlov g'olibi;

“Inson qadri uchun” o'tkazilgan bir qancha ko'rik tanlovlar qatnashchisi;

O'qish orqali qutqarish dasturi muallifi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qomitasi huzuridagi Fiskal instituti malaka oshirish kursini muvaffaqyatli tamomlagani uchun sertifikat sohibi;

Azizjon Inomov talaba, bir vaqtning o'zida davlat
hizmatchisi hamdir. U mustaqil vatanimiz va xalqimiz
ravnaqi yo'lida mehnat qiladigan haqiqiy o'zbek o'g'lonidir.

Mundarija

Rizayev Jasur Alimdjanovich	4
Xamidov Obid Abduraxmonovich	9
Mahmudova Aziza Nugmanovna	11
Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o'g'li	14
Shodiev Javohir Xamzayevich	18
Xaliqov Kaxor Mirzayevich	20
Islamova Kamola Akramovna	22
Rustamov Baxtiyor Normamatovich	25
Inatullayeva Ra'no Yunusovna	30
Usmanov Abdumo'min Xolmo'min o'g'li	34
Kamalova Gulnora G'ulamovna	36
Sattarova Xulkar G'ayratovna	40
Dushayeva Nilufar Maxsudovna	42
Shaykulov Xamza Shodievich	44
Rasulova Muxsina Rozikovna	46
Sadikova Yorginoy Salijonovna	48
Uralov Shuxrat Muxtarovich	50
Xodjayeva Naimaxon Umirzaqovna	54
Xamroyev Jobir Xolmurodovich	57
Rustamova Shohista Omonjonovna	59
Abdumajidova Hamida	63
Sharipova Nazifa Nasimovna	66
Abdullayeva Munisa Ikramjanovna	69
Dushanova Gulnora Xolmuhammadovna	76
Suyunova Maftuna Sheraliyevna	78
Boqiyeva Dilnoza Qo'qonovna	81
Maxmudova Dilobarxon Sobirjon qizi	84
Burxanova Munira Amriddinovna	87
Muhammadiyeva Zamira Sharopovna	91
Sadullayev Muxriddin Faxriddin o'g'li	94
Qunisheva Muhayyo Mahmadoliyevna	98
Rustamova Feruza Musurmanovna	100
Rahimova Charosxon Odiljonovna	103
Boygabilov Abubakir Adilbayevich	106
Shopulotova (Kobilova) Zarina Abdumumin qizi	109
Shopulotov Shoxrux Asliddin o'g'li	112
Usmanova Aysulu Rinat qizi	115
Jabborova Sevvara Shuhratovna	118

Nazirqulova Shohista Ilhom qizi	121
Raximov Zehniddin Husniddin o'g'li	123
Asgarova Xurshida Ekram qizi	127
Ashurova Shaxnoza Ortiq qizi	130
Nurqosimova Nilufar Qaxramonovna	133
Xudayqo'lova Madina Baxtiyor qizi	136
Ikromova Ominaxon Elmurod qizi	139
Ziyodullayeva E'zoza Kamoliddin qizi	142
Yaxyopo'latova Nilufarxon Botirjon qizi	145
Ergashova Shahrizoda Elbek qizi	150
Isheryakova Joanna Rinatovna	153
Yo'ldosheva Shahnosa O'raljon qizi	156
Sadriddinova Hadija Ikromjon qizi	159
Qodirova Dilnoza Xoliq qizi	162
Meliyeva Muxlisa Olim qizi	166
Mahmudov Muzaffar Mansurjon o'g'li	170
Abduxakimova Umida Baxodirovna	174
Bekturdiyeva Guli Sodiqjon qizi	179
Keldiyorova Navbahor Nuriddin qizi	183
Pardayeva Sevinch Shuxrat qizi	186
Yusupova Farangiz Adhamjon qizi	190
Safarova Gulshoda Shuhrat qizi	194
Qobilova Madina Sobir qizi	197
Oltinbekova Dilxumor Oltinbekovna	200
Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi	207
Melliqulov Nurmuhammad Normahmadovich	209
Hasanboyeva Shahrizoda Husniddin qizi	211
Mirzaulug'ov Shaxsod Behsod o'g'li	213
Toshqulov Zoyirjon Bahodir o'g'li	215
Karimova Inobat Umidbek qizi	217
Maxammadjonova Marjona Sherzodbek qizi	222
To'lashev Elnur Dilmurod o'g'li	225
Jumayeva Mukarrama Bekzod qizi	228
Inomov Azizjon Ikromjon o'g'li	232

“ILM-FAN FIDOIYLARI”

Biografik to'plam

Muharrir: Aziza Nugmanovna Maxmudova Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetining Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedراسi mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Muharrir: Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o'g'li Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Davolash ishi fakultetining III-bosqich talabasi.

Dizayner: Shodiyev Javohir Xamzayevich Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Bank-moliya fakultetining III-bosqich talabasi.

Bosishga 28.02.2023-yilda ruxsat etildi.

13.04.2023-yilda chop etildi. Bichimi 46x60. <<Bookman Old Style>>

raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tobog'i 14.875.

Adadi 100.

«MASHRAB» nashriyoti. Nashriyot

litsenziyasi AI №6135.

Namangan v. Namangan sh, Navoiy

ko'chasi, 36-uy.

«Vodiy Poligraf» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Namangan sh.,
5-kichik tuman, G'alaba ko'chasi, 19-uy.

